

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

ABDULLAYEV AHMADJON XASANOVICH

**KASALLIK NOMLARINI IFODALOVCHI EPONIMIK
KOMPONENTLI SUBSTANTIV FRAZEMALARNING
QIYOSIY TIPOLOGIK TADQIQI
(ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida)**

M O N O G R A F I Y A

Andijon – 2026

“TASDIQLAYMAN”

Ekspert kengashi raisi,

t.f.d., professor

_____M.M.Madazimov

“ _____ ” _____2026 y.

ABDULLAYEV AHMADJON XASANOVICH

**KASALLIK NOMLARINI IFODALOVCHI EPONIMIK
KOMPONENTLI SUBSTANTIV FRAZEMALARNING
QIYOSIY TIPOLOGIK TADQIQI
(ingliz va o‘zbek tillari materiali asosida)**

MONOGRAFIYA

Andijon-2026

Abdullayev Ahmadjon Xasanovichning “Kasallik nomlarini ifodalovchi eponimik komponentli substantiv frazemalarning qiyosiy tipologik tadqiqi (ingliz va o‘zbek tillari materiali asosida) ” nomli Monografiyasi “_____”nashriyoti Andijon – 2026. – 135 b.

Mazkur monografiyada ingliz va o‘zbek tillarida kasallik nomlarini ifodalovchi eponimik komponentli substantiv frazemalarning qiyosiy-tipologik tadqiqi yoritilgan. Unda eponim va eponimik birliklarning nazariy asoslari, tibbiy terminologiya tizimida tutgan o‘rni, kasallik nomlarini ifodalovchi eponimik komponentli substantiv frazemalarning struktur-semantik, lingvopragmatik hamda lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur frazemalarning shakllanish manbalari, struktur modellari, semantik tasnifi, tibbiy diskursdagi funksional-pragmatik imkoniyatlari, ingliz va o‘zbek tillaridagi izomorf va allomorf jihatlari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari yoritilgan. Monografiya filolog olimlar, tilshunoslar, tarjimashunoslar, tibbiy terminologiya bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

M.G‘. Xoshimov

Andijon davlat chet tillari instituti,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar :

D.N.Satimova

Andijon davlat chet tillari instituti,
filologiya fanlari doktori, professor,

N.X.Kayumova

Andijon davlat tibbiyot instituti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

SO‘Z BOSHI

XXI asr ilm-fan taraqqiyoti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mislsiz sur’atlarda rivojlanishi, fanlararo integratsiyaning kuchayishi hamda xalqaro

ilmiy hamkorlikning kengayib borishi natijasida til va terminologiya masalalariga bo'lgan qiziqish yanada ortib bormoqda. Zamonaviy tilshunoslikda terminologik tizimlarni antropotsentrik, kognitiv, lingvokulturologik va pragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, inson salomatligi va hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan tibbiyot sohasi terminologiyasini chuqur o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy kommunikatsiya, tarjimashunoslik, tibbiy ta'lim va xalqaro ilmiy hamkorlik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahon ilm-fanining rivojlanish tendensiyalari tibbiyot sohasida yangi kasalliklar, diagnostika usullari, davolash texnologiyalari va ilmiy kashfiyotlarning muntazam ravishda paydo bo'layotganligini ko'rsatmoqda. Mazkur jarayonlar tibbiyot terminologiyasi tizimining boyishiga, yangi terminlarning shakllanishiga hamda mavjud terminlarning semantik va funksional imkoniyatlarining kengayishiga olib kelmoqda. Bunday terminlar orasida eponimik terminlar alohida o'rin tutadi. Chunki eponimlar insoniyat tarixida muhim iz qoldirgan olimlar, tadqiqotchilar, shifokorlar va kashfiyotchilar nomlari bilan bog'liq holda yuzaga kelib, muayyan ilmiy tushunchalarni ifodalash vazifasini bajaradi.

Tilshunoslikda eponim tushunchasi ko'plab ilmiy qarashlar va nazariy yondashuvlar markazida bo'lib kelgan. Eponimlar dastlab onomastika doirasida o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik terminologiya, semasiologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va pragmalingvistika yo'nalishlarida ham tadqiqot obyektiga aylandi. Chunki eponimlar oddiy atoqli ot sifatida emas, balki tarixiy xotira, ilmiy bilim, madaniy tajriba va milliy dunyoqarashning til vositasida ifodalangan ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Tibbiyot terminologiyasida eponimlarning qo'llanishi uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli hisoblanadi. Kasalliklar, sindromlar, simptomlar, anatomik tuzilmalar, fiziologik hodisalar va tibbiy asbob-uskunalarining muayyan olimlar yoki amaliyotchi shifokorlar nomlari bilan atalishi natijasida yuzlab eponimik birliklar shakllangan. Parkinson disease, Alzheimer disease, Down syndrome, Hodgkin

disease kabi terminlar bugungi kunda xalqaro tibbiy muloqotning ajralmas qismi sifatida faol qo'llanilmoqda. Ularning aksariyati o'zbek tiliga ham turli yo'llar orqali kirib kelgan va tibbiy diskursda keng iste'mol qilinmoqda.

Eponimik terminlarning alohida guruhi sifatida kasallik nomlarini ifodalovchi eponimik komponentli substantiv frazemalar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur birliklar tarkibida eponimik komponentning mavjudligi ularni oddiy terminlardan ajratib turadi. Bunday frazemalar bir vaqtning o'zida nominativ, informativ, tarixiy, madaniy va pragmatik vazifalarni bajaradi. Ular tibbiyot tarixida muhim ilmiy natijalarga erishgan shaxslarning nomlarini saqlab qolish bilan birga, ilmiy merosning avloddan avlodga uzatilishini ham ta'minlaydi.

So'nggi yillarda jahon tilshunosligida tibbiy terminologiyani antropotsentrik paradigma asosida tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda. Xususan, terminlarning inson omili bilan bog'liqligi, ularning konseptual asoslari, kognitiv modellar orqali shakllanishi, lingvomadaniy mazmuni hamda kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari keng o'rganilmoqda. Shu bilan birga, globallashtirish sharoitida turli tillardagi terminologik tizimlarning qiyosiy tadqiqi ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki turli tizimlarga mansub tillarda bir xil tushunchaning ifodalanishi, tarjima qilinishi va qo'llanilishidagi o'xshash hamda farqli jihatlarni aniqlash xalqaro ilmiy muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ingliz tili bugungi kunda xalqaro ilm-fan va tibbiyotning yetakchi kommunikatsiya vositasiga aylanganligi sababli tibbiy terminlarning asosiy qismi aynan ushbu til orqali dunyo miqyosida tarqalmoqda. O'zbek tilida esa mustaqillik yillarida terminologiyani milliyalashtirish, tartibga solish va standartlashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, tibbiy eponimlarning lingvistik tabiati, ayniqsa kasallik nomlarini ifodalovchi eponimik komponentli substantiv frazemalarning qiyosiy-tipologik xususiyatlari hali yetarlicha o'rganilmagan.

I BOB. HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA EPONIMIK KOMPOONENTLI SUBSTANTIV FRAZEMALARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Hozirgi zamon tilshunosligida eponimik komponentli frazemalar va ularga turlicha yondashuvlar

Jahon tibbiyot fani, jumladan vatanimiz tibbiyot fanining ham barcha yo‘nalishlarida globallashuv va integrallashuv jarayonlari ta’sirida yangi ilmiy qarashlar, innovatsion g‘oyalar hamda zamonaviy tibbiy an’analar vujudga kelmoqda. Bu jarayonlar natijasida tibbiyot sohasida ko‘plab kashfiyotlar ro‘y bermoqda va ular o‘z navbatida faol amaliyot hamda ilmiy izlanishlar orqali tibbiyot fanining taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda tibbiyot fanining quyidagi muhim tarmoqlari muntazam rivojlanmoqda:

1. **Anesteziologiya** – og‘riq sezilishining oldini olish va anesteziyani boshqarish bilan shug‘ullanadi.

2. **Kardiologiya** – yurak va qon-tomir tizimi kasalliklarini o‘rganish va davolashga ixtisoslashgan.

3. **Dermatologiya** – teri, tirnoq va soch bilan bog‘liq kasalliklarni tadqiq etish va davolashni o‘z ichiga oladi.

4. **Tez tibbiyot yordami** – shoshilinch holatlarda tezkor tibbiy yordam ko‘rsatadi.

5. **Endokrinologiya** – gormonlar va endokrin bezlar faoliyati bilan bog‘liq kasalliklarni o‘rganadi va davolaydi.

6. **Oilaviy tibbiyot** – barcha yoshdagi bemorlarga kompleks tibbiy xizmat ko‘rsatadi.

7. **Gastroenterologiya** – ovqat hazm qilish tizimi faoliyati va uning buzilishlarini o‘rganadi va davolaydi.

8. **Umumiy xirurgiya** – turli jarrohlik amaliyotlarini bajaradi.

9. **Ichki kasalliklar** (terapiya) – kattalardagi ichki a‘zolar bilan bog‘liq kasalliklarni aniqlash va davolashni qamrab oladi.

10. **Nevrologiya** – markaziy va periferik asab tizimi bilan bog‘liq kasalliklarni o‘rganadi.

11. **Akusherlik va ginekologiya (OBGYN)** – ayollar sog‘lig‘i, homiladorlik, tug‘ruq va reproduktiv tizim muammolariga ixtisoslashgan.

12. **Oftalmologiya** – ko‘z va ko‘rish tizimi kasalliklarini davolaydi.

13. **Ortopediya** – suyaklar, bo‘g‘imlar va mushak tizimi bilan bog‘liq muammolarni tahlil qiladi va davolaydi.

14. **Otolaringologiya (ENT)** – quloq, burun, tomoq kasalliklari bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etadi.

15. **Patologiya** – kasalliklarning paydo bo‘lish sabablarini va ularning patogenezini o‘rganadi.

16. **Pediatrica** – bolalar sog‘lig‘ini saqlash va davolashga ixtisoslashgan.

17. **Psixiatriya** – ruhiy salomatlik muammolarini aniqlash va davolash bilan shug‘ullanadi.

18. **Radiologiya** – tasvirlash usullari orqali aniq tashxis qo‘yish va ayrim hollarda davolashni ham amalga oshiradi.

19. **Urologiya** – peshob tizimi hamda erkaklar reproduktiv a‘zolari bilan bog‘liq muammolarni hal etadi.

20. **Allergologiya va immunologiya** – allergik holatlar hamda immun tizimi buzilishlarini o‘rganish va davolash bilan shug‘ullanadi.

21. **Klinik genetika** – irsiy kasalliklar va ularning klinik namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganadi.

22. **Infekcion kasalliklar** – infeksiya ta’sirida yuzaga keladigan kasalliklarni aniqlash, tahlil qilish va davolashga ixtisoslashgan.

23. **Medikal onkologiya** – yomon (zararli) o‘smalarni (xususan rakni) diagnostika qilish va davolashni amalga oshiradi.

24. **Nefrologiya** – buyrak tizimi faoliyati va buyrak kasalliklarini o‘rganish va davolash sohasidir.

25. **Yadroviy tibbiyot** – diagnostika va davolash maqsadida radioaktiv moddalardan foydalanadi.

26. **Og‘riqni boshqarish tibbiyoti** – turli etiologiyali og‘riq sindromlarini aniqlash, ularni kamaytirish va nazorat qilish bilan shug‘ullanadi.

27. **Palliativ tibbiyot** – og‘ir va davolab bo‘lmaydigan kasalliklarga chalingan bemorlarga ruhiy va jismoniy yengillik yaratishga qaratilgan tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordamni ta‘minlaydi.

28. **Plastik xirurgiya** – organizm tuzilishini qayta tiklash va estetik jihatdan yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan jarrohlik faoliyatini o‘z ichiga oladi.

29. **Revmatologiya** – avtoimmun va yallig‘lanishli bo‘g‘im kasalliklari, jumladan artrit, sistemali eritematoz qon oqishi va boshqalarni tadqiq etadi.

30. **Uyqu tibbiyoti** – uyqu buzilishlarini, ularning sabablarini hamda davolash usullarini o‘rganadi.

Sport tibbiyoti – Sportchilar sog‘lig‘ini saqlash, jarohatlarni davolash va profilaktika qilish bilan shug‘ullanadi¹.

Ushbu tibbiy tarmoqlarda olib borilgan va borilayotgan ilmiy-amaliy faoliyatlar natijalari o‘laroq, zamonaviy tibbiyotda uzluksiz ilmiy izlanishlar, tibbiy amaliyotlar amalga oshirilmoqda, ular bilan bog‘liq holda tibbiyot fanining ilmiy-nazariy asoslari yaratilib, turli sohalarga oid metatushunchalar, metaatamalar, metanazariyalar shakllanib, tibbiy soha larni tadqiq etish metatili – tibbiy metatili yaratilib kelmoqda.

Tadqiqotimiz tatahlil obyekti bo‘lgan eponimik nomlar, atamalar, birikmali atamalar, yuqorida sanab o‘tilgan tibbiyot fani tarmoqlarining barchasiga daxldor bo‘lib, ular har bir tarmoqning tibbiy atamalari tizimini, aniqrog‘i tibbiy atamalar makromaydonini tashkil etadi. Bu borada bironta tarmoq yo‘qki, ularda tibbiy eponimik atamalar, birikmali atamalar mavjud bo‘lmagan bo‘lsin. Tibbiy eponimik nomlar, atamalar universal tibbiy tabiatga ega bo‘lib, barcha tillarda o‘z ifoda vositalariga ega, chunki ular kundalik tibbiy amaliyot va muloqot ehtiyojlarini qondirish uchun qo‘llaniladigan betakror til vositalaridir. Bunday tibbiy til vositalarining struktural-semantik, lingvopragmatik va lingvokultuprologik

¹ Ushbu ro‘yxat to‘liq emas, chunki har bir tarmoqning ichida kichik tarmoqlar ham mavjud bo‘lib, tibbiyot sohasidagi turli tarmoqlarning keng ko‘lamda rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi. Har bir tarmoqning o‘ziga xos ilmiy tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, shuningdek tahlil tamoyillari va metodlari mavjud bo‘lib, mazkur tarmoqlar inson sog‘lig‘ini muntazam va samarali muhofaza qilib kelmoqda.

jihatlarini yuqoridagi tarmoqlarga ko‘ra mavzulashtirib, tasniflashtirib, tadqiq qilish ularning serqirra va munozarali muammolarini hal qilishga puxta zamin yaratadi.

Onomastik nomlash umumtilda eng keng tarqalgan nominativ usullardan biri bo‘lsa-da, ular bilan bog‘liq ikkilamchi nomlash xususiyati ham borki, eponim (qadimgi yunoncha ἐπώνυμος – nom beruvchi, lotincha heros eponimus) deb ataluvchi til hodisasi – nom berishning o‘ziga xos shakli sifatida keyingi yillarda tilshunoslar e‘tiborini tobora o‘ziga torta boshladi.

Eponim (“eponimos” so‘zidan olingan) – bu ma’lum bir shaxs, joy, hayvon, qurt-qumursqalar yoki ma’lum va mash’um bir tarixiy davr nomining biror tushuncha yoki obyektga ko‘chishidir. Bu atama taxminan 1833-yildan qo‘llanila boshlangan.

E.M.Kakzanova fikriga ko‘ra, atama-eponimlar antroponim, toponim yoki mifonimlar asosida hosil bo‘ladi. Deyarli barcha tillarda ko‘p sonli eponimlar mavjud. Xususan, A.V.Superanskaya, V.M.Leychik, S.B.Korolyov, R.P.Samusev, L.P.Churilov, V.D.Ryazansev, M.G.Blau, YE.V.Varnavskaya, V.N.Gubina, A.A.Garanin, R.M.Garanina, S.D.Denisov, P.G.Pivchenko, V.P.Danilenko, R.A.Komarova kabi ko‘plab tadqiqotchilarning ishlarida bu masalaga u yoki bu darajada e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, alohida hodisa sifatida E.A.Lobax, V.D.Bondaletov, L.B.Tkachyova kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan².

² Суперанская А.В. Общие вопросы ономастики. – М.: Наука, 1973. – С. 129-131; Лейчик В.М. Ономастиология теория термина // Вестник МГУ, 1991. – № 19. – С. 18; Королев С.Б. Словарь-справочник терминов, эпонимов, симптомов и синдромов в травматологии и ортопедии. – М.: НГМУ, 2007. – С. 71-75; Самусев Р.П. Эпонимы в морфологии: справочник. – М.: Медицина, 1989. – С.126; Чурилов Л.П. Толковый словарь избранных медицинских терминов (эпонимов и образных выражений). – М.: Наука, 2010. – С.73; Рязанцев В.Д. Имена и названия: словарь эпонимов. – М.: Современник, 1998. – 284 с.; Блау М.Г. “Судьба эпонимов: 300 историй происхождения названий. Словарь-справочник”. – М.: ЭНАС, 2010. – С. 271-272; Варнавальская Е.В. Статус и функционирование эпонимов в медицинской терминологии испанского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж: Воронежский гос. ун-т, 2009. – 23 с.; В.Н.Губина Эпонимы в кардиологии, ангиологии и ревматологии: справочник. – СПб.: Фолиант, 2003. – 541 с.; Гаранин А.А., Гаранина Р.М. О месте эпонимов в современной медицинской терминологии. Вопросы ономастики. 2019. – С. 110-124; Денисов С.Д. и Пивченко П.Г. Эпонимы в анатомии. – Минск: БГМУ, 2012. – 85 с.; Даниленко В.П. Лексика языка науки: терминология: Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. – М., 1977. – 41 с.; Комарова Р.А. Семантическое преобразование антропонимов как способ вторичной номинации. – Л., 1985. – 19 с. Лобх Е.А. Структурно-семантические особенности эпонимов в русском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – СПб., 1986. – 43 с.; Бондалетов В.Д. Имена собственные как ономастический объект. – Ставрополь: Изд-во СГПИ, 2015. – 17 с.; Ткачева Л.В. Основные закономерности английской терминологии. – Томск, 1987. – 200 с.

Eponimlar dastlab, Xudo, afsonaviy qahramon, real shaxs yoki geografik obyektlarni (shahar, daryo, tog‘ va boshqalar) nomlari asosida hosil bo‘lgan. Masalan, *Vizantiya* shahri, afsonaga ko‘ra, qadimgi yunon qahramoni *Vizant* tomonidan asos solingan bo‘lib, uni Xudoning o‘g‘li Poseydon deb atashgan. Shunday qilib, *Vizant* – *Vizantiya* hamda *Vizantiya* imperiyasi eponimlarining asosidir. Eponomik nomlarning birinchi qo‘llanilishi miloddan ancha ilgari davrlarga to‘g‘ri keladi. O‘shanda yunonlar ham, rimliklar ham oylar va yillarni o‘zlarining magistrleri nomi bilan atashgan. Vaqt o‘tishi bilan, hodisalar va tushunchalarni nomlash holatlari ko‘paydi. Pirovardida, eponimlarni real shaxslar nomi asosida shakllantirish keng tarqaldi. Masalan, eramizdan avvalgi 332-yilda Misrda, O‘rta yer dengizi qirg‘og‘ida Iskandariya shahri qurilgan bo‘lib, uning asosi Aleksandr Makedonskiy bo‘lgan.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrining kelishi, shuningdek, fanning rivojlanishi, nomlashni talab qiladigan obyektlar sonini keskin ko‘paytirdi. Yangi obyektlar, hodisalar va tushunchalarni buyuk kashfiyotchilar, ixtirochilar, olimlar nomlari bilan atay boshladilar.

O‘z davrining buyuk namoyandalaridan biri – xorazmlik Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850) matematika, geografiya va astronomiyada olamshumul kashfiyotlarni amalga oshirgan. Uning XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan hind raqamlari haqidagi asari fanga o‘nlik pozitsion sanoq tizimini kiritdi (ushbu kashfiyot g‘arb olimlariga taqdim qilindi). Shu tariqa, *algoritmi* atamasi buyuk olim kunyasining lotincha talaffuzi asosida yuzaga kelgan.

Ta’kidlash joizki, eponimik atamalar tibbiyot, fizika, kimyo fan sohalarida keng qo‘llanilgan. Jumladan, tibbiyotda – *Rentgen*, *Paster*, *Gipnoz*, *Kesarevo kesimi*, *Myunxauzen sindromi*, *Gippokrat qasamyodi*, *Axillesovo paylari*, *Siam egizaklari*, *Nikotin*, *Daun sindromi*, *Alsgeymer kasalligi*, *Doppler usuli*, fizikada – *amper*, *gers*, *joul*, *volt*, *vatt*, *Kulon qonuni*, *Nyuton qonuni*, *Om qonuni*, *Kyuri qonuni*, kimyoda – *Xiggs bozoni*, *Farengeyt shkalasi*, *Braun harakati*, *dizel yonilg‘isi* va boshqalar kundalik muloqot amaliyotida keng qo‘llaniladi. Eponim atamalar turli fan sohalarida mavjud bo‘lib, lingvistik xususiyatlarini o‘rganishda

ularning ilmiy mohiyatini tashkil etuvchi tushunchalarga tayanib tadqiq etish maqsadga muvofiqdir³. Shu tariqa, eponimlar mavzu doirasi kengligi jihatidan turli soha mutaxassislarini qiziqtiradi. *Napoleon, olive* (oziq-ovqat), *makintosh, kardigan* (kiyim-kechak), *Kalashnikov avtomati* (qurol nomi) kabi ko'plab eponimlar va eponimik frazemalar jonli tilda keng qo'llanadi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi o'n yilliklarda terminologiyaga qiziqish ortdi. XX asrning 80-yillarida fanning yangi yo'nalishi – terminologik onomastika paydo bo'ldi. U eponimik atamalarining kelib chiqishi, tarkibiy semantik xususiyatlari, funksional tomoni va lingvistik mohiyati bilan shug'ullanadi. Aytish kerakki, ushbu yo'nalish kam o'rganilgan bo'lib, ingliz, rus va boshqa xorijiy tadqiqotchilarining ilmiy asarlari ko'p emas. O'zbek tilshunoslari tomonidan esa deyarli o'rganilmagan. Tilshunoslarda oldida turgan vazifa ushbu yo'nalishdagi ko'plab qarama-qarshiliklarni, shu nomdagi atamalar tarkibi, kelib chiqishi, tasnifi, ta'rifi va tavsifini aniqlashdan iborat.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, eponimlarning eng katta ulushi kasalliklarning nomlarini bildiruvchi tibbiy atamalarga hamda fizik o'lchov birliklariga to'g'ri kelar ekan. Aytish joizki, atamalarining mavjudligi, o'xshashligi, qo'llanilish qulayligi, ommabopligi turli tillarda bir xil bo'lib, ular faqatgina grafik jihatdan farqlanadi. Ularning bir tildan ikkinchi tilga o'girishda transkripsiya, transliteratsiya, kalka, parafraza kabi usullardan keng foydalaniladi.

Atama va so'z o'rtasidagi munosabatlar masalasi uzoq vaqtdan beri terminologiyaning muhim muammolaridan biri bo'lib kelgan. Terminning mohiyatini anglash uchun uni ifodalayotgan leksema bilan bog'liqlik jihatini o'rganish zarur bo'ladi. Ma'lumki, terminga asos bo'lgan so'z umumdilda ko'p ma'noli bo'lishi mumkin, lekin atamalar paradigmasida u bir ma'noli so'z sifatida

³ Новинская Н.В. Термины-эпонимы в языке науки [Электрон ресурс] // *CyberLeninka*. – Ruxsat tartibi: <https://cyberleninka.ru/article/n/terminy-epimiy-v-yazyke-nauki>; Кербер Е.В., Шуйцева И.А. Особенности эпонимов в немецкой экономической терминологии [Электрон ресурс] // *CyberLeninka*. – Ruxsat tartibi: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-epimiyov-v-nemetskoj-ekonomicheskoy-terminologii>; Шелов С.Д., Лейчик В.М. Номенклатурные наименования как класс научно-технической лексики: состав и функции: учеб. пособие. – СПб: СПб. гос. ун-т, 2007. – 88 с.; Костерина Ю.Е. Эпонимные единицы в англоязычной терминологии физики [Электрон ресурс] // *CyberLeninka*. – Ruxsat tartibi: <https://cyberleninka.ru/article/n/epimimnye-edinitiy-v-angloyazychnoy-terminologii-fiziki>

muayyan bir tushunchani ifodalaydi. Bu uning soʻz bilan farqlovchi xususiyati hisoblanadi. Bizningcha soʻz bilan atamaning asosiy farqi shundaki, soʻz umumisteʼmolda cheksiz qoʻllaniladi, atama esa maʼlum soha, jabha, yoʻnalish miqyosida cheklangan holda qoʻllaniladi. Shunisi eʼtiborga molikki, atamalar (birikmali atamalar) substantiv yadroga ega boʻladi.

Eponimlarning tilda paydo boʻlishi ikki xil asosga tayanadi:

1) atoqli otlardan turdosh ot hosil qilish, va aksincha, turdosh otning atoqli otga aylanishi. Mas, *Rentgen* (antroponim) – *rentgen nuri* (xossaning nomi, turdosh ot), *rayhon* – (oʻsimlik turi, fitonim) – *Rayhon* (qizlarning ismi);

2) bir atoqli otdan boshqa turdagi atoqli otning paydo boʻlishi, masalan:, *Amir Temur* (antroponim) – *Amir Temur shohkoʻchasi* (godonim).

S.D.Shyelov va V.M.Leychikning “Номенклатурные наименования как класс научно-технической лексики: состав и функции”⁴ asarida eponimlarning atroponimlarni qisqartirish asosida hosil boʻlgan quyidagi turi ham tavsiflangan: *A.N.Tupolev* tomonidan ishlab chiqilgan Tu-104, Tu-144 B yoʻlovchi samolyotlari; *A.S.Yakovlev* tomonidan ishlab chiqarilgan Yak-40 reaktiv samolyotlari, Yak-18, Yak-50 sport samolyotlari; ZIL-110 yengil avtomobili – “Завод имени Лихачёва” (“Lixachyov nomidagi zavod”)ning nomi kabi⁵.

Shaxs nomi bilan bogʻliq eponimlar ilm-fanning turli sohalarida uchraydi. Ular ikki xil usul bilan hosil boʻladi. Birinchisida, antroponim toʻgʻridan-toʻgʻri boshqa onimga oʻtadi. Masalan, *Yaroslav Mudriy* (knyaz) – *Yaroslavl* (shahar), *Alisher Navoiy* (shoir) – *Navoiy* (viloyat), *Kolumb* (sayohatchi) – *Kolumbiya* (mamlakat), *Zangi ota* (shayx) – *Zangiota* (tuman) kabi.

Antropoeponimlar, shuningdek topoeponimlar, zooeponimlar, ornitoeponimlar va insektoeponimlar asosan, soʻz birikmasi – frazemalar tarzida

⁴ Шелов С.Д., Лейчик В.М. Номенклатурные наименования как класс научно-технической лексики: состав и функции: учеб. пособие. – СПб. СПб. гос. ун-т, 2007. – 75 с.

⁵ A.N.Tupolev (1888–1972) va A.S.Yakovlev (1906–1989) sovet aviatsiyasi tarixida oʻchmas iz qoldirgan, SSSR havo texnikasini rivojlantirishga ulkan hissa qoʻshgan mashhur aviakonstruktorlardir. Tupolev oʻz nomi bilan ataluvchi “Tupolev” tajriba-konstruktorlik byurosi (OKB) asoschisi sifatida tanilgan boʻlsa, Yakovlev oʻz faoliyatini OKB-115 byurosiga asos solish va uni boshqarishga bagʻishlangan. Sanoatning yana bir yirik yoʻnalishi – avtomobilsozlikda ham 1956-yilda KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Sovetining maxsus qarori bilan Moskvadagi yirik avtomobil zavodiga soha rivoji uchun jon kuydirgan arbob I.A.Lixachyov nomi (ZiL) berilgan.

hosil qilinadi: *Bismark arxipelagi*, *Sulaymon orollari* (geografiya), *Bertolet tuzi* (kimyo), *Farengeyt simob termometri* (fizika), *Selsiy shkalasi* (astronomiya), *Avogadro raqami* (fizika-kimyo), *Sepir-Uorf gipotezasi* (tilshunoslik), *Parkinson kasalligi* (tibbiyot) kabi.

Ikkinchi usulda atoqli otlar turdosh otlarga aylanadi. Bu holda individuallik yo‘qolib, appelyativ funksiyaga o‘tadi:⁶ *dizel yonilg‘isi*, *kardigan*, *vatman* kabi.

N.V.Novinskayaning fikricha, eponimlarni hosil qilishda sintaktik hosilalash usuli ko‘p qo‘llaniladi. Tadqiqotchi usuldagi terminologik so‘z birikmalarining quyidagi tarkibiy guruhlarini aniqlaydi:

- 1) Substantiv+sifat predlogsiz – Kulonov energy (*Кулоновская энергия*);
- 2) substantiv+substantiv prepozitsiyasiz – Abady symptom (*симптом Абадю*);
- 3) predlogli substantive+substantiv – Vallah splitting (*расщепление по Валлаху*);
- 4) oldingi uchta strukturaviy turni birlashtirish orqali⁷.

Birikmali atamalar yoki eponimik tipdagi qo‘shma nomlar tarkibiy jihatdan farq qilmaydi, ular murakkab qurilishlari bilan sifat-substantiv, sifat-dosh-substantiv, substantiv-substantiv kabi xarakterdagi terminologik atamalarning asosiy turlarini takrorlaydi. Asosiy komponentning morfologik mansubligiga ko‘ra, tahlil qilingan iboralar mohiyatga tegishli. Ular atributiv, obyekt va boshqa turdagi sintaktik munosabatlarni ham ifodalashi mumkin:

1) ko‘makchisiz: (Waldenov’s appeal) *Valdenov murojaati* (kimyoviy atama), (Alfvenov’s waves) *Alfvenov to‘lqinlari* (fizik atama), (Abadi’s symptom, Preizer’s disease, Roth-Bernhard syndrome) *Abadi simptomi*, *Preyzer kasalligi*, *Rot-Bernxard sindromi* (tibbiy atamalar) va boshqalar;

2) ko‘makchili: (Wallach’s division) *Vallax bo‘yicha bo‘linish*, (Blanc’s chloromethylation) *Blan bo‘yicha xlorometillash* (kimyoviy atama).

⁶ Блау М.Г. Судьба эпонимов: 300 историй происхождения названий. Словарь-справочник. 2010. – С. 5.

⁷ Новинская Н.В. Термины-эпонимы в языке науки [Электрон ресурс] // *CyberLeninka*. – **Ruxsat tartibi:** <https://cyberleninka.ru/article/n/terminy-eponimy-v-yazyke-nauki> //

Rus tilida bu usul biroz boshqacharoq kechadi:

1) ot+ot: *симптом Абади* (Abadi's symptom), *болезнь Прейзера* (Preizer's disease), *синдром Рота-Бернгардта* (Roth-Bernhard syndrome)

2) ot+sifat: *вальденовское обращение* (Waldenov's appeal), *альфеновские волны* (Alfvenov's waves)

3) harakat nomi + predlog + ot: *расщепление по Валлаху* (Wallach's division), *хлорметилирование по Блану* (Blanc's chloromethylation).

Gap shundaki, o'zbek tilida ot+ot shaklidagi *Valdenov murojaati*, *Alfvenov to'liqlari* birikmalari rus tilida *valdenovskoye obrahyeniye*, *alfvenovskiye volno'* tarzida sifatQot shaklida ifodalanadi. Bunda o'zbek tilida otning sifatlashuvi, ya'ni so'z birikmasi tarkibida ot so'z turkumi doirasida belgi bildiruvchi so'zga aylanishi birikmalarning ikki xil modelda shakllanishiga asos bo'ladi, rus tilida esa suffiks orqali atoqli otdan sifat yasaladi: *Вальденов+ск+ое*

Eponimik iboralarning o'ziga xosligi shundaki, ular atoqli otlarning rolini turli yo'llar bilan ifodalaydi. Agar substantiv + substantiv birikma nomlarida u asl shaklida paydo bo'lsa (*Aristotel sillogistikasi*, *Sokrat usuli*), substantiv + sifat va substantiv + sifatdosh iboralarda atoqli ot atamalarining asosi bo'lib xizmat qiladi: *o'rta Platonizm*, *sotsial Darwinizm*, *huquqiy Marksizm* (falsafiy atamalar), *galvanik temir*, *bakelizatsiyalangan faner*.

Ba'zan iboraga kiritilgan har ikki so'z o'z yadrosida atoqli otlarni o'z ichiga oladi: *averroistik aristotelizm*, *tomistik aristotelizm*, *platonizatsiyalanmagan aristotelizm*.

Strukturaviy jihatdan yanada murakkab iboralar "substantiv+sifatdosh" va "substantiv+substantiv" qolipidagi birikmali atamalari hamda ulardan hosil bo'lgan adyektivli (sifatli) birikmaga asoslangan modellar bilan ifodalanadi:

1) substantiv + adyektiv + substantiv: *Bolsmanning kinetik o'lchovi* (fizik atama, *Bolzmann's kinetic measure*), *Grollmenning gipertonik shakli* (tibbiy atama, *Grollmann's hypertonic form*)

2) PE2 + substantiv + ko'makchi + harakat nomi: *yadroni Kulon bo'yicha qo'zg'atish* (*Coulomb excitation of the nucleus*);

3) substantiv + substantiv + substantiv: Gunter arteriyasi bog‘lami (Gunter's arterial ligament), Greyvs va Brunoning suyak plastikasi (Graves and Bruno's bone plastic), Grefening katarakt pichog‘i (tibbiy atamalar, Graefe’s cataract knife), Reynoldsning magnit soni (fizik atama, Reynolds’ magnetic number);

4) substantiv + substantiv + ko‘makchi + harakat nomi: *amidlarning Xoffmann bo‘yicha bo‘linishi* (kimyoviy atama, Hoffmann’s division of amides).

Bunday frazemalar modellarining mazkur ro‘yxatini davom ettirish mumkin. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, iboraning murakkablashgan atamalari murakkab nomlarning asosiy tarkibiy turlarining o‘zgargan shakllari bo‘lishi mumkin (substantiv + sifat, substantiv + sifatdash va substantiv + substantiv variantlarda). Ular ichida tegishli eponimik qism va semantik jihatdan to‘la huquqli atamalar turli yo‘llar bilan birlashtirilgan. Shunday qilib, eponimik frazemalar, bir tomondan, ularga asos bo‘lgan atoqli otlar yoki sifatlarni, boshqa tomondan, eponimik bo‘lmagan leksemalar(sifatlar va otlar)ni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, eponimik frazemalarni ma’lum sohadagi izlanishlar va ular bilan bog‘lik kashfiyotlar, ularning oqibatlarini va natijalari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish maqsadga muvofiq.

Bu o‘rinda eponimlar lingvistik tabiati va maqomini aniqlashga V.D.Starichyonokning quyidagi yondashuvi zamonaviy tilshunoslikdagi ilg‘or fikrlar va nazariyalarga asoslanganligi va keng qamrovliligi bilan alohida ahamiyatga ega: “Hozirgi kunda eponim – bu obyekt yoki jarayonga nom bergan shaxsiy ismi emas, balki obyekt yoki jarayonning o'z nomidir. “Eponim” so‘zi, endi lingvistik termin sifatida, “antonim”, “sinonim”, “omonim”, “paronim”, “toponim” qatoriga kiradi. Shu bilan birga, lingvistik termin “eponimiya” “shaxsiy ismlarga asoslangan yangi so‘zlar hosil qilish” ma’nosini anglatadi”⁸. Biz mazkur tadqiqotda tibbiy eponimlar, xususan birikmali eponimlar deganda nafaqat shaxs, joy, hayvon, qurt-qumursqa nomlarini o‘z tarkibiga olgan, umumjahon tibbiy amaliyotida keng

⁸ Стариченко В.Д. Большой лингвистический словарь / В.Д.Стариченко. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – С. 603 (umumiy hajmi – 811 b.)

qo‘llaniladigan tibbiy eponimik birliklarni tushunamiz, bu borada tadqiqotimiz o‘rganish obyekti bo‘lgan KNIEKSFlar ham shular sirasiga kiradi.

Birikmali atamalar nafaqat tuzilishi, balki komponentlarining ma‘nosi jihatidan, shuningdek, tarkibi, ya‘ni kiritilgan so‘zlarga qarab quyidagicha farqlanishi mumkin:

1) qaratqich kelishigidagi atoqli ot: **Alsgeymer kasalligi** – Alzheimer’s disease, **Parkinson sindromi** – Parkinson’s syndrome, **Gentington xastaligi** – Huntington’s disease;

2) jo‘nalish kelishigidagi atoqli ot: **Ibn Sinoga xos nazariya** – The theory attributed to Avicenna, **Gippokratga oid qasamyod** – The Hippocratic oath, **Galenga taalluqli fiziologiya** – Galenic physiology;

3) sifat va atoqli otdan hosil bo‘lgan: **Ibn Sino ta’limoti** – Avicennian doctrine, **Gippokrat nazariyasi** – Hippocratic theory, **Galenik dorilar** – Galenic medicines.

Bu o‘rinda tibbiy eponimik frazemalar, xususan KNIEKSFlar o‘ziga xos kognitiv-konseptual, struktural-semantik, lingvopragmatik, lingvokulturologik, lingvostilistik va lingvogenderologik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Komponentlar soniga qarab, atamalar, birikmali atamalar, shu jumladan ularning tibbiy turlari ikki komponentli, uch komponentli va ko‘p komponentli bo‘lishi mumkin. B.N.Golovin va R.Yu.Kobrinlar fikriga ko‘ra, eponimik atamalar va birikmali atamalar – terminologik iboralar ikkitadan o‘n yettitagacha so‘zga ega bo‘lishi mumkin, lekin eponim – atamalar tarkibi 5-6 ta so‘zdan oshmaydi⁹. Masalan, *Charcot-Marie-Tus-Hoffmann sindromi* (Charcot-Marie-Tooth-Hoffmann syndrome), *Klippel-Trenone-Veber-Rubashev kasalligi* (Klippel-Trenaunay-Weber-Rubashov disease), *Roy-Maroto-Kremp-Courtire sindromi* (Roy-Maroteaux-Crémieux-Courtrèges syndrome, tibbiy atamalar) va boshqalar.

⁹ Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах / Б.Н.Головин, Р.Ю.Кобрин. – М.: Высшая школа, 1987. – 104 с.

Atoqli otlardan soʻz yasovchi qoʻshimchalar orqali turli soʻz turkumlari – ot, sifat, feʼllar hosil qilinadi yoki yordamchi soʻzlar (koʻmakchi predlog) orqali ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻz turkumlari (subsantiv+feʼl, substantiv+substantiv, sifat+substantiv) qoliplariga koʻra ham eponim birikmalar hosil qilinadi:

- *pasterizatsiya qilmoq, pasterizatsiyalangan, pasterizator* (fransuz bakteriologi L.Paster nomidan);

- *aristotelizm, Aristotel nomidagi, Aristotellashtirmoq*; (qadimgi yunon faylasufi Aristotel nomidan),

- *germetik* (tomirlarning qattiq tiqilib qolishi), *germetizatsiyalash, germetik bosimsizlanish* (Misr donishmandi Germes-3).

Ingliz tilida ham boshqa tillardagi kabi qaratqich kelishigidagi substantiv+subsantiv qolipidagi eponimlar koʻp kuzatiladi: *Archimedes's principle, Avogadro's number, Bernoulli's principle, Law of Charles and Gay-Lussac, the circle of Willis*.

M.N.Sveshnikova atoqli otlar asosida hosil boʻlgan eponimlarning qurilishi va yozilishi masalasiga alohida eʼtibor qaratar ekan, koʻplab zamonaviy lugʻatlarda atoqli ot asosida paydo boʻlgan eponimik sifatlar boʻlib, ular umumiy foydalaniladigan soʻzlarga aylangan va maʼnosining atoqli otlar bilan bogʻliqligi belgilanmagan oʻrinlarda, ularning kichik harflar bilan yozilishi kuzatilishini taʼkidlaydi. Olima, masalan, “*Gerkules*” ismining oʻzi haqida gap ketganda, bosh harf bilan yozilishini va “*gerkules*” – “juda qiyin”, “xavfli” metaforik maʼnoda qoʻllanilganda kichik harf bilan yozilishini koʻrsatib oʻtgan. Baʼzi lugʻatlarda eponimlar faqat bosh harf bilan boshlanadigan soʻz variantida topiladi, ayrimlarida esa har ikki varianti va foydalanish chastotasi koʻrsatilishi mumkin¹⁰.

T.G.Popovanning tadqiq etishicha, atoqli otlar turli atamalar uchun asos boʻlishi mumkin. Masalan, L.Galvan (L.Galván) – XVIII asr italyan olimi. “Galvan” asosi *galvanizm, galvanizar, galvanizatsiya, galvan – metro, galvanoplastika,*

¹⁰ Свешникова М.Н. Изучение эпонимов [Электрон ресурс] // Доклад на тему.... – Ruksat tartibi: <https://doklad-na-tiemu-izuchieniie-eponimov.html>

galvanotexnika atamalarida qo‘llaniladi. Paster (Pasteur) – mashhur fransuz olimi: “Paster” asosi *pasterel*, *pasterizatsiya*, atamalarida qo‘llaniladi. Ye.Fermi (E.Fermi), fizika bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori, tanikli italyan tadqiqotchisi: “Fermi” ildizi *fermio*, *fermion* atamalarida qo‘llaniladi. Ana shunday nomlardan keng tarqalgan yana biri Gipnoz nomi (yunoncha: uyqu ma’budasi) – *gipnoz* tushunchasining shakllanishiga hissa qo‘shgan: *gipnoz*, *gipnoz qilingan*, *gipnofobiya*, *gipnogenez*¹¹.

M.N. Sveshnikovaning fikriga ko‘ra ingliz tilida eponimlar tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qiluvchi olti asosiy turlarga bo‘linadi¹²:

1. Simple – oddiy atamalar
2. Suffix-based derivatives – suffiksli yasama atamalar
3. Compounds – qo‘shma atamalar
4. Possessives – egalik qo‘shimchasini olgan birikmali atamalar
5. Clippings – kesmali atamalar
6. Blends – chatishtirishli atamalar
7. Abbreviated – qisqartma (akronimik) eponimlar.

Keyingi yillarda ingliz tilida bu tasnifga qo‘shimcha ravishda qisqartma so‘z shaklidagi eponimlar yasalayotgani haqida fikr yuritilmoqda.

1. Simple – oddiy atamalar. Atoqli ot to‘g‘ridan-to‘g‘ri eponimga o‘tgan va boshqa biror narsaning umumiy nomiga aylangan. Masalan, mifologik afsonalarga ko‘ra, yunon ma’budasi *Atlas* dunyoni yelkasida ushlab turadi. Uning nomidan xaritalar kitobi uchun umumiy atama sifatida foydalaniladi. *Yevropa* yunon mifologiyasidagi ayol nomi bo‘lib, *Yevropa* qit’asi uning nomi bilan atalgan. *Vatt* – bu uning ishlab chiqaruvchisi Jeyms Vatt nomi bilan atalgan elektr quvvati birligining umumiy nomi.

2. Suffix-based derivatives – suffiksli yasamalar. Shaxs nomiga yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali yangi so‘z yasalishidan hosil bo‘lgan eponimlar.

¹¹ Попова Т.Г. Лексический состав испанского научно-технического текста / – М.: Изд-во РУДН, 2010. – 152 с.

¹² Ko‘rsatilgan manba.

- **ian:** *Maxwellian distribution* – *Maksvell taqsimoti* fizika va kimyoda topilgan ehtimollik tushunchasi bo‘lib, Shotlandiya fizigi Jeyms Maksvell nomi bilan atalgan.

- **ism:** *daltonism* – *daltonizm*, rang ko‘rligi kasalligi Jon Dalton nomi bilan atalgan.

- **ium:** (kimyoviy elementlar nomi yasalishi uchun xosdir): *Nobelium* – *Nobelium* – Alfred Nobel sharafiga shunday nomlangan.

- **ite:** *Adamite* – *Adamit* – fransuz mineralog olimi Gilbert Adam nomi bilan atalgan¹³.

3. Compounds – qo‘shma otlar. Murakkab eponimlar deb ham yuritiladi. Bu atoqli otning turdosh ot bilan qo‘shilib, yangi atama hosil qilishini bildiradi. Masalan, *Walt Disney* → *Disneyland*. Uolt Disney amerikalik tadbirkor va animator bo‘lib, multfilmlari bilan tanilgan.

4. Possessives – egalik qo‘shimchasini olgan birikmali atamalar. Shaxsning biror ixtirosi, kashfiyoti uning nomi bilan atalish usuli. Masalan, sir Isaac Newton → Newton’s laws of motion, Hoffman’s reflex. Eponim – terminologiyada bu eng faol usul hisoblanadi. Masalan, “*Graham crackers*” (“*Grem krakerlari*”) vegetarianlar parhezini targ‘ib qilgan va bugungi kungacha yirikroq maydalangan unni targ‘ib qilgan Silvestr Grem sharafiga nomlangan. *Nyuton qonunlari* fizik olim Isaak Nyuton sharafiga nomlangan. *Magellan bo‘g‘ozi* portugaliyalik tadqiqotchi Ferdinand Magellan sharafiga nomlangan.

5. Clippings – kesma (qirqim) nomlar. Shaxs nomi qisqartirilgan yoki moslashtirilgan eponimlar. Bu usulda atoqli otning bir qismi olinadi. Masalan, *Gal* – bu olim Galileo Galiyey nomidan qisqartirilgan bo‘lib, tezlanish o‘lchov birligining nomi. *Casper (Kasper)* atamasi, ko‘pincha, so‘zlashuv tilida uning asoschisi Yevgeniy Kasperskiy nomi bilan atalgan antivirus dasturiga ishora qilish uchun ishlatiladi.

¹³ Свешникова М.Н. Изучение эпонимов [Электрон ресурс] // Доклад на тему.... – Ruxsat tartibi: <https://doklad-na-tiemu-izuchieniie-eponimov.html>.; Мосягина М.С Структурные типы эпонимов в современном английском языке.; М [Электрон ресурс] // *CyberLeninka*. – Ruxsat tartibi: <https://cyberleninka.ru/article/n/strukturnye-tipy-eponimov-v-sovremennom-angliyskom-yazyke>

6. Blends – chatishtirishlar. Ikki soʻz qoʻshilib yangi soʻz yasaladigan eponimlar. Masalan, *Reaganomics* (“Reyganomika”) atamasi Reygan nomi va iqtisod soʻzining birikmasidan iborat boʻlib, AQSh prezidenti Ronald Reyganning iqtisodiy siyosatiga ishora qiladi.

7. Abbreviated eponyms – qisqartma eponimlar. Eponimlarning bu turi haqida ikki xil talqin mavjud. Odatda, biror ixtiro yoki kashfiyot bir necha shaxs tomonidan amalga oshirilgan boʻlsa, ularning nomlarining bosh harflaridan yangi qisqartma soʻz yasaladi. Masalan, *AWK* – maʼlumotlarni manipulyatsiya qilish uchun moʻljallangan dasturlash tili. Uning nomi ishlab chiquvchilarning bosh harflaridan olingan: Alfren Aho, Piter Waynberger va Brayan Kernigan. *KMP algorithms* – qatordagi pastki qatorni qidirish algoritmi, ishlab chiquvchilar nomi bilan atalgan: Donald Knut, Von Pratt va Jeyms Morris.

Ikkinchi talqin esa quyidagicha: O.P.Mailova, K.L.Kuyboʻshevalarning “Эпонимы английской медицинской терминологии” (“Ingliz tibbiyot meditsina terminologiyasida eponimlar”) maqolasida ingliz tilidagi tibbiy lugʻatda qisqartirilgan “omakronimlar” (shaklan oʻxshash Gʻuyqash qisqartmalar, yaʼni “bakronimlar” atamalar bizniki – A.A.) shakllana boshlagani haqida maʼlumot berilgan. Bular eponim emas, lekin grafik jihatdan qoʻshma atoqli otlarga teng kelishi bilan ahamiyatlidir. Masalan, *ELISA* (*enzyme-linked immunosorbent assay*) – ferment bilan bogʻliq immunosorbent tahlili. *ADAM* (*androgen deficiency aging male*) – erkak yoshi bilan bogʻliq androgen tanqisligi¹⁴.

Eponimik tadqiqotlarning aksariyatida eponimlarni tarixiy shaxslar nomlari bilan bogʻlab talqin qilish urf boʻlib qolgan, lekin bu borada oʻzgacha fikrlar va yondashuvlar ham yoʻq emas. Masalan, V.D.Starichyonok oʻzining “Большой лингвистический словарь” (В.Д.Стариченок. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – С. 600 (umumiy hajmi – 811 b.) V.D.Starichyonok. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2008. S. Starichyonok V.D. Bolshoy lingvisticheskiy slovar Gʻ V.D. Starichenok. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2008. - S. 603 (– obhiy obʻyem -811 s.) nomli lugʻatida eponimlarning shakllanishi va qoʻllanilishiga quyidagicha yondashadi: “*Hozirgi*

¹⁴ Маилова К.Л., Куйбышева О.П. Эпонимы в английской медицинской терминологии // <https://cyberleninka>

*kunda eponim – bu obyekt yoki jarayonga nom bergan shaxsiy ismi emas, balki obyekt yoki jarayonning o‘z nomidir. “Eponim” so‘zi, endi lingvistik termin sifatida, “antonim”, “sinonim”, “omonim”, “paronim”, “toponim” qatoriga kiradi. Shu bilan birga, lingvistik termin “eponimiya” “shaxsiy ismlarga asoslangan yangi so‘zlar hosil qilish” ma’nosini anglatadi*¹⁵. Biz bu lug‘atshunos olimning eponimlarga yangicha yondashuvi va fikrini qo‘llab quvvatlaymiz, chunki, bizningcha, tarixan ma’lum yoki mash’um bo‘lgan shaxslar, joylar, hayvonlar, qushlar, qurt- qumursqalar, obyektlar va boshqa narsa–predmetlar nomlariga asoslanib berilgan yangi nom yangi eponimik atamalar sanaladi. Shunday eponimik atamalar sirasiga KNIEKSFlar ham kiradi.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, eponimik tibbiy atamalar va birikmali atamalar ham yuqoridagi ko‘rsatilgan usullarda tarkib topadi, bu o‘rinda ularning substantiv-substantiv” va “adyektiv (sifat)+substantiv” qolipidagi turlari boshqa turlaridan ko‘ra son va qo‘llanilish jihatdan ustinligini ta’kidlash o‘rinlidir.

1.2-§. Hozirgi zamon tilshunosligida KNIEKSFlar va ularning sintaksis tizimidagi o‘rni va maqomi

Tilshunoslikda tibbiy eponimlar mavzusida qator tadqiqotlar¹⁶ amalga oshirilayotganligi masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi. Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy tibbiyot fani fondida kasallik nomlarini ifodalovchi juda katta miqdordagi eponimik atamalar mavjud. Eponimlar shakllanishining tarixiy tahlili tibbiyotda eponimizatsiya jarayoni o‘tgan asrning o‘rtalarida kasalliklarning (*Darvinizm, Parkinson, Botkin* va boshqalar) aniqlanishi va nomlanishi bilan bog‘liq holda kirib kelganligini tasdiqlaydi.

¹⁵ Стариченко В.Д. Большой лингвистический словарь / В.Д.Стариченко. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – 811 с. – 603 с.

¹⁶ Какзанова Е.М. Лингвокогнитивные и культурологические особенности научного дискурса (на материале математических и медицинских терминов-эпонимов): Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук / Ин-т языкознания РАН. – М., 2011. – 45 с.; Варнавская Е.В. Статус и функционирование эпонимов в медицинской терминологии испанского языка: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук / Воронеж. гос. ун-т. – Воронеж, 2009. – 23 с.; Извекова Т., Грищенко Е.В., Пуртов А.С. Эпонимы в медицинской терминологии // Медицина и образование в Сибири. – 2014. – № 3. – [Электрон ресурс]. – Ruxsat tartibi: <https://ngmu.ru/cozo/mos/article/pdf.php?id=1365;> Кондратьев Д. К. Современная медицинская эпонимическая терминология // Журн. Гроднен. гос. мед. ун-та. 2008. № 3 (23). – С. 129-131.

Eponimlar tibbiyotda uzoq vaqtdan buyon ishlatilib kelinmoqda. Tibbiy eponimlar, odatda, kasallikni aniqlashda asosiy rol o'ynagan taniqli shifokor-olim nomi asosida shakllanadi. O'z navbatida, kasallik yoki uning alomatlari, davolash usullari va vositalari kasallikdan vafot etgan shaxsning ismi tufayli ham fanga ma'lum bo'ladi. Eponimlar turli tillarda va madaniyatlarda o'zaro farqlanishi yoki umumjahon tibbiy atamasi sifatida qo'llanishi mumkin.

Ko'pincha, kasallikni eponim orqali eslab qolish ilmiy patologik tavsifga qaraganda osonroq. Masalan, *Xodjkin kasalligi* atamasi orqali uning besh turidan biri, ya'ni tugunli skleroz, aralash hujayralilik, limfotsitlarning kamayishi, limfotsitlarning boyishi va tugunli limfotsitlarning ustunligi anglanadi. Bu borada amaliyotda qancha tibbiy eponimik atamalar mavjud degan savol ham tug'iladi. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, tibbiyotda 8000 dan ortiq eponimik atamalar bor deb ko'rsatiladi, hozirda ularning soni tobora ortib bormoqda. Eponimlar umumiy qabul qilinishidan oldin o'nlab yillar o'tishi tabiiy holdir. Aslida, ismi eponimga aylangan shifokor-olim, ko'pincha, boshqa kuzatuvchilardan nafaqat birinchi bo'lgani uchun, balki obro'si, mavqei, tibbiy xulosalarining aniqligi, hisobot yoki nashrdagi tafsilotlari bilan ajralib turadi. Ayrim eponimlar shifokor vafotidan keyin aniqlangan bo'lib, ularni yozgan odam bilan bog'laydigan ikkilamchi tadqiqotchi tomonidan qayta kashf etilgan holatlar ham kuzatilgan. Masalan, Jeyms Parkinson 1817-yilda (o'sha paytda 62 yoshda edi) *paralich* kasalligini yoritib bergan. Faqatgina 60 yildan so'ng fransuz patalogoanatomlari Sharko va Trusse tomonidan kasallikka *Parkinson* nomi berilgan. Ba'zi hollarda eponimlar kasallikdan jabrlangan yoki vafot etgan shaxslar nomi bilan bog'liq holda ham shakllanadi. Jumladan, Lu Gerig kasalligi (*Lou Gehrig's disease*) mashhur beysbolchi Lu Gerigda aniqlanganidan so'ng shu nom bilan atalgan. U 1941-yilda ushbu kasallikdan vafot etgan.

Madam dyu Barri simptomi (*Madame du Barry syndrome*) Fransiyadagi inqilob paytida gilyotinada qatl qilingan madam dyu Barrida kuzatilgan yurak va asab urushi (anoreksiya, asabiy tushkunlik) kabi holatlar asosida psixiatriyada ishlatiladi.

Tay-Saks kasalligi: mazkur xastalik uni tadqiq etgan ikki mutaxassis sharafiga nomlangan. "Tay" – Britaniyalik oftalmolog Uorren Tay, "Saks" esa

amerikalik nevrolog Bernard Saksning familiyasidir. Ba'zi manbalarda "Tay" nomi birinchi bo'lib aniqlangan bemor bolaning familiyasi degan qarashlar uchrasa-da, ilmiy doiralarda bu nomlar aynan shifokorlarga tegishli ekanligi e'tirof etiladi.

Tay-Saks kasalligi: odatda shifokorlar U.Tay va B.Saks familiyalari bilan bog'lanadi; biroq "Tay" nomi ilk bemor familiyasidan olingan degan farazlar ham mavjud.

Bu kasallikdagi "Sachs" nomi shifokordan, "Tay" esa birinchi kasallik aniqlangan bola familiyasi bo'lgan holat sifatida keltiriladi.

Krutsfeldt-Yakob kasalligining ushbu nomi shifokorlar G.Krutsfeldt va A.Yakob sharafiga qo'yilgan. Ba'zi manbalarda "Yakob" familiyasi jabrlanuvchining shaxsi bilan bog'liq holda ham keltiriladi.

Krutsfeldt-Yakob kasalligi (*Creutzfeldt-Jakob disease, CJD*) – Yakob familiyali shaxsda ilk marta aniqlangan, shunga qaramay, bu nom shifokorlarning nomlari bilan ham bog'liq. Familiya aslida jabrlanuvchiga taalluqli bo'lishi mumkin, ba'zi manbalarda aynan shunday qayd etilgan.

San-Filippo sindromi. Ushbu kasallik nomi uni tavsiflagan shifokor S.Sanfilippo sharafiga qo'yilgan den hisoblansa-da ayrim ma'lumotlarga ko'ra bu familiya ilk bor ushbu xastalik bilan ro'yxatga olingan bemorga tegishli bo'lishi mumkin.

San-Filippo sindromi (Sanfilippo syndrome) – birinchi bemorning familiyasi "Sanfilippo" bo'lgani haqida ma'lumotlar bor, garchi ba'zi hollarda bu shifokor nomi deb ham keltiriladi.

Aksariyat eponimlar o'z davridagi ilmiy madaniyatlar va tillarning ustunligini aks ettirib, asosan XIX – XX asr boshlarida, ingliz va nemis tillari yetakchi bo'lgan davrda rivojlandi. Ingliz va nemis shifokorlari Rupert Uoterxaus va Karl Fridrixsen tomonidan *Uoterxaus-Frideriksen sindromi* kasalligi kashf etilishi shu jumladandir.

Shu tariqa, sekin-asta ko'plab kasallik yoki sindromlar haqida ilmiy ma'lumotlar paydo bo'ldi. Nemis shifokori Alois Alsgeymer 1864-yilda tug'ilgan. Uning aqldan ozgan va epileptik bemorlar ustidan o'tkazgan tajribalari natijasida

Alsgeymer kasalligi atamasi shakllangan. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

V.V.Kolmakova, S.V.Bilkovalar tibbiy eponimlarning yana bir turi tibbiyot muassasasining mashhur shifokor-olimlar nomi bilan atalgan shakli ham mavjudligini e‘tirof etadilar¹⁷. Masalan, *Sklifosovskiy instituti* – Moskva shoshilinch tibbiy yordam va qon quyish ilmiy-tadqiqot instituti sifatida dunyoga tanilgan. Markaz rus jarrohi Nikolay Vasilyevich Sklifosovskiy (1836 – 1904) sharafiga nomlangan bo‘lib, u tufayli rus jarrohligida antiseptiklar va aseptiklar paydo bo‘ldi. Qorin bo‘shlig‘i jarrohligida birinchilardan bo‘lib, u suyaklarni soxta bo‘g‘imlar bilan bog‘lash uchun noodatiy operatsiyani amalga oshirdi. N.Pirogovning g‘oyalarini mukammallashtirishga, harbiy dala xirurgiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shdi¹⁸.

Odatda, eponimlar o‘nlab yillar va hatto asrlar oldin tashkil etilgan va birinchi bo‘lib identifikatsiya, tavsif va nashr bilan shartlangan shaxslar nomi bilan atalgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, ba’zi shifokor-olimlarning nomlari ma’lum bir vaqt o‘tgandan so‘ng atamaga asos o‘laroq abadiylashtirilgan.

XX asrda bu jarayon tibbiyotning barcha sohalarini qamrab oldi. Ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu nomdagi atamalar soni taxminan sakkiz mingtani tashkil qiladi (bu qayta ishlangan va tizimlashtirilgan terminologik hisob bo‘lib, atamalarning umumiy soni ikki-uch baravar ko‘p bo‘lishi mumkin). Asosiy tibbiy terminologiyada atamalarning ulushi 10-12% ni tashkil qiladi. Dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlari vakili bo‘lgan 60 mingdan ortiq shifokor va olimlarning nomlari eponimik terminologiyada abadiylashtirilgan.

Tibbiyot sohasida bir nom bilan (75% atrofida, *Asperger sindromi*), ikki nom bilan (15% atrofida, *Addison-Biermer* anemiyasi), uch nom bilan (3%, *Morgani-*

¹⁷ Колмакова В.В., Былкова С.В. Использование русских эпонимов в лексике английского языка // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2016. № 12(66), ч.2. – С. 115-120.

¹⁸ Пирогов Н.И. Полное собрание сочинений: в 10 т. – СПб.: Изд. В.Безобразова, 1893–1897. – Т. – С. 1-10. U birinchi bo‘lib askarlarga anesteziya (giyohvand modda bilan uxlatish) usulini joriy etdi. Organlarni jarrohlik usuli bilan saqlab qolish, shuningdek, gangrena va yaralar patologiyasida anatomik tahlilga asoslangan tizimli yondashuvni taklif qildi.

Adams-Stoks) va hatto to‘rt nom bilan (*Erba-Ferster-Barre-Levenshteyn refleksi*, *Parino-Kyorber-Salyus-Yelshnig sindromi*) bog‘liq atamalar mavjud.

N.I.Goncharovning “Morfologiyaga oid eponimlar tasviriy lug‘ati” (“Иллюстрированный словарь эпонимов в морфологии”)da rus va xorijiy tibbiy morfologiyada qo‘llaniladigan 2500 ga yaqin eponimlar berilgan¹⁹.

Shu o‘rinda aytib o‘tish zarurki, tibbiyot sohasida “*klirik morfologiya*” tushunchasi mavjud bo‘lib, bu patologik anatomiyaga har qanday kasalliklarni va ulardagi morfologik o‘zgarishlarni aniqlash, shuningdek, ularni davolash usulini aniqlash uchun bemorlarning to‘qimalari va organlarini o‘rganadigan maxsus bo‘lim sifatida tushuniladi. Tibbiy morfologiyani o‘rganish zarurati XIX asrda N.I.Pirogov, M.M.Rudnev va boshqalar tomonidan ilgari surilgan. Klinik morfologiya inson hayotining juda keng ko‘lamini o‘rganadi va shuning uchun quyidagi tadqiqot toifalarini o‘z ichiga oladi:

a) biokimyoviy – to‘qimalar va hujayralardagi biologik moddalarning tarkibiy o‘zgarishlarini aniqlash;

b) endoskopik – ichki organlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri vizual tekshirish orqali morfologik holatni baholash;

c) sitomorfologik – hujayralarning tuzilishi, shakli va patologik o‘zgarishlarini mikroskop orqali o‘rganish;

d) genetik va boshqalar – irsiy kasalliklar va morfologik o‘zgarishlarning molekulyar va xromosomaviy asoslarini tahlil qilish²⁰.

Mazkur lug‘atda tibbiyotning turli sohalarida qo‘llaniladigan olimlarning nomlari bilan bog‘liq atamalar va birikmali atamalar va ular haqidagi bibliografik ma’lumotlar tizimlashtirilgan. Har bir alifbo bo‘limining oxirida nominal atamaning paydo bo‘lish tarixini aks ettiruvchi manbalar ro‘yxati keltirilgan. Masalan, *Babuxin membranasi*, *Babuxin mikroskopi*, *Babuxin shtativi* kabi har bir olimning ishlari bilan bog‘liq eponim-atamalar izohlangan.

¹⁹ Гончаров Н.И. Иллюстрированный словарь эпонимов в морфологии = Морфологияга оид эпонимларнинг тасвирий лугати / Н.И.Гончаров. – Волгоград, 2009. – С. 501-504.

²⁰ Морфология в медицине [Электрон ресурс] // 2dip.su. – Ruxsat tartibi: https://2dip.su/теория/антропология/морфология_в_медицине/

O.P.Mailova, K.L.Kuybishevalar tibbiy eponimlarning qanday predmet va tushunchalarni ifodalab kelishiga ko‘ra quyidagi turlarini belgilaydi²¹:

- 1) kasalliklar: *Hodgkin’s disease* – *Xodjkin kasalligi*;
- 2) sindromlar: *Down’s syndrome* – *Daun sindromi*;
- 3) tananing anatomik birliklari: *Horner’s muscle* – *Xorner mushaklari*;
- 4) tibbiy nazariyalar: *Fletcherism* – *Fletcherizm*;
- 5) tadqiqot va davolash metodlari: *Bailey’s method* – *Beyli usuli*;
- 6) dori-darmonlar: *Salk and Sabin vaccine* – *Salk va Sabin vaksinalari*;
- 7) tibbiy asbob-uskunalar: *Cooper’s scissors* – *Kuper qaychisi*;
- 8) kasalliklarni aniqlash uchun diagnostika va test usullari: *Dick test* – *Dik testi*²².

Ushbu tasnifga tibbiyot muassasalarining nomini ham kiritish mumkin: *Sklifosovskiy instituti, Artikov-lor servis xususiy klinikasi*.

Ye.V.Varnavskayaning “Статус и функционирование эпонимов в медицинской терминологии испанского языка” nomli nomzodlik ishida ispan tilida atoqli otlar ishtirokida shakllangan tibbiy terminologik birliklarni umumlashtirish va tizimlashtirish tajribasi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslangan, eponimlarni nomlashga aloqador antroponimlar bilan bog‘liq ma’lumotlar, nomlash motivlari asosida kompleks tahlil qilingan hamda tibbiy eponimlarning professional lisoniy tasvir doirasidagi maqomi belgilangan.

Qizig‘i shundaki, olimaning ishida yolg‘iz antroponimning o‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri terminga aylanib, yangi ma’no hosil qilishi, ma’lum bir tushunchani ifodalash usuli ham tadqiq etilgan. Masalan, *mania* – *maniya* (*maniya* – aqlsizlik ma’budasi) termini ong va his-tuyg‘ularning konsentratsiyasi bilan paydo bo‘lgan og‘riqli ruhiy

²¹ Маилова К.Л., Куйбышева О.П. Эпонимы в английской медицинской терминологии [Электрон ресурс] // *Биология и интегративная медицина*. – 2018. – № 1. – Ruxsat tartibi: <https://cyberleninka.ru/article/n/eponimy-v-angliyskoy-meditsinskoy-terminologii>

²² Xodjkin kasalligi – limfoma turi bo‘lib, T.Xodjkin nomi bilan atalgan, Daun sindromi – irsiy xromosomaviy nuqson, Jon Lengdon Daun nomi bilan bog‘liq, Xorner mushaklari – ko‘z muskul tuzilishidagi aniq anatomik struktura, Fletcherizm – g‘izolanish nazariyasi, Ch.Fletcher nomi bilan bog‘liq, Beyli usuli- muayyan tibbiy muolaja yoki tekshiruv uslubi, Salk va Sabin vaksinalari – poliomiyelitga qarshi vaksina yaratgan olimlar nomiga qo‘yilgan. Kuper qaychisi – jarrohlik amaliyotida ishlatiladigan maxsus asbob, Dik testi – skarlatinaga immunitetni aniqlash uchun ishlatiladigan termoviy test.

holatni, hayajondan depressiyaga keskin o'tish jarayonini anglatadi. Tadqiqotchi bunday terminlar teologik mifonimlar asosida shakllanganligi va ispan tili negizida paydo bo'lib, dunyoga keng tarqalganligini ta'kidlaydi²³.

Ye.M.Kakzanova eponimlarda onomastik komponentning muhim ekanligiga urg'u beradi. Eponim atamalar assotsiativ xarakterda bo'lib, ular motivlanganlik turi bilan ajralib turadi, ya'ni ularda motiv bilvosita, turli xil assotsiativ birliklar orqali ifodalanadi. Har qanday shifokor *Parkinson kasalligi* va *Kron kasalligi* o'rtasidagi farqni tushunadi va onomastik komponent buni tushunishga imkon beradi. Parkinson kasalligi titroq falaj, Kron kasalligi esa oshqozon-ichak traktining yallig'lanishi. Shunday qilib, eponim atama atoqli ot yordamida (antroponimik komponent) anglashiladi²⁴.

A.A.Garanin va R.M.Garaninalarning “О месте эпонимов современной медицинской терминологии” maqolasida tibbiyot terminologiyasining turli ichki tizimlarida ishlatiladigan eponimik atamalar masalasi tadqiq etilgan. Ayrim o'rinlarda tibbiy eponimlarning farqlanishi va har xillik muammosini tadqiq qilish maqsadida ularning paydo bo'lishi bilan bog'liq hodisalar, olimlar haqidagi tarixiy va statistik ma'lumotlar o'rganilgan va ular bilan bog'liq tibbiy hodisalar, tushunchalar borasidagi ma'lumotlarni umumlashtirish ko'zda tutilgan.²⁵ Bu esa tibbiy eponimlar mohiyatini o'rganish fanlararo integratsiyalashuvni talab qiluvchi murakkab jarayon ekanligini ko'rsatadi.

T.F.Izvekova, Ye.V.Grishchenko, A.S.Purtovlarning “Эпонимы в медицинской терминологии” maqolasida anatomiya-gistologiya, farmatsevtika va klinik tibbiyot sohalariga oid turli xil eponimlar guruhlari tavsifi va tahlili keltirilgan. Maqolaning o'ziga xos jihati shundaki, ayrim tibbiy eponimlar dunyo

²³ Варнавская Е.В. Статус и функционирование эпонимов в медицинской терминологии испанского языка: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук / Воронежский государственный университет. – Воронеж, 2009. – 23 с.

²⁴ Какзанова Е.М. Лингвокогнитивные и культурологические особенности научного дискурса (на материале математических и медицинских терминов-эпонимов): Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук / Ин-т языкознания РАН. – М., 2011. – 18 с.

²⁵ Гаранин А.А., Гаранина Р.М. О месте эпонимов современной медицинской терминологии // Вопросы ономастики. 2019. Т. 16. № 3. – С. 110-124.

mifologiyasiga oid antroponimlar hamda badiiy asar qahramonlarining to‘qima ismlaridan olinganligi aytiladi.

Mifologik obrazlar va badiiy adabiyot qahramonlari nomidan olingan eponimlar alohida o‘rin tutadi. Xususan, *psixiatriya* atamasi inson qalbining timsoli bo‘lgan Psixeya nomi bilan bog‘liq bo‘lsa, gigiyena so‘zi tibbiyot xudosi Asklepiyning qizi – salomatlik ma‘budasi Gigiyeya ismidan kelib chiqqan. Shuningdek, surunkali venerik kasallik hisoblangan *sifilis* o‘z nomini Girolamo Frakastoroning “Sifilis yoki gallar kasalligi haqida” dostonidagi cho‘pon Sifilus obrazidan olgan. Psixologiya va psixiatriyada adabiy asar qahramonlari nomi bilan ataluvchi holatlar ham talaygina. Masalan, o‘z joniga qasd qilishdan oldingi ruhiy holatni ifodalovchi *Verter sindromi* I.V.Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romani qahramoniga ishora qilsa, makon va vaqtni xayoliy idrok etish hamda depersonalizatsiya holatlari bilan kechuvchi *Alisa sindromi* Lyuis Kerrollning “Alisaning mo‘jizalar mamlakatidagi sarguzashtlari” asari qahramoni nomi bilan ataladi. Bunday eponimlar tibbiy tushunchalarning mazmunan boyishiga va tarixiy-madaniy kontekst bilan bog‘lanishiga xizmat qiladi.

Mifologik eponimlar klinik terminologiyada uchraydi: *psixiatriya* – Psixiya (inson qalbining timsoli), *gigiyena* – Asklepiy Gigiyeyning qizi nomidan olinganligi kabi qator misollar keltirilgan. Shu bilan birga, sifilis – surunkali venerik kasallik nomi Girolamo Frakastoroning “Sifilis yoki gallar kasalligi haqida” poemasidagi cho‘pon Sifilus, *Verter sindromi* – o‘z joniga qasd qilishdan oldingi holatni ifodalovchi atama I.V.Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" romani qahramoni, *Alisa sindromi* - illyuziyalar olamida - makon va vaqtni, hodisalarni xayoliy idrok etish, depersonalizatsiya holatlari atamasi Lyuis Kerrollning «Alisaning mo‘jizalar mamlakatidagi sarguzashtlari» asari qahramoni nomlaridan olinganligi aytiladi²⁶.

Darhaqiqat, tibbiyotda muayyan kasallik yoki sindromga xos xususiyatlarni namoyon etgan badiiy asar qahramonlari nomi bilan atash tendensiyasi keng tarqalgan. Masalan, narsalarni patologik darajada yig‘ishga moyillikni ifodalovchi

²⁶ Извекова Т.Ф., Грищенко Е.В., Пуртов А.С. Эпонимы в медицинской терминологии // Медицина и образование в Сибири. – 2014. – №3. – [Электрон ресурс]. – Ruqsat tartibi: <https://ngmu.ru/cozo/mos/article/pdf.php?id=1365>

Plyushkin sindromi N.V.Gogol asarlaridan kelib chiqqan. Shuningdek, Charz Dikkensning “Buyuk umidlar” (1861) romani qahramoni nomi bilan ataluvchi *miss Havisham sindromi* ham mavjud bo‘lib, u og‘ir ruhiy tushkunlik va ijtimoiy izolyatsiyani ifodalaydi. O‘ziga e’tibor qaratish maqsadida kasallik alomatlarini to‘qib chiqarish holati esa taniqli asar va film qahramoni *Myunxauzen sindromi* taniqli film qahramoni Baron fon Myunxauzen nomi bilan yuritiladi. Ta’kidlash joizki, tibbiyotda har qanday patologik holatni muhokama qilish va o‘rganish uchun, avvalo, uning aniq nomi bo‘lishi lozim. Yuqorida keltirilgan eponimlar nafaqat nomlanish, balki bemorga xos bo‘lgan tizimli belgilarni kataloglash hamda kasallikning asosiy sabablarini chuqurroq o‘rganish uchun xizmat qiladi. Bunday terminlar murakkab klinik manzarani lirik va esda qolarli obrazlar orqali tushunishga yordam beradi.

Darhaqiqat, kasallik sindromiga tegishli xususiyatlarni namoyish etgan badiiy asarlarning mashhur qahramonlari nomi bilan atash tendensiyasi ham mavjud. Masalan, *Plyushkin sindromi* Gogol asarlaridan kelib chiqqan. Shuningdek, *miss Havisham sindromi* atamasi ham mavjud. *Miss Havisham* - Charlz Dikkensning "Buyuk umidlar" (1861) romani qahramoni. *Myunxauzen sindromi* taniqli film qahramoni baron fon Myunxauzen nomidan olingan. Ta’kidlash joizki, biror narsani muhokama qilish uchun uning nomi bo‘lishi kerak. Yuqorida nomlari keltirilgan eponimlar ham ma’lum ma’noda kasallikning asosiy sabablarini o‘rganish va aniqlash uchun bemorga xos bo‘lgan tizimli belgilarni kataloglash uchun xizmat qiladi.

Tibbiy eponimlarning genezisi yuzasidan A.A.Garanin, R.M.Garaninlar tomonidan taklif etilgan quyidagi tasnif²⁷ diqqatga sazovordir:

1) ilmiy kashfiyot muallifi nomi bilan atalgan eponimlar: muayyan kasallik yoki uning o‘ziga xos belgisini birinchi bo‘lib tavsiflagan olimlar nomi bilan bog‘liq terminlar. Masalan, *Daun sindromi*, *Bexterev refleksi* va h.k.;

2) geografik yoki me’moriy obyekt nomidan shakllangan eponimlar: kasallik qo‘zg‘atuvchisi aniqlangan, xastalik o‘chog‘i ilk bor qayd etilgan yoki hodisa

²⁷ Гаранин А.А., Гаранина Р.М. О месте эпонимов современной медицинской терминологии // Вопросы ономастики. 2019. Т. 16. № 3. – С. 110-124.

tasvirlangan joy nomlari bilan ataluvchi terminlar. Masalan, *Porsmut sindromi*, *Qrim-Kongo gemorragik isitmasi va h.k.*;

3) morfologik obrazlar, tarixiy shaxslar va adabiy qahramonlar nomi bilan atalgan eponimlar. *“Undina la’nati” sindromi*: nemis mifologiyasidagi suv parisi Undina nomi bilan bog‘liq. Afsonaga ko‘ra u bebaho erini uxlab qolganda nafas olishni “unutib qo‘yish” bilan la‘natlagan (tibbiyotda bu holat nafas olishning ixtiyorsiz nazorati buzilishini ifodalaydi). *Van Gog sindromi*: Niderlandiyalik rassom Vinsent Van Gog nomi bilan atalgan. Ruhiy xastalik asoratida u o‘z qulog‘ini qisman amputatsiya qilgan; ushbu sindrom bemorning o‘z tanasiga shikast yetkazishi yoki jarrohlik amaliyotini talab qilish bilan tavsiflanadi.

4) Eponimik asosga ega bo‘lgan kasallik qo‘zg‘atuvchilari nomlari: shaxs nomi bilan atalgan mikrobiologik terminlardan kelib chiqqan kasalliklar. Masalan: *parkinsonizm*, *brutselloz*, *salmonellyoz* kabilar;

5) kasallik ilk bor aniqlangan bemorlar nomi bilan atalgan eponimlar: nominatsiyalar jarayonida xastalik kuzatilgan birinchi bemorning ismi asos qilib olinadi. Masalan: *Redemeker sindromi*, *Styuart-Prauer sindromi*, *Xageman sindromi* kabilar.

A.R.Ziyodullayev “Eponimlarning mavzuviy tasnifi” nomli maqolasida tibbiyotga oid eponimlarni quyidagicha tasniflaydi²⁸:

1) kasallik belgilarini bildiruvchi eponimlar: muayyan patologik o‘zgarish yoki diagnostik belgini ifodalaydi. Masalan: *Laennek trombi*, *Maks chiziqlari*, *Madelung deformatsiyasi*;

2) kasallik va sindrom nomlarini bildiruvchi eponimlar: kasallikning o‘zini to‘liq nomlash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Trenoni sindromi*, *Ogilvi sindromi*, *Imerslund anemiyasi*;

3) tibbiy muolaja va jarrohlik usullarini bildiruvchi eponimlar: *davolash metodikasi* yoki *opertasiya texnikasi muallifi nomi bilan ataladi*. Masalan: *Ebbot metodi*, *Eshbi metodi*, *Jabule operatsiyasi (Jabule jarrohlik amaliyoti)*;

²⁸ Зиёдуллаев А.Р. Эпонимларнинг мавзуий таснифи // Бухоро давлат университети илмий ахбороти 2022/5(93). – 103 б.

4) somatizmlar (anatomik tuzilmalar) bilan bog‘liq eponimlar: inson tanasidagi muayyan a‘zo, vena yoki arteriyalarning klassik nomlanishi. Masalan: *Galen venasi, Zinn markaziy arteriyasi*.

Bizningcha, mazkur tasnifning beshinchi turi sifatida *tibbiy asbob-uskunalar* (*Fleyshl-Misher gemometri, Killian-Linch osma laringoskopi*) nomini bildiruvchi eponimlarni ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, yuqorida keltirilgan kasallik nomlarini bildiruvchi eponimlarning ikkinchi turiga kvazieponimlarning (ya‘ni inson nomi bilan bog‘liq bo‘lmagan) boshqa quyidagi 5 xil yangi turlarini ham berilgan ro‘yxatga qo‘shish foydadan holi bo‘lmasdi: 1) topoeponimik turi; 2) zooeponimik turi; 3) ornitoeponimik turi; 4) insektoeponimik turi; 5) plantoeponimik turi. Bunday yangi turlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular ifodalaydigan kasallik nomlari inson – eponimi bilan emas, shunday eponimik vazifani bajaruvchi joy, hayvon, qush, qurt-qumursqa yoki o‘simlik kabi kvazieponimik omillar bilan bog‘liq holda shakllantiriladi, yasaladi va qo‘llaniladi²⁹. Bunday holatda, bizningcha eponimlar va ularning birikmali turlari qandaydir tibbiy voqelik (kasallik)ni yangicha eponimlash – nomlash, atash uchun yaratilgan maxsus sintaktik birliklardan o‘zga narsa emas.

Tibbiyotga oid eponim atamalar ma‘lum bir *kasallik turi yoki uning ayrim belgilari, muolaja turlari, somatizmlar* kabi tushunchalarga oid ixtirolarning mualliflari nomlari bilan bog‘lanadi. Shunisi xarakterliki, tibbiy eponimlar antroponimlar bilan birga *sindrom, metod, belgi, alomat, yara, kasallik, tugun, qisqich, jarrohlik amaliyoti, tromb* kabi tibbiyotga tegishli atamalarning qo‘shilishi yordamida hosil qilinadi.

Xususan, tibbiyot terminologiyasida tibbiy eponimlar – shaxs nomidan olingan tibbiyotga oid atamalar faol qo‘llanadi. Hattoki, Whonamedit.com saytida tibbiy eponimlarning biografik lug‘ati tuzilgan bo‘lib, mualliflar inson nomi bilan atalgan barcha tibbiy hodisalar haqida o‘sha shaxsning tarjimai holi bilan birga to‘liq ma‘lumot berishni maqsad qilganlar³⁰.

²⁹ Bu haqda batafsil ma‘lumotl olish uchun ishning 2 bobiga qarang.

³⁰ <http://www.whonamedit.com/synd.cfm/341.html>

Masalan, *Eshbi metodi* – inson tanasida qizil qon hujayralarining omon qolish darajasini aniqlash uchun ishlatiladigan differensial agglutinatsiya usuli. Uinfred Eshbi Amerikalik patologoanatom (1879 – 1975). Olima Londonda tug‘ilgan bo‘lib, 14 yoshida ota-onasi bilan Amerikaga ko‘chib boradilar. Amerika Qo‘shma Shtatlarining Mayo klinikasida qizil qon tanachalarining omon qolishini baholash uchun *Eshbi metodini* ishlab chiqdi, u bu sohadagi to‘g‘ri metodni aniqlagan birinchi olim edi³¹.

Tibbiy eponimlar orasida bir necha atamaning bir antroponim bilan bog‘liqligi holati ham mavjudligi bir olimning qator kashfiyotlar muallifi ekanligi bilan izohlanadi. Mas, *Zinn arteriyasi*, *Zinn markaziy arteriyasi*, *Zinn toji*, *Zinn paylari* kabi.

Ayrim o‘rinlarda ikki olimning kashfiyoti sifatida bir nomda ikki antroponimning qo‘llanishi ham kuzatiladi: *Dalen-Fuks tugunlari*, *Fabri-Anderson kasalligi*, *Ferbenk-Kits sindromi* kabi.

Dalen-Fuks tugunlari – (A.Dalen, 1866 – 1940, shved oftalmologi; Ye.Fuks, 1851 – 1930, avstriyalik oftalmolog) limfotsitlar va epiteloid hujayralardan tashkil topgan ko‘z soqqasi bazal plastinkasining (Brux plastinkasining) qalinlashishi; surunkali uveitda kuzatiladi.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, tibbiy eponimlarning shakllanishida tibbiy sotsiolekt bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan boshqa omillar ham qatnashishi mumkin. Masalan, *Lou Gehrig*, *Hartnup* va *Mortimer* kasalliklari bemorlar nomi bilan ataladi. *Mortimer kasalligida* teri butun yuz va qo‘llarda paydo bo‘ladigan va deyarli nosimmetrik shaklda tanada tarqaladigan qizil dog‘ naqshlari bilan tavsiflangan kasallik. Kasallik dastlab hujjatlashtirilganda Jonatan Xatchinson (1828 – 1913)ning bemori *Mortimer* xonimning nomi bilan atalgan.³²

Eponim hosil bo‘lishi uchun faqat antroponimlargina emas, ayrim hollarda toponim, zoonim, joy, shuningdek, kasb-hunarga oid so‘zlar ham asos bo‘lganini kuzatish mumkin. Lekin bunday eponim atamalar juda kamunum sanaladi.

³¹ Ashby M.F. Materials Selection in Mechanical Design. – 4th ed. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2011. – 660 p.

³² Биография Джонатана Хатчинсона // British Medical Journal. – 1913. – Vol. 2. – P. 141-143. Mortimer kasalligi [Электрон ресурс] // Zahn Info Portal – URL: https://uz.zahn-info-portal.de/wiki/Mortimer%27s_disease.

Jumladan, geografik joy nomlari asosida hosil bo'lgan *Layme kasalligi* va *Ebola virusi kasalligi*, *Qrim-Kongo gemorragik isitmasi kasalligi* kabi atamalarni **toponoeponim**, shuningdek, *mushuk tirnashi kasalligi*, *maymun poxi* (yoki *maymun chechagi*) kabi hayvonlar bilan bog'liq kasalliklar **zooeponim**, *suvchechak* deb atash mumkin. *Rohiba tizzasi* va *tennis tirsagi* kasalliklari esa kasbiy kasalliklar deb ta'riflangan.

Shuningdek, ushbu yo'nalishda **avtoeponim** atamasi ham mavjud. Avtoeponimik iboralarda odam kasallikka chalinishi yoki u tufayli vafot etishi tushuniladi. Avtoeponimda ta'riflangan, aniqlangan kasallik natijasida azob chekkan, vafot etgan shifokor, bemor yoki boshqa tibbiyot mutaxassisi tushuniladi.

Jumladan, *Rikkesioz kasalligi*: 1906-yilda Xovard Teylor Rikkes tomonidan isitmani keltirib chiqaradigan bakteriyalar aniqlangan. U o'ziga qilingan inyeksiya tufayli, 1909-yilda tadqiqot paytida (сыпной тиф, Mexiko) vafot etadi.

Tomsen kasalligi: Yuliy Tomsen va uning oila a'zolari tomonidan o'tkazilgan tibbiy tajribalarda ixtiyoriy mushaklarning autosomal – dominant miotoniyasi yaratiladi.

O'lik kasalligi: Peru tibbiyot instituti talabasi Daniel Alsides Carrion 1885-yilda "Oroya isitmasi"ning ushbu kasallik bilan bog'liqligini isbotlash uchun o'zini *Bartonella bacilliformis*ga qarshi emladi va milliy qahramon bo'ldi.

Hozirda ayrimlar kasalliklarning noma'lum nomlarini ishlatishdan voz kechish, sababini yoki asosiy belgilarini tavsiflovchi tibbiy nomlarga o'tishi kerakligi aytilmoqda. Buning sabablari sifatida quyidagi holatlar ko'rsatilmoqda:

- 1) tanlangan eponim milliy yoki etnik tarafkashlik bilan tavsiflanayotganligi;
- 2) eponim turli xil kasalliklarga nisbatan qo'llanilishi ayrim hollarda chalkashliklar keltirib chiqarayotganligi;
- 3) bir nechta eponim bir kasallikka ishora qilayotganligi (masalan, *amiloid degeneratsiyasi Abercrombie kasalligi*, *Abercrombie sindromi* va *Virchov sindromi* kabi turli eponimlar bilan nomlanadi);
- 4) eponim yaroqsiz bo'lib chiqishi (masalan, *Lourens-oy-Bardet-Bidl sindromi*, unda keyinchalik *Lourens* va *oy* bemorlarining natijalari *Bardet* va *Bidl* natijalaridan farq qilishi aniqlandi);

5) eponimda dunyo hamjamiyatida salbiy xatti-harakatlari bilan nom qozongan shaxsning sharaflanayotganligi (masalan, *Vegener granulomatozi* fashistlar shifokori Fridrix Vegener sharafiga nomlangan). Doktor Vegenerning fashistlar bilan aloqalari fosh bo'lganda, atama *poliangiit* bilan *granulomatoz* deb o'zgartirildi;

6) tushunchaning nomi mamlakatga qarab o'zgarishi (masalan, *sideropenik disfagiya* Aqsh va Avstraliyada *Plummer – Vinson sindromi*, Buyuk Britaniyada *Patterson-Kelli sindromi* va Skandinaviyada *Valdenstrom-Kjellberg sindromi* deb nomlanadi);

1) o'z navbatida, eponim tibbiy nomga qaraganda qisqaroq va eslab qolish uchun qulay bo'lishi, sindromning bir nechta sabablari bo'lishi mumkinligi, ammo uni bir butun sifatida ko'rib chiqish foydali ekanligi xususida ijobiy fikrlar bildirilmoqda.

Tibbiyot terminologiyasining kamchilik va afzalliklari tadqiqotchilar tomonidan ko'p bora muhokama qilingan, shu bilan birga ushbu atamalarga qarshi dalillar ham keltirilgan.

Fikrimizcha, eponimik atamalarning bir qator kamchiliklari mavjud:

1. Bunday atamalar, ko'pincha, to'liq motivlanmaydi, ular har doim ham tushunchalarning ma'nosini ifoda etmaydi, chunki nom mazmun bilan bevosita bog'liq emas. Jumladan, Turk shifokor-olimi Hulusi Behchet (1889–1948, "*Behchet kasalligi*") kasallikni 1937-yilda kashf etgan, ammo yunon oftalmologi Benedikt Adamandiades (1875–1962) 1930-yilda bu kasallikni tasvirlab berganligi ma'lum. Agar ushbu kasallik tavsifiga hissa qo'shgan har bir kishini sanasak, quyidagi 29 komponentdan iborat qo'shma tibbiy atama vujudga keladi: *Hippocrates-Janin-Neumann-Reis-Bluthe-Gilbert-Planner-Remenovski-Weve-Shigeta-Pils-Graz-Carol-Ruys-Samek-Fischer-Walter-Roman-Kumer-Adamantiades--Dascalopoulos-Matras-Uitvell-Nishimura-Blobner-Reginster-Knapp-Behchet kasalligi*.

2. Ijtimoiy-axloqiy sabablarga ko'ra, eponimik atamalarni qabul qilinishi mumkin bo'lmagan holatlar mavjud. Misol uchun, taniqli "*Reyter kasalligi*" (yoki "*Reyter sindromi*") atamasi nemis shifokori H.K.Reyter (1981–1969) sharafiga nomlangan. Ma'lum bo'lishicha, u Zaxsenxauzen konslagerida odamlar ustidan

o'tkazilgan natsist-fashistlar tajribalarida qatnashgan. Ushbu holatning yuzaga chiqishi "*Reiter sindromi*" atamasini ishlatishdan olib tashlash taklifiga olib keldi. Shuningdek, "*Vegener granulomatosi*" nomi nemis patologoanatomi Friedrich Vegener nomiga berilgan edi (1907–1990). Ushbu tajriba nemis konslagerlarida minglab yahudiylarning o'ldirilishiga sabab bo'lgan.

3. Ko'pgina kasalliklar turli mamlakatlarda turli xil eponimik nomlarga ega. Masalan, Rossiyada "*Xorton-Magat-Braun sindromi*" (T.B.Magat, 1985–1991, G.E.Braun, 1885–1935), Germaniyada "*Morbus Xorton*", Fransiyada – "*Maladiyede Xorton*" deb ataladi. (Xorton, Magat va Braun – amerikalik shifokorlar).

4. Uch yoki undan ortiq nomlardan iborat tibbiy atamalar mavjud bo'lib, bu holat ulardan amaliy foydalanishda noqulaylik vujudga keltiradi. Bunday nomli atamalarga misollar yuqorida keltirildi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tibbiyotda eponim atamalardan foydalanishning bir qator afzalliklari ham mavjud:

1. Eponimlarning eng muhim afzalligi ularning qisqa va lo'ndaligidir. Masalan, suyak iligi gipoplaziyasi, pansitopeniya, shuningdek teri, suyak tizimi va ichki organlar rivojlanishining anormalliklari bilan tavsiflangan irsiy kasallik o'rniga "*Bexterev yadrosi*" qisqa atamasidan foydalaniladi. Umurtqali hayvonlar miyasida uchinchi bo'shliqni bog'laydigan kanal "*Fankoni anemiyasi*" atamasi ham shular jumlasidandir.

2. Ba'zi kasalliklar nomlari turli mamlakatlarda har xil atalgan bo'lib, bu ijobiy qabul qilingan. Misol uchun, Rossiya, AQSh va Avstraliyada "sideropenik disfagiya" kasalligi "*Plummer-Vinson*", Angliyada esa "*Paterson-Kelly's syndrome*" – "*Paterson-Kelli sindrom*" (D.R.Paterson, 1863–1959 va A.B.Kelli, 1865–1941) deb atalgan.

3. Eponimlar yillar o'tib, tildagi barcha hodisalar singari paydo bo'ladi va yo'qoladi. Masalan, XIX asrning uch nafar mashhur shifokorlari Richard Bright (1789–1958), Tomas Hodgkin (1798–1866) va Tomas Addison (1793–1860) Londondagi Gay kasalxonasida birga faoliyat olib borgan. "*Addison kasalligi*" va

“*Hodgkin kasalligi*” hozirda ham ishlatiladi. Biroq, “*Braytova kasalligi*” esa “*glomerulo-nefrit*”ga almashtirilgan.

4. Eponimik atamalarni oddiygina tarzda "olib tashlash" qiyin. Ular tarixiy-ilmiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq ekan, ularni yo‘q qilish mumkin emas. Tibbiy terminologiyada ular juda keng tarqalgan bo‘lib, tibbiy amaliyotda ixtisoslashtirilgan adabiyotlarda, Internetda, kasalliklarning xalqaro tasnifida doimiy ravishda qo‘llaniladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi zamon tilshunosligida KNIEKSFlar eponimik nominativ tibbiy frazemalar sifatida barcha tillarda, shu jumladan, qiyoslanayotgan ingliz va o‘zbek tillari sintaksis tizimidagi o‘ziga xos va mos o‘rin hamda maqomga ega bo‘lib, maxsus tibbiy eponimik atamalar *mikromaydonini* tashkil etadi, shu maydon konstituentlari – a’zolari tibbiy amaliyotda qo‘llanish ehtiyojlari va o‘rinlariga ko‘ra ushbu mikromaydonning yadroviy, dominant va periferial a’zolari sifatida kundalik tibbiy muloqotda xoslanib qo‘llaniladilar.

Tibbiyot sohasi inson shaxsiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli tibbiy atamalar ma’lum miqdorda uslubiy ahamiyatga ega, ya’ni faqat ilmiy va professional diskurs doirasidagina chegaralanib qolmaydi. Shu nuqtayi nazardan, bugungi fan-texnika, kommunikativ imkoniyatlar nihoyatda kengaygan globallashtirish davrida tibbiy eponimlar publitsistik, badiiy va so‘zlashuv uslublarida ham faol qo‘llanila boshladi.

–*Alsgeymer kasalligi qaysi davlatlarda ko‘p va qaysilarida kam uchraydi?*
– *Alsgeymer kasalligi* bilan chalinganlar soni rivojlangan davlatlarda ko‘p uchraydi. Balki bu statistika va diagnostikaning rivojlangan davlatlarda yaxshilanishi bilan bog‘liqdir. Aksincha, rivojlanmagan davlatlarda **Alsgeymer** bilan kasallanganlar kam ro‘yxatga olingan. Ma’lumotlarga ko‘ra, ayni paytda jahonda 35 mln. kishi Alsgeymer kasalligidan aziyat chekmoqda.

Ilmiy nashrlar, tibbiy hujjatlar va matnlar juda ko‘p sonli atamalarni o‘z ichiga olgan. Eponimlar tibbiyot va tarixning bir qismidir. Ba’zi salbiy qarashlarga, xususiyatlarga qaramay, ularni fandan olib tashlashning iloji yo‘q. Ta’riflovchi

atamalarni afzal ko‘rish tendensiyasiga qaramay, eponimlar kelajak avlod uchun olim nomini abadiylashtirishni, bilim va tajribaning uzluksizligini anglatadi. Aytishimiz mumkinki, bunday atamalar yodgorlik vazifasini bajaradi, ma’lum bir taniqli olim yoki shifokorning tibbiyot va boshqa yo‘nalishga rivojiga qo‘shgan hissasini eslatadi. Eponimlar ilm, fan va madaniyatning bir qismidir va ular har doim tibbiy terminologiyaning muhim qismini tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, eponim atamalar professional hamda ilm-fan tilining bir qismi sifatida olamning lisoniy tasviri tizimini yanada aniqroq va chuqurroq ifodalashga xizmat qiladi. Lisoniy faktlar tahlili orqali ilmiy diskursni o‘rganish, shubhasiz, nazariy va amaliy bilimlarimizni kengaytirishga yordam beradi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Hozirgi zamon tilshunosligida eponimlar va eponimik komponentli frazemalarga, xususan eponimik tibbiy nomlar va atamalarga turlicha yondashuvlar, tavsiflar va tasniflar berib kelinmoqda. Eponimlarga ilk bor turli sohalaridagi faqat taniqli tarixiy shaxslar nomlari – atamalari va ularning sintaktik birikmalari, ya’ni eponimik frazemalar deb talqin qilib kelingan. Bu ma’noda tibbiy nomlar, atamalar va birikmali atamalar u yoki bu tildagi boshqa notibbiy atamalardan faqat u yoki bu sohaga aloqadorligi bilan, shunday omillarga ko‘ra o‘zlarining sohaviy semantik jihatlari bilan farqlanadilar. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqilganda, tibbiy atamalar, shu jumladan ularning eponimik birikmali atamalari, tillardagi har qanday atoqli otlar yoki atoqli otlardan yasalgan turdosh otlar va ularning birikmalaridan morfologik-sintaktik tarkibiga ko‘ra farqlanmaydi. Bu borada tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan KNIEKSFlar ham tillardagi nominativ vazifani bajaruvchi mavjud frazemalarning bir sruktural-semantik turi hisoblanadi.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda eponimik til unsurlari, shu jumladan tibbiy eponimik birikmalar – frazemalar deganda nafaqat atoqli otlar bilan bog‘liq tibbiy birikmali atamalarni, balki turdosh otlar bilan bog‘liq bo‘lgan, qandaydir ijobiy yoki salbiy jihatlari bilan barchaga soha kishilariga ma’lum bo‘lgan, el nazari va og‘ziga tushgan, barcha tomonidan tan olingan,

shaxslar nomlaridek eponimik vazifani bajaruvchi joylar, hayvonlar, qushlar, qurt-qumursqalar, hattoki zararli o'simliklar nomlari bilan bog'liq kasalliklarning tushunilishi ham aniqlandi. Bu o'rinda ushbu tadqiqotda eponimik tibbiy birikmali atamalar, shuningdek birikmali atamalarning ikki muhim turini aniqladik: 1) sof eponimik tibbiy birikmali atamalar (ularda doimo antropoeponimik komponent mavjud); 2) kvazieponimik tibbiy birikmali atamalar (ularda doimo topoeponimik, zooeponimik, ornitoeponimik, insektieponimik va plantoeponimik komponentlar mavjud). Shunday qilib, eponimik tibbiy atamalar "atoqli va turdosh ot (ba'zan qaratqichG'posessiv shakldagi) + substantiv" qolipiga ko'ra qurilgan va tilning tibbiy manzarasidagi yangi nomlarni voqelantiruvchi sintaktik birliklar – nominativ frazemalardir, chunki ular ma'lum yangi tibbiy voqelikni (xususan kasallikni) bir so'z kabi nomlash xususiyatiga ega.

II BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KNEKSFLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK VA LINGVOPRAGMATIK TADQIQI

2.1-§. Ingliz va o‘zbek tillarida KNEKSFlarning struktural-semantik jihatlari va tasnifi

“Eponim” (qadimgi yunoncha ἐπώνυμος – nom beruvchi, lotincha heros eponimus) deb ataluvchi til hodisasi nom berishning o‘ziga xos shakli sifatida keyingi yillarda tilshunoslar e’tiborini o‘ziga torta boshladi. Ushbu atamaning paydo bo‘lishi qadimgi tarixga borib taqaladi. Misrda shaharlar va aholi punktlari – (xudo, hukmdor) qandaydir qahramon nomi bilan atalgan. Qadimgi Rim va Yunonistonda shaxs eponim sanalib, xalq yoki hudud uning nomidan kelib chiqqan. Shuningdek, tarixdan ma’lumki, eponimlarning haykallari jamoat joylarida turgan, ularga sig‘inilgan (xudolar haykallari, afsonaviy qahramonlar, imperatorlar).

Eponim so‘zi quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi:

- 1) shaxs nomi bilan atalgan har qanday so‘z.
- 2) uni birinchi marta ta’riflagan shifokor, bemor yoki tadqiqotchi nomi bilan atalgan tibbiy atama (masalan, Parkinson kasalligi)
- 3) anatomik tuzilma, uning nomi kashfiyotchisiga asoslangan bo‘lsa-da, tuzilma o‘sha vaqtgacha allaqachon ma’lum bo‘lgan (masalan, Galeazzi sinishi).

Bizning davrimizda “eponim” – bu ma’lum bir kashfiyot, joy yoki davr nomi berilgan haqiqiy, xayoliy shaxs yoki obyekt, umumiy nomga aylangan atoqli ot. Shunday qilib, inson muayyan narsaning “eponimi” ga aylanadi. Eponimik atamaning nomlash qismi asosan bosh harf bilan yoziladi (Daun, Bexchet kasalliklari, Asperger sindromi, Arnold arteriyasi va boshq.) “Yigirmanchi asrning 60 – 80-laridan boshlab, eponim leksik birligi turli tillarda maxsus maqsadlar uchun, shu jumladan lingvistik atama (atoqli otlar asosida yangi so‘zlarning shakllanishi) sifatida paydo bo‘la boshlaydi. Aytish joizki, “eponim” so‘zi hozirda lingvistik atama sifatida “antonim”, “sinonim”, “omonim”, “paronim”, “toponim” kabilar qatoridan joy olgan.

Hozirda eponimlar qo'llanilmaydigan tibbiyot sohasini topish qiyin. Tilshunoslar va turli bilim sohalari, shu jumladan tibbiyot vakillarining ko'plab asarlari eponimik atamalarga bag'ishlangan. Eponimlar tibbiyot professional tilining madaniy va tarixiy qismidir. Ruscha lug'atlarda shu nomdagi atamalarning 20000 tasi mavjud bo'lib, ulardan 9000 dan ko'prog'ini tibbiyot eponimlari tashkil qiladi. Bu kasalliklarning nomlari, turli xil patologik holatlar, uni kashf etgan, ixtiro qilgan, undan jabrlangan shaxslarning, kasallik sodir bo'lgan joy yoki kasallikni keltiruvchi omil – virus yoki bakteriyalar nomi bilan bog'liqdir (Bexterev kasalligi, Qvinke shishi, Xoffman balzami, Botkin tomchilari, Pirogov usuli va h.k.). Eponimlarni muallifning tibbiyotga qo'shgan hissasini tan olishning eng yuqori, eng nufuzli shakli deb hisoblash tavsiya etiladi. Masalan, buyuk rus jarrohi, topografik anatomiya va harbiy dala jarrohligi asoschisi, o'qituvchi va jamoat arbobi N.I.Pirogovning nomi 23 holatda abadiylashtirilgan (Val'deyr-Pirogov halqasi, Pirogov oq chizig'i, Pirogov ko'r gips bandaji, Pirogov kanali, Pirogov usuli, Pirogov uchburchagi, Pirogov tikuvlari va hokazo.) Eponimlarni bilish va ularni o'rganish tibbiyot sohasidagi mutaxassislar uchun juda muhimdir, chunki bunday atamalar tibbiyot tarixi va uning rivojlanish yo'llarini aks ettiradi. Ushbu atamalar orqali zamon ruhi, urf-odatlar, uning tarixi tibbiyot tili va haqiqati sifatida eng muhim xususiyatlar ishonchli tarzda yetkaziladi.

Kasallik nomlarini ifodalovchi frazeeponimlar – birikmali eponimlar bu ma'lum bir *kasallik turi, uning ayrim belgilari, omili yoki muolaja turlari, somatizmlar* kabi tushunchalar yoki ularga oid ixtirolarning mualliflari nomlari bilan bog'lanishidir. Shunisi xarakterliki, tibbiy eponimlar antroponimlar bilan birga *sindrom, metod, belgi, alomat, yara, kasallik, tugun, qisqich, jarrohlik amaliyoti, tromb* kabi tibbiyotga tegishli atamalarning qo'shilishi yordamida hosil qilinadi. Xususan, tibbiyot terminologiyasida tibbiy eponimlar – shaxs nomidan olingan tibbiyotga oid atamalar faol qo'llaniladi. Hattoki, Whonameedit.com saytida tibbiy eponimlarning biografik lug'ati tuzilgan bo'lib, unda mualliflar tomonidan inson nomi bilan atalgan barcha tibbiy hodisalar haqida, o'sha shaxsning tarjimai holi bilan birga to'liq ma'lumot berilgan.

Ushbu yo‘nalishni yoritishda taniqli olimlar, xususan M. G. Blauning ishlarini, V.N.Gubin, S.B.Korolyov va R.P.Samusevlarning ma’lumotnomalarini, L.P.Churilov, V.D.Ryazansev va Ye.M.Kakzanova lug‘atlarini, mashhur amerikalik fan ommalashtiruvchisi Ayzek Azimovning asarlarini alohida ta’kidlash joiz.

A.R.Ziyodullayevning “Eponimlarning mavzuiy tasnifi” nomli maqolasida³³ tibbiyotga oid eponimlar quyidagicha tasniflanadi:

1) kasallik belgilarini bildiruvchi eponimik birliklar (simptomlar, klinik belgilar, patomorfologik holatlar) *Laennek trombi* (qon tomirlarida paydo bo‘ladigan patologiya, *Maks chiziqlari* (tirnoqdagi o‘zgarishlar, organizmdagi kamqonlik yoki boshqa noqulay holatlarning belgisi), *Madelung deformatsiyasi* (oyoq-qo‘l suyaklarining anatomik o‘zgarishi)

2) kasallik nomlarini bildiruvchi eponimlar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri kasallikning nomi eponim bo‘lib xizmat qiladi). Bular muayyan kasallikni birinchi bo‘lib aniqlagan, yoki uni ilmiy jihatdan tasvirlagan shaxs nomi bilan bog‘liq bo‘ladi.

3) *Trenoni sindromi* (Klippel-Trénaunay sindromi): tug‘ma tomir va mushak anomaliyasi, *Ogilvi sindromi* ilojiy peristaltik buzilish, ya’ni tovuq suvsizligiga o‘xshash holatlar, *Imerslund anemiyasi* irsiy megaloblastik anemiya turi, B12 vitaminini o‘zlashtira olmaslik bilan bog‘liq

4) tibbiy muolaja turlarini bildiruvchi eponimlar: *Ebbot metodi*, *Eshbi metodi*, *Jabule operatsiyasi* (*Jabule jarrohlik amaliyoti*)

5) somatizmlar bilan bog‘liq eponimlar: *Galen venasi*, *Zinn markaziy arteriyasi*.

Bularga mazkur tasnifning beshinchi turi sifatida *tibbiy asbob-uskunalar* (*Fleyshl-Misher gemometri*, *Killian-Linch osma laringoskopi*) nomini bildiruvchi eponimlarni ham kiritish ham maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslikda tibbiy eponimlar mavzusida qator tadqiqotlar³⁴ amalga oshirilayotganligi masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi.

³³ Зиёдуллаев, А.Р. (2022). Эпонимларнинг мавзуй таснифи. Scientific Reports of Bukhara State University, (93), – В. 70-75.

³⁴ Какзанова Е.М. Лингвокогнитивные и культурологические особенности научного дискурса (на материале математических и медицинских терминов-эпонимов) // Автореф. дис. ... д-ра филол. наук / Ин-т языкознания

E.M.Kakzanova ta'rifiga ko'ra, atama-eponim o'z tarkibiga olgan antroponim, toponim yoki mifonimdir. Yoki tegishli nomdan affikssiz (metonimik transfer yordamida) yoki affiksal tarzda shakllangan frazemadir³⁵. Ushbu yo'nalish E.A.Lobax, N.V.Novinskaya, V.D.Bondaletov, L.B.Tkacheva kabi olimlar tomonidan ham o'rganilgan³⁶.

Ye.M.Kakzanova eponimlarda onomastik komponentning muhim ekanligiga urg'u beradi. Eponimik atamalar assotsiativ xarakterda bo'lib, ular motivlanganlik turi bilan ajralib turadi, ya'ni ularda motiv bilvosita, turli xil assotsiativ birliklar orqali ifodalanadi. Har qanday shifokor *Parkinson kasalligi* va *Kron kasalligi* o'rtasidagi farqni tushunadi va onomastik komponent buni tushunishga imkon beradi. Parkinson kasalligi titroq falaj, Kron kasalligi esa oshqozon-ichak traktining yallig'lanishi. Shunday qilib, eponim atama atoqli ot yordamida (antroponimik komponent) anglashiladi³⁷.

Ye.V.Varnavskayaning "Статус и функционирование эпонимов в медицинской терминологии испанского языка" nomli nomzodlik ishida ispan tilida atoqli otlar ishtirokida shakllangan tibbiy terminologik birliklarni umumlashtirish va tizimlashtirish tajribasi, ularning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslangan, eponimlarni nomlashga aloqador antroponimlar bilan bog'liq ma'lumotlar, nomlash motivlari asosida kompleks tahlil qilingan hamda tibbiy eponimlarning professional lisoniy tasvir doirasidagi maqomi belgilangan. Qizig'i shundaki, olimaning ishida yolg'iz antroponimning o'zi to'g'ridan-to'g'ri terminga aylanib, yangi ma'no hosil qilishi, ma'lum bir tushunchani ifodalashi usuli ham

РАН. – М., 2011. – 41 с.; Варнавская Е.В. Статус и функционирование эпонимов в медицинской терминологии испанского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук / Воронежский государственный университет. – Воронеж, 2009. – 23 с.; Извекова Т.Ф., Грищенко Е.В., Пуртов А.С. Эпонимы в медицинской терминологии // Медицина и образование в Сибири. – 2014. – № 3. – [Электрон ресурс]. – Ruqsat tartibi: <https://ngmu.ru/cozo/mos/article/pdf.php?id=1365>; Кондратьев Д.К. Современная медицинская эпонимическая терминология // Журнал Гродненского государственного медицинского университета. – 2008. – № 3 (23). – С. 129-131.

³⁵ Какзанова Е.М. Лингвокогнитивные и культурологические особенности научного дискурса (на материале математических и медицинских терминов-эпонимов). Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук / Ин-т языкознания РАН. М., 2011. – С. 18.

³⁶ Лобях Е.А. Имя собственное в немецкой математической терминологии // Тезисы докладов Всесоюзной конференции «Подготовка и использование научно-технических словарей». – М., 1986. – С. 90-92.

tadqiq etilgan. Masalan, *mania* – *maniya* (*Maniya* - aqlsizlik ma’budasi) termini ong va his-tuyg‘ularning konsentratsiyasi bilan paydo bo‘lgan og‘riqli ruhiy holatni, hayajondan depressiyaga keskin o‘tish jarayonini anglatadi. Tadqiqotchi bunday terminlar teologik mifonimlar asosida shakllanganligi va tilda paydo bo‘lib, dunyoga keng tarqalganligini ta’kidlaydi³⁸.

Zamonaviy tilshunoslikda kasalliklar nomlarini ifodalovchi frazeeponimlar xususida, ularning etimologik, struktural-semantik, lingvostilistik qirralari bo‘yicha, bir qator jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ularda qimmatli nazariy va amaliy xulosalarga kelingan, hamda tegishli ilmiy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan (Ye.V.Bekisheva 1994, 1996, 1998, 2003, 2006, 2006a, 2007; I.V.Motchenko 2001; A.N.Usmanhodjayev 2009; Tibbiy terminlar ensiklopedik lug‘ati, 2009; Abdujabborova va boshq. 1992; Besekirska 1997; Izvekova, Grihyenko 2013; Tokareva 2003; Oganesyanyan 2003; Yakovenko 2012, 2013, 2014 va b.)³⁹

Biz ular bilan tanishar ekanmiz, ularda qiyoslanayotgan tillarda kasallik nomlarini ifodalovchi substantiv frazemalarning kelib chiqishi lotin-yunon tillaridagi, shuningdek rus va ingliz tillaridagi aksariyat atamalarga borib taqalishi bilan ajralib turadi. Bizning statistik tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, tadqiq qilinayotgan eponimlar aksariyati lotin-yunon asosiga (70 %), qolganlari esa ingliz va rus asosiga ega ekan. Quyida biz insonning kundalik hayotida tez-tez uchrab turadigan kasalliklarning nomlarini ingliz tilida ifodalovchi eponimlarning bir muhim jihati – ularning struktural-semantik turlarini o‘rganishga harakat qilamiz. Tilni o‘rganuvchilar tomonidan bunday leksemalarni shakli va ma’nosi (semantikasi)ga ko‘ra boshqa leksemalardan farqlanishi va ularni jonli muloqotda adekvat qo‘llanishi, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirilishiga puxta zamin

³⁸ Варнавская Е.В. Статус и функционирование эпонимов в медицинской терминологии испанского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук / Воронеж. гос. ун-т. – Воронеж, 2009. – 23 с.

³⁹ Бекишева Е.В. Поливербальные терминологические конструкции в английской медицинской терминологии // *Терминоведение*. – 1996. – Вып. 1–3. – [Электрон ресурс]. – Ruhsat tartibi: <https://dissercat.com>; Мотченко И.В. Основные тенденции в формировании английской медицинской терминологии: кандидат филологических наук. – Москва, 2001 studizba.com+10dissercat.com+10philology-journal.ru+10; Usmanhodjayev A.N. Tibbiy terminlar ensiklopedik lug‘ati: N-Ja. – Tashkent: Sug‘diyona, 2009. – [Электрон ресурс]. – Ruhsat tartibi: <http://akbt.uzdxa.uz>; Бесекирска Л. Интернациональная лексика в медицинской терминологии русского языка: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук, спец. 10.02.01 / – Москва, 1997. – 265 с. – [Электрон ресурс]. – Ruhsat tartibi: <https://rusneb.ru>;

yaratadi, qolaversa ularning struktural-semantik turlari yuqorida sanab o'tilgan boshqa muhim qirralarini tadqiq etishga ham asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tilida kasallik nomlarini ifodalovchi substantiv frazemalar hanuzgacha tadqiqot obyekti sifatida olib o'rganilmagan. Qiyosiy asnoda esa bu sohada umuman ilmiy izlanishlar o'tkazilmagan, lekin o'zbek tilida bir qator tibbiyot meditsina atamaları lug'atining yaratilishi bu borada qo'yilgan dadil qadamlardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi (Abdujabborova i dr. 1992; Usmonxujayev va b. 1992; Usmonxujayev va b. 1993; Ruscha-lotinch-a-o'zbekcha tibbiy terminlar izohli lug'ati, 2005; Usmonxujayev va b. 2005; Tibbiy terminlar ensiklopedik lug'ati, 2009 va boshqalar⁴⁰).

Shunday qilib, biz ingliz tilidagi mavjud kasallik nomlarini ifodalovchi eponimlarning tarkibiga ko'ra guruhlashtirishga, keyin esa ularni tasniflab, o'zbek tilidagi muqobillari bilan chog'ishtirishga zamin yaratamiz.

Ta'kidlash joizki, biz o'z ilmiy izlanishimizda professor G'.M.Xoshimovning otlar tasnifi haqidagi fikriga qo'shilgan holda, kasalliklar nomlarini ifodalovchi otlar – substantivemalarning struktural turlarini asos qilib oldik va ulardan foydalandik.

Qiyoslanayotgan tillarda kasallik nomlarini ifodalovchi tibbiy frazeponimlar, ya'ni ***KNIEKSFlar*** struktural-semantik belgilariga ko'ra bir necha asosiy turga bo'linadi.

1. ***Disease*** (kasallik, xastalik) leksemasini *o'z ichiga olgan KNIEKSFlar tahlili keltirilgan:*

1) Chicago disease – Chikago kasalligi (shuningdek, blastomikoz deb ham yuritiladi);

2) Creutzfeldt-Jakob disease – Kreysfeldt-Yakob kasalligi;

Извекова Т.Ф., Грищенко Е.В., Пуртов А.С. Эпонимы в медицинской терминологии // Медицина и образование в Сибири. – 2014. – №3. – [Электрон ресурс]. – Ruxsat tartibi: <https://ngmu.ru/cozo/mos/article/pdf.php?id=1365>; Токарева И.В. Адаптация немецких лексических заимствований в русском литературном языке (на материале XIX–XX вв.): Дисс. ... канд. филол. наук. – Тюмень, 2003. – [Электрон ресурс]. – Ruxsat tartibi: <https://rusneb.ru>; Яковенко Т.И. Имплицитный смысл онима в тексте: на материале русского и английского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук / Ростов-на-Дону, 2013. – 18 с. – [Электрон ресурс]. – Ruxsat tartibi: <https://studizba.com>; Usmonxujayev A. Katta tibbiyot o'quv lug'ati / A.Usmonxujayev. – 2011. – [Электрон ресурс]. – Ruxsat tartibi: <https://your-lib.ru>; Абдужабборовва Н., Усмонхўжаев А. Мўжаз тиббий лугат: тиббий атамалар русча-ўзбекча лугати. – [Электрон Электрон ресурс]. – Ruxsat tartibi: <https://journal.buxdu.uz>.

- 3) Kyasanur Forest disease – Kyasanur o‘rmon kasalligi;
- 4) Busse-Buschke disease – Busse-Bushke kasalligi
- 5) Central core disease – Markaziy yadro (mushak) kasalligi
- 6) Huntington’s disease – Xantington kasalligi;
- 7) Kennedy disease – Kennedi kasalligi;
- 8) Duke’s disease – Dyuk kasalligi

2. **Syndrome (sindrom) so‘zi ishtirokidagi KNIEKSFlar:**

- 1) Stevens-Johnson syndrome – Stivens-Jonson sindromi;
- 2) Asperger’s Syndrome – Asperger sindromi
- 3) Carpal Tunnel Syndrome – Karpal tunnel sindromi (ba’zan “bilak kanali sindromi” deb ham yuritiladi);
- 4) Down Syndrome – Daun sindromi) tibbiy adabizotlarda *Down’s syndrome* shaklida ham uchraydi);
- 5) Williams Syndrome – Uilyams sindromi;
- 6) Gardener Syndrome – Gardner sindromi;
- 7) Kallman Syndrome – Kalman sindromi;
- 8) Kelley-Seegmiller Syndrome – Kelli-Sigmiller sindromi;
- 9) Lesch-Nyhan Syndrome – Lesh-Nixan sindromi;
- 10) Fitz-Hugh-Curtis syndrome – Fitz-Xyu-Kurtis sindromi;
- 11) Acquired Immunodeficiency Syndrome (AIDS) – orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS);
- 12) Bechterew kasalligi (ankilozlovchi spondiloartrit) – umurtqa pog‘onasi bo‘g‘imlarining surunkali yallig‘lanish kasalligi;
- 13) Botkin-Gaydusek sindromi (subakut spongiform ensefalopatiya) – markaziy nerv tizimining og‘ir shikastlanishi bilan kechuvchi holat;
- 14) Botkin simptomi – jigar sohasida manfiy perkussiya belgisining kuzatilishi;
- 15) Bexterev-Mendel refleksi – oyoq panjasining orqa yuzasiga (ustiga) bolg‘acha bilan urilganda, oyoq barmoqlarining beixtiyor bukilishi;
- 16) Pavlov kasalligi – oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yarasi;

17) Zaxarin-Ged zonalari – ichki a’zolar xastalanganda tananing ma’lum teri sohalarida seziladigan proyeksion og’riq nuqtalari;

18) Stankevich simptomi – o’tkir appenditsitda kindik atrofi palpatsiyasida og’riqning keskin kuchayishi;

19) Filatov kasalligi – infeksiyon mononukleoz;

20) Pirogov-Rusetskiy kasalligi – tug’ruqdan keyingi sepsis;

21) Voskresenskiy simptomi – o’tkir appenditsit tashxisida qo’llaniladigan “sirpanib ketayotgan ko’ylak” belgisi;

12) 22) Gofman-Valde kasalligi – amiotrofik lateral skleroz (BAS – xalqaro miqyosda ko’proq Charcot kasalligi nomi bilan mashhur).

3. *Virus so‘zini o‘z ichiga olgan KNIEKSFlar:*

1) Colorado tick fever virus – Kolorado shomil isitmasi virusi;

2) Dandy fever (shuningdek, Breakbone fever) – Dendi isitmasi (bo’g’imlardagi kuchli og’riq sababli “suyaklarni sindiruvchi isitma” deb ham ataladi);

3) Dengue fever – Dang isitmasi;

4) Ebola hemorrhagic fever – Ebola gemorragik isitmasi

5) Congo hemorrhagic fever virus – Kongo gemorragik isitmasi virusi;

6) Crimean-Congo hemorrhagic fever virus – Qrim-Kongo gemorragik isitmasi virusi;

7) Marburg hemorrhagic fever – Marburg gemorragik isitmasi;

8) Rift Valley Fever – Rift vodiysi isitmasi;

9) West Nile Fever – G’arbiy Nil isitmasi.

4. *Fever (isitma) so‘zini o‘z ichiga olgan KNIEKSFlar:*

1) Boutonneuse fever – Butonnyoz isitmasi;

2) Brazilian purpuric fever – Braziliya purpur isitmasi;

3) Canefield fever – Keynfield isitmasi;

4) Cat-scratch fever – mushuk tirnashi isitmasi.

5. *Worm (qurt/gelmint) so‘zini o‘z ichiga olgan KNIEKSFlar:*

1) Guinea Worm – Gvineya qurti;

- 2) Fish tapeworm – baliq tasmasimon qurti;
- 3) Beef tapeworm – qoramol tasmasimon qurti;
- 4) Rat tapeworm – kalamush tasmasimon qurti

6. “Encephalitis” (ensefalit, kasallik, xastalik) *so‘zini o‘z ichiga olgan KNIKSFlar:*

- 1) Viral encephalitis – virusli ensefalit;
- 2) California group encephalitis – Kaliforniya guruhi ensefaliti;
- 3) Russian spring-summer encephalitis – rus bahor-yoz ensefaliti;
- 4) Far Eastern tick-borne encephalitis – uzoq Sharq shomil ensefaliti;
- 5) Spring-summer encephalitis – bahor-yoz ensefaliti;
- 6) Taiga encephalitis – tayga ensefaliti.

7. “Illness” (kasallik, xastalik) *so‘zini o‘z ichiga olgan KNIKSFlar:*

- 1) Lyme-like illness – Laymga o‘xshash kasallik;
- 2) Southern tick associated rash illness (STARI) – Janubiy shomil bilan bog‘liq toshmali kasallik;

8. “Sickness” (kasallik, xastalik) *so‘zini o‘z ichiga olgan KNIKSFlar:*

- 1) African Sleeping Sickness – Afrika uyqu kasalligi;
- 3) Sleeping sickness – uyqu kasalligi.

9. “Tumor” (shish/o‘sma) *so‘zini o‘z ichiga olgan KNIKSFlar:*

- 1) Pott’s puffy tumor – Pottning shishgan o‘smasi;
- 2) Klatkin’s tumor – Klatkin o‘smasi;
- 3) Krukenberg tumor – Krukenberg o‘smasi;
- 4) Kuttner’s tumor – Kuttner o‘smasi;
- 5) Grawitz tumor – Gravits o‘smasi;
- 6) Brenner tumour – Brenner o‘smasi.

10. “Ulcer” (yara) *so‘zini o‘z ichiga olgan KNIKSFlar:*

1. Curling ulcer – Kurling yarasi;
- 7) Cushing ulcer – Kushing yarasi;

11. “Ehlers-Danlos” (Eler-Danlos) *so‘zini o‘z ichiga olgan KNIKSFlar:*

- 1) Myopathic Ehlers-Danlos syndrome – Miopatik Eler-Danlos sindromi;
- 2) Periodontal Ehlers-Danlos syndrome – periodontal Eler-Danlos sindromi;
- 3) Spondylodysplastic Ehlers-Danlos syndrome – Spondilodiplastik Eler-Danlos sindromi;
- 4) Vascular Ehlers-Danlos syndrome – Vaskulyar Eler-Danlos sindromi.

12. “Cyst” (kista/sista) so‘zini o‘z ichiga olgan KNIEKSFlar:

- 1) Baker cyst – Beyker kistasi;
- 2) Bartholin cyst – Bartolin kistasi.

13. “Ataxia” (ataksiya) so‘zini o‘z ichiga olgan KNIEKSF:

- 1) Friedreich’s ataxia – Fridrix ataksiyasi.

14. “Aphasia” (afaziya) so‘zini o‘z ichiga olgan KNIEKSFlar:

- 1) Broca’s Aphasia – Broka afaziyasi;
- 2) Wernicke’s Aphasia – Vernike afaziyasi.

15. “Angina” (angina/stenokardiya) so‘zini o‘z ichiga olgan KNIEKSFlar:

- 1) Vincent’s angina – Vinsent anginasi;
- 2) Prinzmetal angina – Prizmetal stenokardiyasi;
- 3) Ludwig’s angina – Lyudvig anginasi.

16. “Paralysis” (falajlik/shol) so‘zini o‘z ichiga olgan KNIEKSF:

1. Zenker paralysis – Senker falajligi.

17. “Arteritis” (arterit) so‘zini o‘z ichiga olgan KNIEKSF:

- 1) Takayasu’s arteritis – Takayasu arteriti.

18. “Complex” (kompleks) so‘zini o‘z ichiga olgan KNIEKSFlar:

- 1) Carney complex – Karni kompeksi;
- 2) Ghon’s complex – Gon kompleksi.

Yasama KNIEKSFlar (infeksion va parazitlar kasalliklar)

Ushbu guruhda kasallik nomlari qo‘zg‘atuvchisini aniqlagan olim ismiga -
osis/-iasis qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasalgan:

- 1) Theileriosis – Teylerioz;
- 2) Rickettsiosis – Rikketsioz;
- 3) Leishmaniasis – Leyshmanioz;

- 4) Listeriosis – Listerioz;
- 5) Lobomycosis – Lobomikoz.

20. “Thyroiditis” (tireodit) soʻzini oʻz ichiga olgan KNIEKSFlar:

- 1) Hashimoto thyroiditis – Xashimoto tireoditi;
- 2) de Quervain thyroiditis – de Kerven tireoditi;
- 3) Riedel thyroiditis – Ridel tireoditi.

20. “Psoriasis” (psoriaz) soʻzini oʻz ichiga olgan KNIEKSFlar:

- 1) Zumbusch psoriasis – Sumbush psoriazi.

21. “Palsy” (shol/falajlik) soʻzini oʻz ichiga olgan KNIEKSFlar:

- 1) Bell’s palsy – Bell falajligi;
- 2) Erb-Duchenne palsy – Erb-Dyushen falajligi.

KNIEKSFlar yuzasidan olib borgan tahlillarimiz asosida shu narsa aniqlandiki, bu roʻyxatni davom ettirish mumkin, chunki ularning 2000 ga yaqin turlari mavjud⁴¹.

Yuqoridagi tahlillarimiz ingliz va oʻzbek tillaridagi KNIEKSFlarni quyidagi struktural-semantik turlarga tasniflash uchun toʻliq asos borligini koʻrsatadi. Mazkur **substantiv frazemalarning** strukturasi ularning tarkibini bildirsa, ularning semantikasi “kasallik konseptual semantikasi”da oʻz aksini topadi.

Quyidagi jadvalda biz, avvalo, kasallik nomlarini ifodalovchi va bevosita KNIEKSFlarning asosini tashkil etuvchi kasalliklar nomlari, shuningdek mazkur substantiv frazemalar struktural-semantik turlari tasnifini berishga harakat qilamiz:

Ingliz tilida kasallik nomlari (modellari)	Oʻzbek tilida kasallik nomlari (modellari)
1. Sodda otlar bilan ifodalangan kasallik nomlari: (tarkibida faqat bitta oʻzak mavjud boʻlgan, leksik-semantikjihatdan boʻlinmaydigan terminlar. Ular asosaqadimgi xalq tabobati yoki lotin/yunon tillaridan oʻzlashgan fundamental	1. Sodda otlar bilan ifodalangan kasallik nomlari: (tarkibida bir oʻzak mavjud): saraton, ekzema, polio (miyelit), tepki, qizamiq, oʻlat, vabo, soʻgal, gerpes, qichima, va hokazo.

⁴¹ https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_eponymous_diseases. Bu haqida batafsil maʼlumotlar uchun ishning ilova qismiga qarang, 133-bet.

tushunchalardir): Cancer, Eczema, Polio, Mumps, Measles, Plague, Cholera, Warts, Shingles, Scabies, etc.

2. Yasama otlar bilan ifodalangan kasallik nomlari (tarkibida bir “o‘zak+affiks” mavjud):

a) tarkibida “o‘zak+sis” affiksi mavjud bo‘lgan eponimik va umumtibbiy terminlar: Sclerosis, Pertussis, Tuberculosis, etc.;

b) tarkibida “o‘zak+ism” affiksi mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: cherubism, cretinism, rheumatism, etc.;

v) tarkibida “o‘zak+oid” affiksi mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: Chancroid, Hypothyroid, Typhoid, etc.;

g) tarkibida “o‘zak+ia” affiksi mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: Myopia, Hypotonia, Hypertonia, Hyperopia, Diphtheria, etc.;

d) tarkibida “o‘zak+pox” affiksi mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: Chickenpox, Cowpox, Smallpox, etc.;

e) tarkibida “o‘zak+itis” affiksi mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: Appendicitis, Bronchitis, Hepatitis, Tonsillitis, Otitis, etc.

3. Qo‘shma va murakkab otlar orqali ifodalangan terminlar:

a) tarkibida ikki o‘zak mavjud bo‘lgan qo‘shma otlar: headache, toothache, backache, smallpox, cowpox, monkeypox;

b) tarkibida uch va undan ortiq o‘zak+affikslar mavjud bo‘lgan murakkab terminlar: adrenoleukodystrophy (adreno-+leuko-+dystrophi); thrombocytopenia (thrombo-+cyto-+penia); paracoccidioidomycosis (para-+coccidio-+ido-+mycosis),

2. Yasama otlar bilan ifodalangan kasallik nomlari: (tarkibida bir “o‘zak+affiks” mavjud):

a) tarkibida “o‘zak+oz” affiksi mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: skleroz, pertussiz (ko‘k yo‘tal), tuberkulyoz (sil) va hokazo;

b) tarkibida “o‘zak+izm” affiksi mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: sherubizm, kretinizm, revmatizm va hokazo;

v) tarkibida “o‘zak+oid” affiksi mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: shankroid, gipotireoid (qalqonsimon bez funksiyasining pasayishi), tifoid (ich terlamaga o‘xshash holat) va hokazo;

g) tarkibida “o‘zak+iya” affiksi mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: miopiya, gipotoniya, gipertoniya giperopiya, diareya va hokazo.

d) tarkibida “o‘zak+chechak” affiksi mavjud bo‘lgan yasama otlar mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: suvchechak, sigirchechak, chechak va hokazo.

e) tarkibida “o‘zak+it” affiksi mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: appenditsit, bronxit, gepatit, tonsillit, otit va hokazo.

3. Qo‘shma otlar orqali ifodalangan eponimlar:

a) tarkibida ikki o‘zak mavjud bo‘lgan kasallik nomlari: boshog‘riq, tishog‘riq, belog‘riq, suvchechak, sigirchechak, maymunchechak.

b) tarkibida uch o‘zak+affiks mavjud bo‘lgan kasallik nomlari:

1) Adrenoleykodistrofiya (adreno-+leyko-+,

2) distrofiya), trombotsitopeniya (trombo-+tsito-+peniya), parakoksidoidomikoz (para-+koksidio-+ido-+mikoz),

3) koksidoidomikoz, (sinonimlari: Kaliforniya isitmasi, dasht revmatizmi,

coccidioidomycosis (coccidio-+ido-+mycosis), chromoblastomycosis (chromo-+blasto-+mycosis), etc. 4. Murakkab otlar orqali ifodalangan KNIEKSFlar (ingliz tilidagi modellari): a) tarkibi ikki va undan ortiq leksik komponentlardan tashkil topgan KNIEKSFlar. Ushbu modelda ko`pincha eponim (shaxs nomi) va tayanch termin (disease, fever, syndrome) birikadi: Scarlet fever, Parkinson's disease, Huntington's Disease, Gardner Syndrome, Night blindness, Rheumatic fever. b) tarkibi uchta leksik komponentdan tashkil topgan KNIEKSFlar: Rift Valley fever, Mad cow disease, Kelley-Seegmiller Syndrome, etc. d) tarkibi to'rtta leksik komponentdan tashkil topgan KNIEKSFlar: 1) Alcohol-related neurodevelopmental disorder, Charcot-Marie-Tooth disease, Crimean-Congo hemorrhagic fever, Spinal and bulbar muscular atrophy, Gerstmann-Sträussler-Scheinker disease, Rocky Mountain spotted fever, etc. 5. Aralash KNIEKSFlar (morfologik jihatdan turli xil yasama komponentlardan iborat modellar): a) tarkibi ikkita yasama otdan tashkil topgan KNIEKSFlar: rheumatoid arthritis, mitochondrial myopathy, chondrodysplasia punctata, trichophyton mentagrophytes, pneumococcal infection, retinitis pigmentosa, etc.; b) tarkibi bir sodda va ikki yasama otdan tashkil topgan KNIEKSFlar: primary amoebic meningoencephalitis, iron-deficiency anemia, etc.;	Posada-Vernike kasalligi), xromoblastomikoz (sinonimlari: xromomikoz, varikozli dermatit, xromofitoz, Pedrozo kasalligi), etc. 4. Murakkab otlar orqali ifodalangan KNIEKSFlar (o'zbek tilidagi modellari): a) tarkibi ikkita frazemadan tashkil topgan KNIEKSFlar: skarlatina kasalligi, Parkinson kasalligi, Xantington kasalligi, Gardner sindromi, niktalopiya (xalq tilida shapko'rlik); revmatik ataka; b) tarkibi uchta leksik komponentdan tashkil topgan KNIEKSFlar: Rift vodiysi isitmasi, quturgan sigir kasalligi, Kelli-Sigmiller sindromi; d) tarkibi to'rtta leksik komponentdan tashkil topgan KNIEKSFlar: Sharko-Mari-Tut kasalligi, Qrim-Kongo gemorragik isitmasi, Gersman-Shtrausler-Sheyner kasalligi, qoyali tog'lar dog'li isitmasi. 5. Aralash KNIEKSFlar (leksik-morfologik modellar): a) tarkibi ikkita yasama otdan tashkil topgan KNIEKSFlar: revmatoid artrit, mitoxondrial miopatiya, nuqtali xondrodisplaziya, trixofitiyalik sikoza (soch follikullarining yiringli yallig'lanishi), pnevmokokk infeksiyasi, surunkali (urug' suradigan) kuz kasalligi va hokazo; b) tarkibi bir sodda va ikki yasama otdan tashkil topgan KNIEKSFlar: 1) birlamchi amebali meningotsefalit, temir tanqisligi anemiyasi;
--	--

c) tarkibi bir yasama va ikkita sodda otdan tashkil topgan KNIEKSFlar: repetitive strain injury staphylococcal food poisoning, etc.; d) tarkibi ikkita sodda va bir yasama otdan tashkil topgan KNIEKSFlar: Sickle cell anemia, Deep vein thrombosis, Hollow viscus injury; e) tarkibi ikkita yasama va bir sodda otdan tashkil topgan KNIEKSFlar: pelvic inflammatory disease, pervasive developmental disorder, obsessive-compulsive disorder; f) eponimik Substantiv va “-osis/-iasis” affiksidan tashkil topgan KNIEKSFlar: Rickettsiosis – Howard Taylor Ricketts; Leishmaniasis – Sir William Boog Leishman; Listeriosis – Joseph Lister; Lobomycosis – Jorge Lobo	c) tarkibi bir yasama va ikkita sodda otdan tashkil topgan KNIEKSFlar: 1) takroriy harakatlardan lat yeyish, oziq-ovqatdan stafilokokkli zaharlanish; d) tarkibi ikkita sodda va bir yasama otdan tashkil topgan KNIEKSFlar: o‘roqsimon hujayrali anemiya, chuqur vena trombozi, kolloid va vitseral yaralar. e) tarkibi ikkita yasama va bir sodda otdan tashkil topgan KNIEKSFlar: 1) kichik chanoq organlarining yallig‘lanishi, inson yoshi bilan bog‘liq funksional buzilishlar, semirish bilan bog‘liq sog‘liqning buzilishi; f) tarkibi eponimik substantiv “-oz/-iaz” affiksidan tashkil topgan KNIEKSFlar: 2) Rickettsioz – Hovard Teylor Rikkets nomi bilan bog‘liq bo‘lib, rikketsiyalar keltirib chiqaradigan yuqumli kasalliklar guruhi. Leyshmanioz – Ser Uilyam Bug Leyshman nomi bilan ataluvchi, parazit leyshmaniyalar tomonidan chaqiriladigan protozoy kasalligi. 3) Listerioz – Josef Lister nomi bilan bog‘liq bo‘lib, listeriyalar keltirib chiqaradigan infeksiyon patologiya. 4) Lobomikoz – Jorge Lobo nomi bilan ataluvchi, terining surunkali zamburug‘li zararlanishi.
---	--

Sog‘liqning buzilishini (“disorders”) ifodalovchi KNIEKSFlar tasnifi:

1. Mood disorders (kayfiyat buzilishlari):

persistent depressive disorder – doimiy depressiv buzilish (distrimiya);
premenstrual dysphoric disorder – hayz oldi disforik buzilishi.

2. Anxiety disorders (sababsiz qo‘rquv, buzilishi):

generalized anxiety disorder – umumiy xavotirli (depressiv) buzilish;
obsessive-compulsive disorder (OCD) – nerv sistemasi nevrozi.

3. Eating disorders (ovqatlanishning buzilishi):

anorexia nervosa – nerv anoreksiyasi (ovqatdan o`zini tiyish);

binge eating disorders – tartibsiz ovqatlanish.

4. Trauma-related disorders (travma/shikastlanish bilan bog`liq buzilishlar):

post-traumatic stress disorders (PTSD) – shikastlanishdan keyingi stress buzilishi.

5. Neurodevelopmental disorders – Nevrorivojlanish buzilishlari.

Biz yuqorida ingliz tilidagi **KNIEKSFlarning** faqatgina struktural-semantik jihatlariga muhtasir sharh berishga harakat qildik.

Quyida akronimik **KNIEKSFlarning** yana bir struktural va semantik jihatlariga e`tiborni qaratamiz, u ham bo`lsa ularning akronimik turlaridir. Akronimlar qisqartma so`zlarning shunday bir turiki, unda ular **KNIEKSFlarning** faqat bosh harflarini qoldirgan holda yasalgan qisqartmalar bo`lib, ular harflab o`qilmaydi, aksincha ular yaxlit so`zlarga o`xshab, bo`g`inlar asosida talaffuz qilinadi. Tahlillarimiz asosida biz ingliz tilida **KNIEKSFlarning** qisqartmalar – akronimlar orqali ifodalangan quyidagi ikki muhim va keng tarqalgan struktural turlarini va ularning o`zbekcha muqobillarini aniqladik.

AKRONIMLAR:

1. Eponimik substantiv aniqlovchi (antesedent) va substantiv aniqlanishdan tashkil topgan KNIEKSFlar (“eponimik substantiv+kasallik nomini ifodalovchi substantiv” qolipining qisqartirilgan) **turi:**

1. DiG (DIGS) – DiGeorge syndrome – Di Jodj sindromi.
2. GAS disease – Group A Streptococcal disease: – A guruhi streptokokk kasalligi.
3. HAS – Holmes-Adie syndrome – Xolms-Adi sindromi.
4. Hib disease – Haemophilus influenzae type B disease – B tipidagi gemofilus infeksiyasi.
5. HOH– Hard of hearing – eshitish qobiliyatining zaifligi.
6. IBIDS syndrome– Ichthyosis, Brittle hair, intellectual impairment, decreased fertility, and Short stature – IBIDS sindromi (ixtioz, soch mo`rtligi, aqliy zaiflik, bepustlik va past bo`ylilik majmuasi).

7. IFAP syndrome– Ichthyosis follicularis, alopecia, and photophobia syndrome – Ichthyosis follicularis, alopesiya va fotofobi sindromi

8. LEMS – Lambert-Eaton myasthenic syndrome – Lambert-Iton miastenik sindromi.

9. MAC – Mycobacterium avium complex – Mikobakterium avium kompleksi.

10. MID – Multi-infarct dementia – ko`p infarktli demensiya.

11. MOH – Medication overuse headaches – dori vositalarini haddan tashqari ko`p iste'mol qilish natijasidagi bosh og`rig`i.

12. POTS – Postural orthostatic tachycardia syndrome – Postural ortostatik taxikardiya sindromi.

13. ROP – Retinopathy of prematurity – chala tug`ilgan chaqaloqlar retinopatiyasi.

14. STEMI – ST-elevation myocardial infarction – ST segmenti ko`tarilishi bilan kechuvchi miokard infarkti.

15. UTIs – Urinary tract infections – siydik yo'llari infeksiyalari.

2. Eponimik aniqlovchi (komponent) va substantiv aniqlanmish (antesedent)dan tashkil topgan KNIEKSFlar. Ushbu akronimlar klinik manzarani tavsiflovchi sifatlar va tayanch otlar birikmasidan shakllangan.

(“Adyektiv (yoki adyektivlashgan birikma)+kasallikni ifodalovchi substantiv” qolipining qisqartirilgan) turi:

1. Empty Sella syndrome (EES) – bo'sh turk egari sindromi.

2. FAS – Fetal alcohol syndrome – homilalik alkogol sindromi

3. FASDs – Fetal alcohol spectrum disorders – homiladorlik davrida spirtli ichimliklar iste'mol qilish oqibatida homilada yuzaga keladigan barcha buzilishlar.

4. GAD – Generalized anxiety disorder – umumiy xavotir buzilishi.

5. GAN– Giant axonal neuropathy – gigant aksonal neyropatiya.

6. GERD – Gastroesophageal reflux disease – Gastroyezofageal reflyuks kasalligi.

7. GIB – Gastrointestinal bleeding – Gastrointestinal (me'da-ichakdan) qon ketishi.

8. HELLP syndrome – Hemolysis, Elevated Liver enzymes, Low Platelet count syndrome – gemoliz, jigar fermentlari ko`tarilishi va trombotsitlar kamayishi bilan kechuvchi homiladorlik asorati.

9. INAD – Infantile neuroaxonal dystrophy – infantil neyroaksonal distrofiyasi.

10. JAS – Juvenile anklosing spondylitis – Yuvenil (o`smirlar) ankilozlanuvchi spondiliti.

11. NAS – Neonatal abstinence syndrome – neonatal abstinensiya sindromi.

12. RAD – Reactive airway disease – nafas yo`llarining reaktiv kasalligi.

13. RIND – Reversible ischemic neurologic deficit – qaytariluvchi ishemik nevrologik defitsit.

14. SARS – Severe acute respiratory syndrome – og‘ir o‘tkir respirator sindrom.

15. SIDS – Sudden infant death syndrome – chaqaloqlarning favqulodda o‘limi sindromi.

16. SOD – Septo-optic dysplasia – septo-optik displaziya.

17. TOS – Thoracic outlet syndrome – torakal chiqish sindromi.

18. SUNCT – Short-lasting, Unilateral, Neuralgiform headache – qisqa muddatli, bir tomonlama, nevralgiform bosh og‘rig‘i.

19. TAC– Trigeminal autonomic cephalgia – trigeminal avtonom sefalgiya.

Yuqorida keltirilgan **KNIEKSFlarning** akronimlar orqali ifodalangan turlaridan ko‘rinib turibdiki, ularning ikkinchi turi, ya’ni **“adyektiv (yoki adyektivlashgan birikma) + adyektiv substantiv”** qolipning qisqartirilgan turi son va sifat jihatdan ustunligi bilan birinchi turdan tubdan farq qiladi. Bu o‘rinda shu narsa ham aniqlandiki, KNIEKSFlarning o‘zbekcha muqobillari ayrim hollarda izoh xarakterida berilishi ham mumkin. Tibbiy eponimlar borasida V.V.Kolmakova va S.V.Bilkova tomonidan tibbiy eponimik atamalar, shu jumladan KNIEKSFlarning quyidagi semantik tasnifi⁴² (bu o‘rinda ularning ikkinchi komponenti **“kesma**

⁴² Колмакова В.В., Былкова С.В. Употребление русских эпонимов в лексике английского языка // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов, 2016. – № 12 (66). – Ч. 2. – С. 115-120.

kasallik, test, kanal, to 'plam, dog', reaksiya, yara” kabi tibbiy substantiv leksemalar orqali ifodalanadi:

1. **Zudek atrofiyasi** – bu oyoq-qo‘llarning shikastlanishidan keyin paydo bo‘ladigan, uzoq muddatli og‘riqli sindrom, trofik kasalliklar (osteoporoz) va boshqalar bilan birga keladigan og‘riq sindromi, nemis jarrohi P.Zudek nomiga atalgan;

2. **Auerbax pleksusi**-oshqozon-ichak traktining ichi bo‘sh silliq mushak membranasining bo‘ylama va dumaloq qatlamlari orasida joylashgan nerv pleksusi, nemis anatomisti Leopold Auerbax nomiga berilgan;

3. **Albers-Shyenberg kasalligi** – skelet suyaklari, ularning diffuz zichligi bilan namoyon bo‘ladigan irsiy kasallik. Mo‘rtlik, suyak iligi gematopezining yetishmovchiligida namoyon bo‘ladi, 1904-yilda nemis jarrohi Ernest Albers-Shyenberg tomonidan tasvirlangan;

4. **Alsgeymer kasalligi** – demensning eng keng ko‘p tarqalgan shakli bo‘lib, 1907-yilda nemis psixiatri Alois Alsgeymer tomonidan tasvirlab berilgan;

5. **Daun kasalligi** – genomik patologiya shakllaridan biri bo‘lib, undagi kariotip ko‘pincha 47 (normal holatda 46 ta) xromosoma bilan ifodalanadi. Ingliz shifokori Jon Daun sharafiga berilgan;

6. **Parkinson kasalligi** – bu ingliz shifokori Jeyms Parkinson nomi bilan atalgan bo‘lib, keksa yoshlarga xos bo‘lgan, asta-sekin rivojlanuvchi, surunkali nevrologik kasallik;

7. **Daltonizm kasalligi** – rang ko‘rligi – bu irsiy, kamroq orttirilgan, inson va primatlar ko‘rishining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u barcha yoki ba’zi ranglarni ajrata olmaslik qobiliyatining pasayishi bilan ifodalanadi. U 1794-yilda o‘z hissiyotlariga asoslanib, rang ko‘rligi turlaridan birini tasvirlab bergan Jon Dalton sharafiga nomlangan;

8. **Kesar kesmasi** (lat. Sectio Caesarea – Kesarcha kesish) – bu yangi tug‘ilgan chaqaloqning bachadondan kesma orqali olinadigan jarrohlik. Bu atamani kesma bilan tug‘ilgan Yuliy Sezar kashf qilgan;

9. **Frey testi** (Maksimilian fon Frey, nemis fiziologi, 1852 – 1932) – shox parda refleksini aniqlash usuli, ingichka soch tolalari yoki maxsus esteziometr yordamida koʻzning shox pardasiga tegilib, sezuvchanlik darajasi tekshiriladi.

10. **Stenon kanali** – bu parotid tupuk bezining kanali, ogʻiz boʻshligʻining vestibulydan chiqariladi, daniyalik anatomist va geolog Nils Stensen sharafiga nomlangan;

11. **Gis toʻplami** – yurakning oʻtkazuvchi tizimi, nemis kardiologi Vilgelm Gis sharafiga nomlangan;

12. **Rot dogʻlari** – bu baʼzan bakterial endokardit, septisemiya yoki leykemiya bilan ogʻrigan bemorlarda oftalmoskop orqali kuzatilishi mumkin, shveysariyalik patolog M.Rot tomonidan tasvirlangan;

13. **Vasserman reaksiyasi** – sifilisni tashxislash usuli hisoblanadi. Bu reaksiyani amalga oshirish usuli nemis immunologi Avgust Vasserman sharafiga nomlangan.

14. **Mantu reaksiyasi** (tuberkulin testi) – tanada sil kasalligi infeksiyasi bor-yoʻqligini koʻrsatadigan teri testi (immunologik test). Fransuz shifokori Sharl Mantu sharafiga nomlangan;

15. **Adi sindromi** – nevrologik buzilish, yorugʻlikka sekin reaksiya berilishi. Britaniya nevrologi Uilyam Jon Adiy. (ingl. William John Adie) nomiga berilgan.

16. **Fallopni naychalari** – sut emizuvchilarning tuxum yoʻli, bachadon boʻshligʻini qorin boʻshligʻi bilan bogʻlaydigan juft quvurli organ. Ushbu kashfiyotni XVI asrda italiyalik anatomist Gabriel Fallopi birinchi boʻlib tasvirlab bergan.

17. **Kerling yarasi** – oshqozon yarasi, oshqozon shilliq qavatining mahalliy nuqsoni, ingliz shifokori Kerling tomonidan tasvirlangan;

18. **Marjolen yarasi** – surunkali yaralarda uchraydigan skuamoz hujayrali karsinoma. 1828-yilda J.N.Marjolen birinchi marta quyishdan keyingi chandiqli bemorni tasvirlab berdi, uning qirralari malign oʻzgarishlarga uchradi. Shuning uchun oʻshandan beri chandiqlarda rivojlangan saraton Marjolin yarasi deb ataladi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, qiyoslanayotgan ingliz va o‘zbek tillarida KNIEKSFlar mazkur tillarda iste‘moldagi mavjud struktur qoliplarga ko‘ra tizimli shakllantiriladi va kundalik tibbiy amaliyot nutqida keng qo‘llaniladi.

KNIEKSFlarning yuqoridagi struktural-semantik tahlilidan kelib chiqqan holda ushbu tadqiqotda ularni biz tomonimizdan ularga berilgan quyidagi umumlisoniy ta’rif asosida qiyosiy-tipologik tahlilga tortishga harakat qilamiz: “Tilda KNIEKSFlar nominativ frazemalarning bir struktural-semantik turi bo‘lib, ular kamida ikki komponentdan tashkil topgan, “*antropoeponimik substantiv + tibbiy substantiv*” yoki “*kvazieponimik (topoeponimik, zooeponimik, ornitoeponimik, insektoeponimik, plantoeponimik va h.k.) substantiv + tibbiy substantiv*” qolipiga ko‘ra yasalgan nominativ frazemalar bo‘lib, ba’zan ularning birinchi komponentlari posesivG‘qaratqich markeriga ega bo‘lgan, “kasallik” konseptini voqelantiruvchi maxsuslashgan sintaksemdir”.

Quyidagi jadvalda 640dan ortiq KNIEKSFlarning struktural va semantik turlari haqidagi statistik ma’lumotlar keltiriladi:

T/r.	KNIEKSFlar turlari	Qo‘llanilish darajasi, miqdori	Komponentlarining soni					
			1 kom (kushma ot -kompozitli)	2 kom	3 kom.	4 kom.	5 kom	6 kom va ortiq
1.	“Disease” komponentli KNIEKSFlar	165	120	35	7	1	1	1
2.	“syndromeG‘sindrom” komponentli KNIEKSFlar	339	179	129	24	2	3	2
3.	“encephalitisG‘ensefalit” komponentli KNIEKSFlar	11	4	2	1	2	1	1
4.	“sicknessG‘kasallik” komponentli KNIEKSFlar	10	3	4	1		1	1
5.	Boshqa har xil (<i>unit, sign, freckle, scratch, test, triad, pentad</i>) komponentli KNIEKSFlar	115	102	10	3		-	-

Jadvaldagi eponimlar xususida batafsil ma’lumot olish uchun ishning 130-bet, 1-ilovasiga qarang.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “Disease” “syndrome” “sindrom” komponentli KNIEKSFlar qiyoslanayotgan tillarda son jihatdan ustun va ular tibbiy amaliyotda keng qo‘llaniladi. Bu o‘rinda jadvalda keltirilgan KNIEKSFlarning qo‘shma otlar bilan ifodalangan – kompozit turi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular eponimik “substantiv komponent+-iosis” affiksli tibbiy substantiv komponentlardan tashkil topadi, va yallig‘lanish bilan bog‘liq eponimik kasalliklarni ifodalaydi. masalan:

1. Leishmaniosis – Leymanioz.
2. Lobomycosis – Libomikioz.
3. Listeriosis – Listerioz.
4. Rickettsiosis – Rikketioz.

Bular strukturasi ko‘ra qo‘shma otlar = kompozitlar bo‘lib, tarkibi va semantikasiga ko‘ra tibbiy eponimik frazemalarga juda yaqin turadi. Ular aslida ilk bor, tarixan quyidagicha shakllangan:

1. Leishman Iosis – Leymanioz.
2. Lobomyc Iosis – Libomikioz.
3. Lister Iosis – Listerioz.
4. Ricketts Iosis – Rikketioz.

Yuqorida keltirilgan KNIEKSFlarning barchasi ingliz tilida doimo bosh harf bilan yoziladi va qo‘llaniladi, ular o‘zbek tilida, rus tilidagi kabi, gapning boshida katta, ichida esa kichik harflar orqali yozilishi bilan ajralib turadi.

2.2-§. Ingliz va o‘zbek tillarida KNIEKSFlarning lingvopragmatik jihatlari va lingvomedpragmemalar

Qadimiy falsafiy qo‘lyozmalarda «pragmatika» terminidan ilk marotaba foydalanilgan bo‘lib, mazkur so‘z yunon tilidan *pragma* – “ish, harakat” degan ma’noni anglatadi. Keyinchalik bu so‘z falsafiy termin sifatida Aristotel, J.Lokk va E.Kant kabi faylasuflar tomonidan ham qo‘llanilgan. Bu termin tilshunoslikka XX asrning 60 – 70-yillarida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn kabi

tilshunos olimlar tomonidan olib kirildi va tilshunoslikning aniq bir yo‘nalishi sifatida talqin etildi⁴³.

Lingvopragmatika (yoki pragmatika) – tilshunoslik va semiotikaning bir sohasi bo‘lib, u kontekstning ma‘noga ta‘sir qilish holatlari va undan kelib chiquvchi ma‘nolar shakllanishi yo‘llarini o‘rganadi. Lingvopragmatika o‘z ichiga nutqiy akt nazariyasi⁴⁴, muloqotga kirishish jarayoni, suhbatdagi o‘zaro munosabat va nutq holatidagi til bilan bog‘liq boshqa xususiyatlarni qamrab oladi. Mazkur soha tilshunoslik va semiotikadan tashqari falsafa, sotsiologiya va antropologiya bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Ta‘kidlash joizki, belgilar nazariyasi fani tilning 3 aspektlari – sintaksis, semantika va pragmatikani ajratib turadi. Bu bo‘linish faqatgina 20-asr boshlarida paydo bo‘lib, ilgari pragmatika olimlar tomonidan semasiologiyaning alohida bo‘limi sifatida qaralgan.

Ushbu xususda Ch.Morris birinchi bo‘lib o‘zining “Belgilar nazariyasining asoslari” asarida pragmatikani semantikadan ajralib chiqqanligi xususida ta‘kidlab o‘tgan. Unda bu ikki jihat o‘rtasidagi farq tushuntiriladi, ya‘ni semantika belgilarning obyektlar bilan munosabatini o‘rganadi, pragmatika esa belgilarning aloqa ishtirokchilari bilan munosabatlarida ro‘yobga chiquvchi ma‘nolarini tadqiq etadi⁴⁵.

Frank Brisard o‘zining "Kirish: grammatikada ma‘no va foydalanish" inshosida pragmatika bu semantik komponentni olib tashlagan til birligining qiymati ekanligini aytadi. Uning ta‘kidlashicha, lingvistik birliklarning so‘zma-so‘z

⁴³ Пирс Ч.С. Семиотика и логика: основные положения // Автореф. дисс. ...д-р филос. наук. – США, 1839 – 1914; Карнап Р. Аналитическая философия и логика языка // Автореф. дисс. ...д-ра филос. наук. – Германия/США, 1891–1970; Моррис Ч. Философия языка и семиотика: синтактика, семантика, прагматика // Автореф. дисс. ...д-ра филос. наук. – 1901–1979; Sintaktika – belgilarning tuzilishi, semantika – belgilarning ma‘nolari, pragmatika – belgilarning ishlatilish sharoiti va foydalanuvchilar bilan bog‘liq tomonlari.

⁴⁴ Searle J. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.; Jon Syorl (John Searle) – amerikalik faylasuf va tilshunos olim bo‘lib, u nutqiy aktlar nazariyasining asosiy nazariyotchilaridan biridir. “Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language” (1969) asarida J.Syorl tilning nafaqat axborot uzatish vositasi, balki muayyan ijtimoiy harakatlarni amalga oshirish vositasi ekanligini isbotlab bergan. Til yordamida insonlar va‘da berish, buyruq berish, so‘rash, uzr so‘rash yoki xabar berish kabi amallarni bajaradilar. Mazkur jarayonlar tilshunoslikda “nutqiy aktlar” tushunchasi bilan yuritiladi.

⁴⁵ Morris C. Foundations of the Theory of Signs. – Chicago: University of Chicago Press, 1938. – 124 p. – (International Encyclopedia of Unified Science; Vol. 1, No. 2); Основания теории знаков // Семиотика: Антология / под ред. Ю.С.Степанова. – М.: Академический проект, 2001. – С. 58-98.

ma'nosini ko'rib chiqadigan, semantikadan va ushbu belgilarning ma'lum bir til ichidagi munosabatlaridan manfaatdor bo'lgan sintaktikadan farqli o'laroq, pragmatika bayonotlar kontekstini o'rganadi va shu bilan dastlabki ikki jihatni to'ldiradi, ular tarkibiga qo'shiladi⁴⁶.

Yozuvchi Devid Lodjning ta'kidlashicha, pragmatika odamlarga inson tilining nutqiy xatti-harakatlari to'g'risida "to'liqroq", chuqurroq va oqilona ma'lumot beradi. Uning fikricha, "pragmatikasiz tilning ba'zi birliklari aslida nimani anglatishini yoki odam gapirganda nimani anglatishini tushunish mumkin emas. Kontekst va ijtimoiy signallar nutq faoliyatining barcha ishtirokchilari uchun til orqali muloqotni murakkablashtiradigan, hattoki ayrim hollarda uni mavhumlashtiradigan omildir, bu o'rinda muloqotning to'laqlonliligini ta'minlash adresant va adresatning yetarli kommunikativ-pragmatik layoqatiga bevosita bog'liqdir.

Yuqorida aytilgan fikr-muloxazalarning barchasiga asoslanib, pragmatikaning semantika va sintaktikadan qanday farq qilishini va u nimaga javobgar ekanligini aniq ko'rsatib berish mumkin. Bu borada, birinchidan, pragmatika -bu nutq faoliyatini amalga oshirish jarayoniga xos bo'lgan nutq va ijtimoiy signallar kontekstini hisobga olgan holda, lingvistik birliklardan foydalanish orqali, kommunikatorlar tomonidan ma'lumotlarni uzatish va pirovardida ularni tushunish usullariga taalluqli bo'lgan tilning o'ziga xos jihatidir. Ikkinchidan, pragmatika bu aloqa jarayonida o'z maqsadlariga erishish uchun u yoki bu tilda so'zlashuvchilar uchun muhim bo'lgan semasiologiyaning tarkibiy qismidir.

Yuqorida pragmatikaning paydo bo'lishida Ch.Morrisning roli yuqori ekanligi ta'kidlandi, biroq, tilshunoslarning asarlarida bu atamaga o'tgan asrning 60-yillariga qadar e'tibor berilmagan. Birinchi bo'lib, taniqli mantiqchilar Jon Ostin va Jon Serl lingvopragmatika haqida, ya'ni nutq aktlarini hisobga olgan holda, idrokni o'rganadigan fan kommunikantlar tili va axborot almashish jarayonida til birliklari qo'llanishining xoslanishiga urg'uni berganlar.

⁴⁶ Брисард Ф. Введение: значение и употребление в грамматике // Брисард Ф. (ред.) Грамматика, значение и прагматика. – Амстердам: John Benjamins, 2006. – С. 1-26.

Shunga qaramay, tilshunoslik va pragmatika o'rtasidagi munosabatlar unchalik aniq emas. Bu borada uchta qarama-qarshi nuqtayi nazar mavjud:

- 1) pragmatika va tilshunoslik ikki mustaqil bir-birini to'ldiruvchi fanlar;
- 2) pragmatika leksikologiya, fonologiya, nazariy grammatika va boshqalar sohalar kabi tilshunoslikning bir qismidir
- 3) pragmatika matn tilshunosligi kabi tilshunoslikning maxsus bo'limlarining bir qismidir.

Birinchi nuqtayi nazar eng ko'p olimlar tomonidan tan olingan bo'lib, bu lingvistik pragmatikani anglatadi. Rus tilshunosi I.P.Susov "Hozirgi bosqichda pragmatika huquqini istisno qilmasligini, mustaqil fanlararo bilim sohasida tilshunoslikka yaqindan bog'langan soha" ekanligini tan oladi.

Shunday qilib, ko'plab tadqiqotchi olimlar pragmatika o'zining mustaqilligi bilan tilshunoslik qobig'ida ekanligini, ***rivojlanayotgan lingvistik muammolarni hal qilishda*** til egalari tomonidan keng qo'llaniladigan, turfa nutq aktlarida xoslanadigan, lug'atlardagi emas, balki u yoki bu qurshovdagi til birliklari orqali ifodalanadigan kontekstual ma'no turlarini tizimli tadqiq etuvchi istiqbolli lisoniy yo'nalish bo'lib qolayotganligini ta'kidlaydilar, biz ham bu o'rinli fikrni qo'llab quvvatlaymiz.

Bir qator nazariyotchi olimlarning fikriga binoan nutq aktlari orqali jonli muloqot olib boruvchi shaxslarning lisoniy nutqiga ta'sir etuvchi har qanday omil aynan lingvopragmatika sohasi tomonidan chuqur tahlil etiladi. U tilshunoslikdan tashqari boshqa ijtimoiy-gumanitar sohalar bilan ham bevosita bog'liqdir. D.Kimning fikricha: "*Aynan lingvopragmatika so'zlovchining o'z nutqida til birliklarini tanlashda ikkilanishi muammosini hal qiladi va kontekstdagi holat, joy, vaqt va boshqa omillarning ma'noga o'tkazadigan ta'sirini ko'rsatib beradi*"⁴⁷. [7:330]

Taniqli olim, o'zbek lingvopragmatikasining sardori Sh.Safarov pragmatika sohasini quyidagicha ta'riflaydi: "Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib,

⁴⁷ Ким Д. Нутқ фаолиятининг фалсафий асослари. – Сеул: Til Press, 2010. – 450 б. (Philosophical Foundations of Speech Activity. – Seoul: Language & Thought Press).

uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. ... Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir..."⁴⁸. [2:78] Olimning bu nazariyasi pragmatikaning lingvistikada egallagan o'rni hamda vazifasini aniq va ravshan ko'rsatib berdi. Mazkur nazariyaga asoslanib, muloqot jarayonidagi kontekst, lisonning aniq zamonda (vaqt oralig'ida) faollashuvi deb ta'riflanadigan diskurs, nutqiy akt nazariyasi, deyksis, endoforik vositalar kabi tushunchalar aynan pragmalingvistika sohasida o'rganilishi dalillanadi. Bu bilan pragmalingvistikani mazkur tushunchalarni o'rganuvchi qobiq deb tushunish noto'g'ri bo'ladi, chunki tilshunoslikning bu sohasi o'z rivojini boshqa sohalar bilan o'zaro aloqada amalga oshiradi, bunda albatta, semiotika, sotsiolingvistika, antropolingvistika, falsafa, mantiq kabi fanlarning o'rni ham ahamiyatlidir.

Ma'lumki, lingvopragmatikaning asosida nutqiy akt tushunchasi yotadi. Bu tushuncha, eng avvalo, so'zlovchining nutq jarayonida vujudga keluvchi muayyan bir intensiyasi (maqsadi) bilan bog'liqdir. Har qanday muloqot jarayonida lisoniy birliklar ularning lug'aviy ma'nosidan tashqari tag ma'noga ham ega bo'ladi, ya'ni lisoniy birliklar nutqda iltimos, buyurish, tasdiqlash, xabar berish, eslatib o'tish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmunlarni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladi. Masalan, ***Could you lend me some money?*** (*Menga ozroq qarz berib tura olasizmi?*) bu gap sintaktik va semantik jihatdan so'roq gap hisoblanadi. Ammo, mazkur gap uning qanday kontekstda qo'llanilishiga qarab yalinish yoki iltimos yoki buyruq va hattoki xabar berish (so'zlovchining moddiy ahvoli yomonligi haqida) mazmuniga ham ega bo'la olishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu gap muloqot jarayonida kinoya, hazil yoki hayrat kabi pragmatik ma'nolarni ifodalash maqsadida ham foydalanilishi kuzatiladi. Demak, pragmatikaning asosiy vazifalaridan biri til birliklarining nutqda qanday maqsadda qo'llanilishini o'rganishdan iborat ekanligini

⁴⁸ Сафаров Ш. Тил ва маъно: Прагматик ёндашувлар. – Тошкент: Фан, 2004. – 220 б.

anglash mumkin. Nutqiy akt tushunchasiga Sh.Safarovning monografiyasida quyidagicha ta'rif berilgan: "...nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir, ... nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir"⁴⁹. Demak, aynan matn birligi hisoblangan gap diskursda o'zining mazmuni hamda mazkur gap muallifining uni yaratish va bayon etishdan maqsadini o'zida aks ettirgan holda nutqiy aktni tashkil qila oladi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, nutqiy akt va gap har doim ham o'zaro teng kelavermaydi, chunki ba'zi hollarda kontekstda bitta nutqiy aktning vujudga kelishi uchun bir nechta gaplar qo'llaniladi yoki uning aksi – bitta gap mazmunida bir nechta nutqiy aktlar ifodalanishi mumkin.

Pragmatika haqida bildirilgan fikrlarda tilshunos J.Lyonz shunday deydi: "Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanishini tavsiflaydi. Bu lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi"⁵⁰. Ko'rinadiki, kommunikatsiyada muloqot boshqaruvchisi bo'lgan so'zlovchi ko'zlagan maqsadi va unga erishish yo'lida lisonning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanadi va tinglovchiga ta'sir o'tkazadi. Masalan, Darsingni qilmaysanmi? (Darsingni qilgin!), Kitobni yirtdingmi? (Nima uchun yirtasan?) kabi gaplarda so'zlovchi so'roq berish orqali tinglovchidan axborot olishni ko'zlamaydi. O'z munosabatini so'roq ohangida tinglovchiga singdirishga urinadi.

Ta'kidlash joizki, pragmatikaning eponimlarda qo'llash holatlari ham tez-tez uchrab turadi. J.Taubayevning⁵¹ siyosiy eponimlarning pragmatikasi (siyosatchilarning nutqlari asosida) maqolasida jamiyatda sog'liq muammosini hal qilishda "Obamacare" sug'urta polisi pragmatik yondashuv sifatida tasvirlangan. Xususan, AQSh prezidentligiga nomzod B.Obama 2012-yilgi saylov kompaniyasida aholi salomatligiga g'amxo'rlik qilish maqsadida pragmatik yondashuv sifatida

⁴⁹ Сафаров Ш. Тил ва маъно: Прагматик ёндашувлар. – Тошкент: Фан, 2004. – 220 б.

⁵⁰ Ж.Лёنز (J. Lönz) *Principles of Pragmatics*. – London: Longman, 1983. – 250 p.— author of *Principles of Pragmatics* (1983), who developed politeness maxims informed by Grice's cooperative principle.

⁵¹ Таубаев Ж.Т. Современные подходы к обучению казахскому языку в условиях цифровизации // Педагогический вестник. – 2019. – № 1. – С. 74-80. 64

“Obamacare” sugʻurta polisini tashkil qilgan. Bu oʻz navbatida, saylov natijalariga ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

Bundan tashqari, “Rayonda Botkin muammosi juda shov-shuv boʻlib ketdi” . Bu gapni quyidagi ikki maʼnoda tushunish mumkin: 1) Vrach Botkin masalasi...; 2) Botkin kasalligi masalasi....shov-shuv boʻlib ketdi.

Yana bir misol olaylik: “Sariqning muammolari koʻp hali” gapini ham quyidagicha ikki xil tushunish mumkin: 1) “Sariq (rangli kishi)ning muammolari koʻp hali”; 2) Sariq kasalligining muammolari koʻp hali”. Bularning qaysi biri roʻyobga chiqarilayotganligi mazkur gap qoʻllanilayotgan vaziyat va kontekstga, shuningdek muloqotdoshlar kommunikativ layoqatliligiga bevosita bogʻliq. Aks holda adresantning kommunikativ niyati, maqsadi – muddaosi amalga oshmay qolishi va oqibatda muloqot besamar boʻlishi mumkin.

Shuni ham taʼkidlash lozimki, verbal (til) vositalari bilan bir qatorda ehtiyojga koʻra muloqotda noverbal vositalar ham qoʻllanilishi ham diqqat markazida turishi lozim. Masalan, bosh ogʻrigʻini – boshni changallash, qorin ogʻrigʻini – qorinni ikki qoʻllab ushlash va aftni biroz bezovtalik yoki norozilik ifodasi bilan burishtirish, yurak xastaligini – yurakka oʻng qoʻlni qoʻyib, aftni biroz bezovtalik yoki norozilik ifodasi bilan burishtirish orqali va boshqa shular kabi paralingvistik vositalar yordamida ifodalash ehtiyoji ham tugʻilishi mumkin).

Shunday qilib, lingvistik pragmatikaning asosiy maqsadi “kontekstda til birliklarining, xususan KNIEKSFlar maʼno koʻlamini oʻrganish, shu yoʻsinda til tizimini tahlil qilishdir. Bu esa bevosita kommunikatsiya jarayonida tilning ijtimoiy va kommunikativ situativ tadqiqida namoyon boʻladi. Lingvopragmatik tahlil lisonning tabiatini, uning muayyan vaziyat bilan bogʻliq holda kommunikativ xoslanishini, undan kelib chiquvchi muayyan yashirilgan maʼnoni oʻrganishni maqsad qilgani holda, goho lugʻaviy maʼnoga zid boʻlgan maʼnoni ham ifodalash imkonini yaratadi. Masalan, “Bu kasalni davolashni boplapsan-ku!” gapi “Bu kasalni davolashni rasvo qilibsana-ku!” maʼnosini ham ifodalay oladi. Bunday holat, bizning fikrimizcha, tilda tejash tamoyili qonuniyatlarining amalda qoʻllanilayotganligidan dalolat beradi, demak, bu oʻrinda pragmatik kesimda til

vositalarini tejash tamoyili amalga oshirilyapti. Bunday vaziyatlarda na faqat verbal vositalar, balki noverbal vositalar ham faollashib, ular birgalikda – kreolizatsiya jarayoni orqali pragmatik ma’noni ro’yobga chiqaradi, natijada nutq aktida u yoki bu pragmatik ma’no voqelantiriladi. Bu ma’noda olinganda, shuni ta’kidlash lozimki, faqatgina adresant va adresat o’rtasida o’zaro tushunishga erishilgandagina pragmatik ma’no to’laqonli voqelantiriladi, ko’zlangan nutq akti amalga oshadi. Yana bir qiziq misol: “Bu chechakka qarshi dorilar” ham turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha pragmatik ma’no kasb etadi: 1) Chechak kasalligiga qarshi dori-darmonlar; 2) “Chechak (begona) o’tlarga qarshi pestitsidlar”.

Yuqoridagi misollardan ko’rinib turibdiki, tibbiy eponimik atamalar, xususan KNIEKSFlar tibbiy muloqotda kommunikatemalar sifatida turli nutq aktlarida lingvopragsmemalar, aniqrog’i lingvomedpragsmemalar maqomida keng qo’llaniladilar, shu yo’sinda tibbiy nutq aktlarining ro’yobga chiqarilishiga bevosita xizmat qiladilar.

Tahlillarimiz shuni ko’rsatdiki, tibbiyot atamaları tizimida ko’rsatilgan eponimik birikmali atamalar, xususan KNIEKSFlar guruhidan tavsiflab beruvchi atamalar guruhining afzal ko’rilishiga qaramay, tibbiyot atamalarining turli subsistema (kichik tizim)larida ham keng qo’llaniladilar, qanday bo’lmasin, eponimik atamalar tibbiyot meditsina atamaları tizimida dunyoning tibbiy antropotsentrik manzarasini aks ettiruvchi, ifodalovchi betakror vositalar sifatida o’z tarkiblariga ilmu fanga fidoyi kishilar, olimlar, bemorlar nomlarini olgan bo’lib, soha bo’yicha insoniyat uchun sezilarli darajada iz qoldira olgan mutaxassis olimlar, hakamlar va bemorlarning nomlarini o’sib kelayotgan yosh avlodlarga o’rnak bo’lishi uchun abadiylashtirishning birdan bir vositasi bo’lib xizmat qiladi.

Shunisi e’tiborga molikki, tibbiyot meditsina atamaları tizimida asosan ikki komponentli KNIEKSFlar nisbatan ko’pchilikni tashkil qiladi, lekin ko’pkomponentli eponimik atamalar ham anchagina.

Bunday eponimik vositalar ma’lum kasalliklar ustida ko’pchilik olimlar ish olib borganidan dalolat beradi. Eponimlar tegishli hodisani eslab, xotirada saqlab

qolishni osonlashtiradi, chunki idrokiy sathda retsiپیent aks ettirilayotgan yoki ifodalanayotgan tibbiy voqelikni to‘laqonli ravishda in’ikos etadi.

Eponimik atamalarning soha mutaxassislari orasida qo‘llanilishi ular tomonidan kasallikni zudlik bilan tushunib olishni, tegishli bilimlarni bir shaxsdan ikkinchisiga o‘tishini, soha fani rivojlanishining asosiy bosqichlarini, bir tibbiy hodisaga bo‘lgan fikr-mulohazalar va qarashlarning kurashini, shu yo‘sinda inson tibbiy dunyoqarashining shakllanishini aks ettiradi.

Eponimlar qo‘llanish uchun qulay va tushunarli vositalar bo‘lib, ularning o‘rniga tavsiflovchi atamalar qo‘llansa, u mutaxassislar ishini va faoliyatini murakkablashtiradi. Masalan, “Turetta sindromi” eponimik atamasi o‘rniga “ *kishi yuz qismining tez-tez tortishib turishi, bo‘yin va yelkaning qisilishi, til va lablarning majburiy qimirlashi va tez- tez yo‘talib, tupurishga moyil bo‘lishlik xastaligi*” kabi uzundan uzoq tavsiflovchi atama qo‘llansa, atamaning ifoda planida aniqlik va tushunarlilik darajasi anchagina pasayib ketadi, bu esa chindan ham mutaxassis yoki tarjimon, hattoki tinglovchi yoki o‘quvchining faoliyatini ham murakkablashtirib yuboradi. Lekin qanday bo‘lmasin, eponimik atamalar, shu jumladan KNIEKSFlar, tibbiyot meditsina atamaları orasida muhim o‘rin tutadi va qulay – universal tibbiy vosita sifatida qo‘llanishda va yangilanishda davom etaveradi.

Yuqoridagi tahlillarimizdan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, tibbiy eponimik atamalar va birikmali atamalar, xususan KNIEKSFlarning tadqiqi jahon xalqlari nutqi madaniyati, xususan tibbiy nutq madaniyati, ularning to‘laqonli muloqot olib borish layoqati, shuningdek turfa nutq aktlarida til vositalaridan ehtiyojga ko‘ra ongli, mohirona va o‘rinli foydalana olishlik qobiliyatlari muloqotdoshlarning lingvopragmatik bilimlari darajasiga bevosita bog‘liq bo‘lib, bunday omillar KNIEKSFlarning ular tomonidan tanlab, nutq aktining verbalizatorlri bo‘lmish *lingvopragmemalar* maqomida keng qo‘llanilishlari imkonini beradi, bu ma’noda ularni *lingvomedpragmamalar* deb atashga asos bor.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

Tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillaridagi kasallik KNIEKSFlarning serqirra struktural-semantik jihatlari va tasnifi ularning atroflicha tizimli tahliliga moddiy asos – material bo‘lib xizmat qiladi.

Qiyoslanayotgan tillardagi KNIEKSFlar – *frazeeponimlar disease (kasallik, xastalik), syndrome (yoki sindrom, bolezni, kasallik), illness yoki sickness (kasallik, xastalik), virus (virus), fever (isitma), tumor (shish), worm (qurt)* kabi eponimik komponentlarning struktural-semantik belgilariga ko‘ra ilk bor 22 ta asosiy turga tasniflandi va tavsiflandi. Bu o‘rinda ularning birinchi eponimik qismi sof eponimik (anropoeponimik) va kvazieponimik (topoeponimik, zooeponimik, ornitoeponimik, insektoeponimik va plantoeponimik) substantiv komponentlar orqali ifodalanganliklari uchun ularni ikki KNIEKSF katta, asosiy turga ilk bor tasniflashtirdik: 1) KNIEKSFlarning *sof eponimik turi*; 2) KNIEKSFlarning *kvazieponimik (o‘xshash, yaqin) turi*. Ular orasida birinchi turga mansub KNIEKSFlar son va qo‘llanish jihatidan ustun bo‘lib, ikkinchi turdan tubdan farq qiladi.

KNIEKSFlarning birinchi turi “entropoeponimik substantiv (qaratqich markerli yoki usiz) + tibbiy substantiv komponent” qolipi asosida quriladi, ularning ikkinchi turi esa “kvazieponimik (topoeponimik, zooeponimik, ornitoeponimik, insektoeponimik va plantoeponimik substantiv (qaratqich markerli yoki usiz) + tibbiy substantiv komponent” qolipiga ko‘ra yasaladi, bunday holatlarda sanab o‘tilgan noantroponimik substantiv komponentlardan eponimizatsiya jarayoni natijasida yangi kasalliklar nomlari ifodalaydi, ya’ni ular eponimlashadi, ya’ni yangi tibbiy kvazieponimik nomlar yasaydi.

Har ikki turdagi KNIEKSFlar til egalari ijtimoiy, shuningdek tibbiy madaniyatini aks ettiruvchi turli tillarga xos *lingvomedpragmemalar* bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida ham denotativ (referensial), ham pragmatik semantikalarini o‘zlarida mujassamlantirgan holda tibbiy muloqotda keng qo‘llaniladilar. Jonli tibbiy muloqotda KNIEKSFlar muayyan qurshovda aynan shu qurshovda kasb etadigan semntikalarni ifodalab, turli tibbiy nutq aktlaridagi til egalari – adresantlar – o‘zlarining kommunikativ – pragmatik intensiyalarini, muddaolarini adresatlarga

to'laqonli yetkazish maqsadida ham qo'llaydilar va shu yo'sinda ushbu muloqotning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlashga harakat qiladilar va unga erishadilar.

Muloqotdoshlarning ko'zlangan maqsadga erishishlarida ularning tibbiy, kommunikativ-pragmatik bilimlari, tibbiy muloqotga layoqatliligi va uni samarali qo'llay olish qobiliyati muhim omil vazifasini o'taydi, aks holda, muloqot istalgandek kechmasligi ham mumkin.

III BOB. KASALLIK KNIEKSFLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI VA TARJIMA MUAMMOLARI

3.1-§. Ingliz va o'zbek tillarida KNIEKSFlarning lingvokulturologik jihatlari va lingvomedkulturemalar

Ushbu bo'limda biz kasallik nomlarini ifodalovchi substantivemalarning, ya'ni eponimlarning kishilar va hayotida uchrab turadigan mavjud turli-tuman kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologik jihatlarga asosiy e'tiborni qaratamiz.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillarida kasallik nomlarini ifodalovchi eponimlar, ya'ni frazemalar asosan ikki xil usulda (yoki shaklda) yasalar ekan, ya'ni: 1) *eponimik* (kishilar nomini o'z ichiga olgan frazemalar 2) *kazieponimik* (kishilar nomlarini o'z ichiga olmagan frazemalar).

Kvazieponimik frazemalar esa o'z navbatida quyidagi usullarda yasalishini aniqladik:

1) hayvonlar nomlarini o'z ichiga olgan KNIEKSFlar: (cho'chqa grippi, maymun chechagi, mushuk tirnashi isitmasi, Antelope Squirrel (antilop olmaxon), Elephant Shrew (fil shroti), qo'y, it, eshak, ot, xo'roz, tovuq, (shabko'rlik – куриная слепота) mushuk, tuyay, fil, baliq, ilon, baqa (ko'krak baqasi – грудная жаба) va b.;

2) qushlar nomini o'z ichiga olgan KNIEKSFlar (bird flu – parranda grippi, chickenpox – suvchechak); Rhinoceros Beetle (karkidon qo'ng'iz);

3) hashoratlar nomini o'z ichiga olgan KNIEKSFlar (Skunk Bear (Skunk ayig'i), Bee Hummingbird (kolibr asalari), Camel Spider (tuyay o'rgimchagi); Giraffe Weevil (jirafa qurti);

4) sudralib yuruvchi hayvonlar nomini o'z ichiga olgan KNIEKSFlar; Leopard Frog (leopard qurbaqa), Elephant Seal (tyulen fil),

5) inson tana a'zolari nomini o'z ichiga olgan KNIEKSFlar (yurak, buyrak, jigar, ko'z, oshqozon, taloq, teri, soch, burun, quloq, qo'l, oyoq, bel, tizza, tirnoq, yuz, kindik, o't va hokazo xastaliklar);

6) yer, osmon va suv bilan bog'liq jismlar nomini o'z ichiga **olgan** KNIEKSFlar (air sick, sea sick, home sick, mashinada bosh aylanishi, qusishini keltirib chiqaruvchi xastaliklar);

7) quruqlikdagi va suvdagi o'simliklar nomini o'z ichiga olgan KNIEKSFlar (chayon o't, saskapa kabi zaharli o'tlar yoki gullar bilan bog'liq xastaliklar);

8) kasallik topilgan joyning nomini o'z ichiga olgan KNIEKSFlar: (masalan, Bornholm kasalligi, Laym kasalligi, Ebola virusi kasalligi va h.k.)

9) rang bilan bog'liq so'zlarni o'z ichiga olgan frazemalar (sariq, oq yom, qora, qizil ko'ylak, qizilcha, suvchechak, ko'k, qorason) tananing u yoki bu qismidagi xastalik (masalan, chiqqan yaraning) nomini o'z ichiga olgan dizionimemalar va h.k.

Biz ushbu bo'limda kasalliklar nomlarini ifodalovchi eponimik va kvazieponimik (inson, hayvon, o'simlik, qushlar, hasharotlar va boshqa predmetlar nomi bilan bog'langan va ular orqali shakllangan) KNIEKSFlarning lingvokulturologik jihatlarini ochib berishga harakat qilamiz. Unda biz har bir KNIEKSFning o'ziga xos lingvokulturologik komponentini o'z ichiga olganligidan kelib chiqib, ularning lingvokulturemalar ekanligini e'tirof etamiz. Biz ularni to'g'rirog'i *lingvomedkulturemalar* deb atash maqsadga muvofiq bo'lardi deb hisoblaymiz, chunki ular boshqa lingvokulturemalardan o'zlarining tibbiy tabiati bilan tubdan farqlanadilar.

Bu o'rinda zamonaviy tilshunoslikning istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lgan kognitiv yo'nalishning tobora ravnaq topib borayotgani bois kasalliklar nomlarini ifodalovchi frazemalarning eponimik va kvazieponimik turlariga asosiy e'tiborni qaratishimiz maqsadga muvofiq, chunki bu soha atamaları kun sayin rivojlanib bormoqda, shu yo'sinda tibbiyot fanining taraqqiyotidagi yangiliklar, jumladan kasalliklar va ularning substantiv atamalar orqali tillarda ifodalanishi borasidagi bugungi kun yangiliklari o'z ifodasini topmoqda.

Bugungi kunda tibbiyotning qaysi sohasini olmaylik, unda so'zsiz o'ziga xos va mos eponimik yoki kvazieponimik atamalarning keng qo'llanilayotganning guvohi bo'lamiz.

Tibbiyot atamolari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas, lekin bu borada eponimik atamalar va birikmali atamalarni kamroq qo‘llash yoki umuman qo‘llamaslikni yoqlab chiqqan tibbiyot va atamashunos olimlar ham bo‘lgan va bunday olimlar hanuzgacha ham bor. Shunga qaramay, ushbu yo‘nalishda u yoki bu kasallikni aniqlagan, topgan va uni davolagan, kasallikning yangi qirralarini ochgan mutaxassis olimlar nomlarini o‘z ichiga olgan eponimik atamalar to‘xtovsiz paydo bo‘layotgani, bir tomondan, tibbiy atamashunoslikning tobora ravnaq topib borayotganining isboti desak, ikkinchi tomondan hanuzgacha ayrim mutaxassislar tomonidan eponimik atamalarning kasalliklar tabiatining ayrim jihatlarini o‘zida aks ettira olmayotganligida ayblashlar davom etayotganligining guvohi bo‘lamiz.

Bizning bu borada o‘z fikr va mulohazalarmiz shundan iboratki, tibbiy eponimik atamalarning sohadagi tutgan o‘rni va ahamiyati juda katta ekanligini, eponimik atamalarning tarkibi ancha katta bo‘lishiga qaramay, kasalliklar tabiatini aniq va ravshan ifodalay olish imkoniyatlariga ega ekanligini ta’kidlashni maqsadga muvofiq deb bilamiz, chunki har qanday atamada unda ifodalanayotgan real yoki noreal voqelik hech qachon to‘liq aks ettirila olmaydi, vaholanki eponimik frazemalardan emas (ularning xoh qo‘shma, xoh aralash turi bo‘lsin), hatto tibbiy sentencema (gap)lardan ham mantiqiy tugallikni talab qilishga asos yo‘q.

Tibbiy eponimik atamalar va birikmali atamalar esa o‘ziga xos bir qadar qoliplashgan (stereotiplashgan) tushunchalar va voqeliklarni eks ettira olish imkoniyatlariga ega. Masalan, “Parkinson kasali – Parkinson’s disease” atamasi qo‘llanilganda soha mutaxassislari uchun aniq va ravshan bo‘lgan mazkur kasallik va uni davolash haqidagi barcha kerakli ma’lumotlar tushuniladi, soha mutaxassisi bo‘lmagan kishi uchun ham u bir qadar ma’lumotlarni beradi, vaholanki bu atamaning juda ixcham, tushunish va qo‘llanish uchun qulayligini hamma, hatto nomutaxassis kishi ham tan oladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Demak, biz eponimik atamalar, shu jumladan eponimik leksemalar va birikmali atamalar tarafdorimiz, vaholanki bunday atamalar bir eshitishda yoki ko‘rishdayoq, kishiga nafaqat shu kasalni ochgan va davolagan mutaxassis olim (yoki kasalga birinchi bor chalingan bemor va va boshqa omillar) haqida

ma'lumotlar beradi, balki shu kasallik va uni davolash yo'llariga tegishli tasavvur, tushunchalar va hatto muolajalarni ham ko'z oldiga keltirish vositasi bo'lib xizmat qilishiga shubha bo'lmasa kerak.

Shunday qilib, tibbiyotda nazariy va amaliy izlanishlarda eponimik atamalarga qaratilayotgan doimiy e'tibor, qaysi tomondan (xoh salbiy, xoh ijobiy tomondan) bo'lmasin, u hanuzgacha davom etayotgan ekan, bunday holat mazkur masalaning o'rganilishi tilshunoslikning dolzarb masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi. Shunday qilib, mazkur bo'limda zamonaviy tibbiyotda katta muvaffaqiyat bilan qo'llanilib kelayotgan an'anaviy va noan'anaviy eponimik hamda noeponimik leksemalar va birikmali atamalar orqali ifodalangan turlarining struktural-semantik jihatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xilma-xil lingvokulturologik jihatlariga asosiy e'tiborni qaratamiz.

Ushbu bo'limda biz ingliz va o'zbek tillarida zamonaviy tibbiyot sohasida qo'llanilib kelayotgan (3000 dan ortiq) eponimik va noeponimik atamalar va birikmali atamalarning lingvokulturologik jihatlarini tadqiq qilishga, shu yo'sinda ularning lingvokulturemalar sifatini ochib berishga harakat qilamiz.

Qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillarida eponimik tarkibga ega bo'lgan frazemalar, xususan KNIEKSFlarga quyidagilar misol bo'la oladi:

- 1) Stevens-Johnson syndrome – Stiven-Jonson sindromi;
- 2) Aspergers Syndrome – Aspergers sindromi;
- 3) Carpal Tunnel Syndrome – Karpal Tonnel sindromi;
- 4) Down Syndrome – Daun sindromi;
- 5) Williams Syndrome – Uilyams sindromi;
- 6) Gardener Syndrome – Gardner sindpromi;
- 7) Kallman Syndrome – Kalman sindromi;
- 8) Kelley-Seegmiller Syndrome – Kelli-Sigmiller sindromi;
- 9) Lesch-Nyhan Syndrome – Lesh-Nixan sindromi;
- 10) Fitz-Hugh-Curtis syndrome – Fits-Xyu-Kurtis sindromi;
- 11) Chicago disease – Chikago kasalligi;
- 12) Creutzfeldt-Jakob disease – Kreutsfeld-Yakob-kasalligi;

- 13) Kyasanur forest disease – Kiyasanur o'rmoni kasalligi;
- 14) Huntington's Disease – Xantington kasalligi;
- 15) Kennedy Disease – Kennedi kasalligi;
- 16) Duke's disease – Gersog kasalligi va h.k.

Ma'lumki, tibbiyot atamallari ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar natijasi bo'lib, ular ifodalanayotgan yoki nomlanayotgan tibbiy hodisalarning mohiyatini imkoniyat darajasida aniq aks ettirib berishi kerak. Shu nuqtayi nazardan olganda ba'zi frazeeponimlarga, shu jumladan KNIEKSFlarga qisman bo'lgan e'tirozlar (ya'ni ularning hajmi kattaligi, kam ma'lumotlar berishi, tillarda qo'shimcha sinonimik qatorlar tashkil qilishlari, bir tildan ikkinchi tilga transliteratsiya va transkripsiya qilinishi qiyinligi, shuningdek ular nomlanayotgan tibbiy hodisani yuzaki ifodalashlarining (vaholanki ularning xarakterli jihatlarini gohida o'zlarida aks ettirmasliklari) guvohi bo'lamiz. Lekin qanday bo'lmasin, eponimik tibbiyot atamallari, shu jumladan, eponimik frazemalar bugungi kunda tibbiy atamallarning aksariyat qismini tashkil etadi.

Tibbiyot atamallarini tahlil qilar ekanmiz, shunday xulosaga keldikki, hozirgi paytda eponimik atamallarning bir necha turlari mavjud. Jumladan, turli miflardan kirib kelgan nomlar bilan bog'liq eponimik atamalar (mifologizmlar), injildan kirib kelgan eponimik atamalar (bibleizmlar), adabiy personajlarning nomlari, turli kasalliklarni ochgan mutaxassis olimlar, hakimlar, kasallikka birinchi chalingan (va davolangan yoki davolana olmagan) bemorlar nomlari bilan bog'liq eponimik frazemalar borligini aniqladik.

Eponimik frazemalar bo'yicha tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi mifologik etimologiyaga ega bo'lgan eponimik frazemalar aksariyati tibbiyot atamashunosligiga Uyg'onish davridan boshlab kirib kelgan.

Tibbiyot atamalarida, shu jumladan KNIEKSFlarda, ya'ni frazemalarda mifologik asosga ega bo'lgan eponimlar ham tez-tez uchrab turadi (masalan, Iova sindromi – xronik taxikineziyaning bir turi bo'lib, u yuqori harakatlanish faolligi holatini bildiradi (rus tilida: состояние повышенной двигательной активности, наследственное заболевание с дефектом гуморального иммунитета и др.)

Injildagi avliyolar nomlari va boshqa iloxiy nomlar bilan bogʻliq eponimik frazemalar ham tibbiyot atamalarining anchagina qismini tashkil qiladi. Ularda maʼlum kasalliklar nomlari avliyolar nomlari bilan bevosita bogʻliq boʻlib, bunday eponimik atamalarning aksariyati Oʻrta asrlarda paydo boʻlgan (masalan, Anton olovi (oʻti) – qorasonga oʻxshash xastalik boʻlib, uning nomi III–IV asrlarda yashagan buyuk avliyo Anton bilan bogʻliqdir. Tarixiy manbalarga koʻra, oʻrta asrlarda bir qator ogʻir xastaliklarning nomlanishi bevosita muqaddas zotlar va avliyolarning karomatiga boʻlgan ishonch bilan bogʻliq boʻlgan. Xususan, xalq orasida “avliyo Anton olovi” (rus tilida: *Антонов озонь*) nomi bilan mashhur boʻlgan gangrenoz kasalligi III – IV asrlarda Misrda yashagan rohib avliyo Anton sharafiga shunday atalgan boʻlib, oʻsha davr bemorlari shifo tilab uning qadamjolariga sigʻinishgan. Xuddi shuningdek, boʻgʻim xastaligi hisoblangan podagra “avliyo Mavr kasali” (*хворь святого Мавра*) deb yuritilgan boʻlsa, tibbiyotda tartibsiz va ixtiyorsiz harakatlar bilan xarakterlanadigan xoreya sindromi “avliyo Vita raqsi” (*пляска святого Вита*) nomi bilan atalgan. Ushbu atamaning kelib chiqishiga XIV asrda Germaniyada keng tarqalgan diniy qarashlar sabab boʻlgan; unga koʻra, talvasaga tushgan bemorlar avliyo Vita va Avliyo Varvaraga bagʻishlab qurilgan cherkov hamda qoʻngʻiroqxonalarni ziyorat qilish orqali ushbu darddan xalos boʻlish mumkinligiga qattiq ishonishgan. Bunday eponimlarning shakllanishi oʻsha davr jamiyatida tibbiy bilimlarning diniy tasavvurlar bilan uygʻunlashganidan dalolat beradi. (Izvekova, Grihyenko, Purtov 2014, 76).

Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, eponimik frazemalarning aksariyati tilda metaforizatsiya (*istioralashtirish*) jarayonining bevosita oqibat-natijasi ekanligining guvohi boʻlamiz. Bunday holatlarda hatto tabu – evfemizmlar ham qoʻllanganligini eʼtirof etish joiz, chunki “avliyo Anton olovi” soʻz birikmasida “olov” “*qorason kasali*” oʻrnida ishlatilgani fikrimizning dalilidir. “Avliyo Vita raqsi” ham xuddi shu yoʻsinda qoʻllanilgan boʻlib, unda raqs “*talvasa*” oʻrnida ishlatilganligini koʻramiz. Bunday misollarni oʻzbek tilida ham uchratishimiz mumkin, masalan, oʻsha mudhish, bedavo “saron yoki qorason” kasalligi oʻrniga xalq orasida “yomon kasal” degan iboraning yuritilishi ham bejiz emas, chunki aniq

kasalni nomlash, aytish bilan odamlarni o'ta qo'rqitib yubormaslik, iztirobga solmaslik maqsadida xalqimiz tomonidan tabu va evfemizmlar tilimizda azaldan o'rinli qo'llanib kelinmoqda.

Klinik terminologiya tizimida mifologik manbalar hamda diniy manzumalardan olingan eponimik frazemalar alohida o'rin tutadi. Xususan, Injil syujetlariga asoslangan "Iova sindromi" shunday birliklardan biri bo'lib, u tibbiyotda gumoral immunitetning irsiy nuqsoni (nasl suruvchi immunodefitsit) sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, anatomik va klinik atamalar tarkibida insonning turli a'zolari, jumladan, tomoq, og'iz, ko'z tuzilmalari bilan bog'liq eponimlarni ham ko'plab uchratish mumkin. Buning yaqqol misoli sifatida xalq tilida "Odam olmasi" (rus tilida: Адамово яблоко yoki кадык) deb yuritiladigan, tibbiy lotin tilida esa Pomum Adami (prominentia laruncea) deb ataluvchi hiqildoq do'mboqchasini keltirish mumkin. Bunday atamalarning qo'llanishi tibbiy tushunchalarning tarixiy-madaniy qatlamlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Ayrim tibbiy atamalarning shakllanishi badiiy adabiyotdagi mashhur obrazlar va mualliflar tomonidan yaratilgan personajlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Masalan, surunkali yuqumli xastalik hisoblangan "sifilis" termini italyan olimi va shoiri Jirolamo Frakastroning "Sifilis yoki gall kasalligi haqida" (1530-yil) nomli dostoni qahramoni – Sifilius ismli cho'pon nomidan olingan. Shuningdek, I.V.Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" romani ta'sirida yuzaga kelgan "Verter sindromi" insonning o'z joniga qasd qilish darajasidagi og'ir ruhiy iztirob va tushkunlik holatini ifodalaydi. Shunga o'xshash mazmundagi "Myunxauzen sindromi" (tibbiyotda laparotomofiliya sifatida ham ma'lum) esa shaxsning ruhiy ezilishi natijasida o'zida mavjud bo'lmagan kasallik belgilarini o'ylab topishi yoki ataylab jarohat yetkazish orqali tibbiy yordamga intilishini anglatadi. Bunday eponimlar tibbiyot fanining nafaqat biologik, balki chuqur madaniy va psixologik asoslarga ham ega ekanligidan dalolat beradi.

Tibbiyot atamalari orasida u yoki bu kasallikni ochgan yoki davolagan mutaxassis olim, hakimlarning nomlari bilan bog'liq eponimik frazemalar katta guruhni tashkil etadi.

D.S.Lotting eponimik atamalar qo'llashni cheklash haqidagi taklifiga qaramasdan⁵² insoniyat sog'ligini saqlashda katta, mislsiz xizmat ko'rsatgan olimlarning nomlarini eponimik atamalar orqali yosh avlodga muhrlab berish, ularning shaxsiyatini ulug'lash ishtiyoqi fanda asosli ravishda negadir sira ham to'xtamayapti. Aftidan buning sababi bizningcha shuki, eponimik atama yoki birikmali atamalar, xususan KNIEKSFlar lo'nda, mazmundor, tushunarli va ta'sirchan bo'lib, kishilar, ayniqsa soha mutaxassisleri tomonidan xastalik bilan bog'liq tibbiy voqelikning in'ikos qilinishi, shuningdek sog'lom tibbiy madaniyatning shakllanishi, uning yaxlit ravishda aniq va ravshan tasavvur qilinishi uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, eponimik frazemalar ba'zan murakkab struktura – tarkibga ega bo'ladilar, sababi ularda birdan ortiq, ba'zida ikki va undan ortiq olimlar bir vaqtning o'zida, bir-birlaridan bexabar, u yoki bu kasallikni ochgan va davolaganlar, shu bois ularni bir atamada teng ravishda aks ettirish zarurati tug'ilganligidandir. Masalan, Itsenko-Kushing kasalligi⁵³ bunga yorqin misol bo'la oladi. Yoki boshqa bir xastalikni olsak, aytaylik, Abt-Letterer-Sive kasalligini (haqiqiy retikulogistiotisitoz (rus tilida: *истинный ретикулогистиоцитоз* deb yuritiladi). Bu kasallikni ilk bor Letterer ta'riflab yoritib bergan, Sive esa uning batafsil klinik tavsifini bergan, Abt esa ularning barcha klinik tavsifini umumlashtirgan. Yana boshqa misol olaylik, Xuluchi Bexchet degan olim 1937-yilda bir kasallikni ochgan, lekin undan oldinroq 1930-yilda o'sha kasallikni Benediktos Adamantiades ilmiy yoritib, uni asoslab bergan edi⁵⁴. Shunga o'xshagan

⁵² Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии. (илмий-техник терминологияни яратиш асослари) – М.: Изд-во Академии наук СССР, 1941. – 112 с.

⁵³ Itsenko-Kushing sindromi – neyroendokrin kasallik bo'lib, birinchi marta 1926 yilda sovet nevropatologi N.M. Itsenko tomonidan to'liq tavsiflangan. 1912-yilda amerikalik neyroxirurg Xarvi Kushing gipofiz shishalari bilan bog'liq holatlarni o'rgangan. Shu sababli bu kasallik ikki olim nomiga bag'ishlab "Itsenko-Kushing sindromi" deb ataladi // Meditsina ensiklopediyasi / Тахр. В.И.Покровский. – М.: Советская энциклопедия, 2001. – Т. 2. – Б. 284.

⁵⁴ Adamantiades Benediktos (1875–1962) – yunon oftalmologi bo'lib, 1930-yilda Afina tibbiy jamiyati yig'inida qaytalanuvchan irit (hypopyon) bilan bog'liq vizual simptomlar, lokalizlangan tromboflebit, genital va og'iz atrofida yaratilgan ulug'alarni bir xil ilmiy kasallik sifatida birinchi bor yoritgan. Adamantiades-Bexchet kasalligi (Adamantiades Behçet's disease) – ko'p tizimli, qaytalanuvchan vaskulit kasalligi bo'lib, uning nomiga Adamantiades va Behçet olimlarining hissasini bildiruvchi shartnoma berilgan.

holda Xayns Klinger Vegeneragacha hozirda “granulematoz” deb yuritiladigan kasallikni ochib, uni atroflicha yoritib bergan edi⁵⁵.

Makito Takayasa hozirgi kunda uning nomi bilan yuritiladigan “vaskulit” kasalligining turli-tuman vaskulyar o‘zgarishlarini ochib, ilmiy yoritib berolmadi, lekin baribir mazkur kasallik uning nomi bilan atalganicha qolib kelmoqda.

Tibbiyot olamida ba’zan turli mamlakatlarda ayrim kasalliklarning o‘ziga xos eponimik (shaxs ismi bilan bog‘liq) nomlanish xususiyatlari mavjudligi e’tiborga molikdir. Masalan, tibbiyotda katta hujayrali (gigant hujayrali) arterit deb yuritiladigan xastalik Germaniyada “Xorton kasalligi” (nemischa: *Morbus Horton*; rus tilida: *болезнь Хортонна*; fransuzcha: “*maladie de Horton*”) nomi bilan keng tanilgan. Qiziqarli jihati shundaki, ushbu kasallikni tavsiflagan olim Bayard Teylor Xorton amerikalik bo‘lsa-da, AQSh tibbiyot adabiyotlarida “Xorto kasalligi” eponimi deyarli uchramaydi.

Buning ustiga Amerika va xalqaro ingliz tilidagi manbalarda kasallikning gizztologik tabiatini aniq ifodalovchi “Giant Cell Arteritis (GCA) yoki anatomik joylashuviga ko‘ra “Temporal Arteritis” terminlaridan foydalaniladi. Amerika va xalqaro ingliz tilidagi manbalarda kasallikning gizztologik tabiatini aniq ifodalovchi “anklozir spondiloartrit” eponimik atamasi Germaniyada “Bexterev kasalligi” (ingliz tilida: “Bechterew’s disease”, rus tilida: “*болезнь Бехтерева*”) deb nomlansa, boshqa mamlakatlarda uni “Mari-Shtryumpell kasalligi” (nemis tilida “Marie-Strümpell disease”) deb yuritiladi. Shunday qilib, bir kasallikning bir tilda birdan ortiq (vaholanki bir kasallikning o‘nga yaqin nomi bo‘lishi ham mumkin, buning ustiga ularning qisqartmalari va xalq orasida o‘ziga xos istioralashgan (metaforizatsiya) yoki metonimiyalashgan (metonimizatsiya) nomlari ham mavjud bo‘lib, ular birgalikda ma’lum sinonimik qatorlarni tashkil etadilar, ya’ni, bir nechta eponimlar bitta kasallikni anglatishi mumkin (masalan, amiloid degeneratsiyasi Aberkrombi kasalligi, Aberkrombi sindromi va Virxov sindromi deb ataladi).

Xususan, sinonimik qator qanchalik keng bo‘lsa, uning a’zolari soni ham shunchalik ko‘p bo‘ladi. Bunday holat mazkur eponimik frazemalarning bir tildan

⁵⁵ Вегенер Ф. Клиническое и патоморфологическое описание гранулематозного васкулита / Friedrich Wegener // *Who Named It?* – Ruxsat tartibi: <http://www.whonamedit.com/synd.cfm/1234>.

ikkinchi tilga transliteratsiya va transkripsiya orqali o'g'irilishida bir qancha noqulayliklar va qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarishi tabiiydir. Bunga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin Banti sindromi – syndromum Banti (lotin) Adams-Stokes-Morgagni – lotincha *syndromum Banti* Adams-Stokes-Morgagni (lat.). “Fitz-Hugh-Curtis sindromi” doktor Uilyam Tompson Fitz (1812–1896) va uning hamkasbi doktor Samuyel Aleksandr Kertis (1813–1873) sharafiga nomlangan. 1843-yilda ular tomonidan tasvirlangan sindrom tuberkulyozdan kelib chiqqan qorin bo'shlig'i massasi edi.

Bundan tashqari, biz bir eponim orqali ikki xil-mutlaqo bir-biriga aloqasi bo'lmagan kasallikning ifodalanishi mumkinligini aniqladik. Masalan, de “Kerven kasalligi” deganda tibbiyotda meditsinada bir tomondan “tendovaginit” kasalligi tushunilsa, ikkinchi tomondan “qalqonsimon bezi vazifasining buzilishi kasalligi” ham tushuniladi. Bunday holat tibbiy atamalar tizimida omonimlar ham mavjudligidan dalolat beradi.

Ayrim eponimik atamalarda muayyan kasallikka chalingan bemorlarning ism-familiyalari ham ishlatiladi. Masalan, “XeLa hujayralari kulturasini” tushunchasi saraton hujayralarining laboratoriya sharoitidagi ilk “o'lmas” (immortal) turkumini anglatadi. Ushbu termin bemor Henrietta Lacks (Genriyetta Laks) ism-familiyasining bosh harflaridan olingan. Shuningdek, “Diogen sindromi” tushunchasi ostida mutaxassislar asosan keksa yoshidagi kishilarda kuzatiladigan, ijtimoiy yakkalanish, o'z-o'ziga e'tiborsizlik va gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik bilan xarakterlanadigan xulq-atvor buzilishini tushuniladi.

Shuningdek, tibbiyotda avtoeponimik atamalarni ham kuzatishimiz mumkin. Xususan, “avtoeponim” quyidagilar sharafiga atalgan tibbiy holatdir:

1) o'zi tavsiflagan yoki aniqlagan kasallik natijasida zarar ko'rgan yoki vafot etgan shifokor yoki boshqa sog'liqni saqlash xodimi;

2) sog'liqni saqlash mutaxassisi bo'lmagan bemor, ammo kasallikdan aziyat chekkan yoki vafot etgan shaxs;

3) rikketsioz: 1906-yilda Xovard Teylor Rikets Rokki Qoyali tog'dagi bezgak qo'zg'atuvchi bakteriyalarni aniqladi. U 1909-yilda o'ziga patogen ukol qildi va izlanish davomida Mexikoda vafot etdi;

4) Karrion kasalligi (Padalskaya bolezni): Perulik tibbiyot talabasi Daniyel Alcides Karrión 1885-yilda "Oroya isitmasi"ni isbotlash uchun o'zini *Bartonella bacilliformis* bilan emladi. U davlatning milliy qahramoniga aylandi (o'lmay qoldi);

5) "Provazek" mikroorganizmi 1915-yilda tifdan vafot etgan Stanislav Provazek sharafiga nomlangan.

Bundan tashqari, bemorlar nomi bilan atalgan ALS (amiotrofik lateral skleroz) bo'lgan Lou Gehrig kasalligi⁵⁶ ko'pchilikka ma'lum. Bu rojdestvo kasalligi yoki gemofiliya B bemor nomi bilan atalgan kasallikka misol bo'la oladi.

Tarkibiga ko'ra, eponimik frazemalar kamida ikki komponentli til birikmalari bo'lib, ularning tarkibiga atoqli otlar bilan birga umumiy ma'noga ega bo'lgan mavzuiy va tarkibiy yadro (o'zak so'z) ham kiradi, bunday so'zlarni odatda klinik atamalar bilan kasallik, simptom, sindrom, sinish, chiqish, operatsiya, metod, usul, dog', refleks va boshqalar deb yuritiladi, lekin anatomik atamalar bilan aytganda esa kanal, (tar)nov, yo'l, bo'shliq va boshqalar qo'llaniladi. Masalan, Romodanov suyagiga ishlov berish usuli, Bek operatsiyasi, Bekker kasalligi, Romodanov metodi, Lassar pastasi, Kalo uchburchagi, Zdrenko qo'shilmasi(yig'ilmasi) va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, tibbiyot atamalari tizimida ko'rsatilgan eponimik atamalar guruhidan tavsiflab beruvchi atamalar guruhining afzal ko'rilishiga qaramay, tibbiyot meditsina atamalarining turli subsistema (kichik tizim)larida qo'llaniladilar, qanday bo'lmasin, eponimik atamalar tibbiyot meditsina atamalari tizimida dunyoning antropotsentrik tibbiy manzarasini aks ettiruvchi, ifodalovchi betakror vositalar sifatida o'z tarkiblariga ilm-faniga fidoyi kishilar, olimlar, bemorlar nomlarini olgan bo'lib, soha bo'yicha insoniyat uchun sezilarli iz

⁵⁶ L. Haynts Karl Ernst Klinger 1931-yilda nashr etilgan "Grenzformen der Periarthritis nodosa" nomli ilmiy maqolasida ushbu kasallaikning o'ziga xos chegaraviy shakllari va klinik belgilarini atroflicha tasvirlab bergan. Klinger tomonidan ilgari surilgan ushbu ilmiy tahlillar va ma'lumotlar keyinchalik Fridrix Vegener (Friedrix Wegener) tomonidan ham klinik kechishi, ham patologik anatomiyasi jihatidan to'liq o'rganilib, o'z tasdig'ini topgan.

qoldira olgan mutaxassis olim va hakamlar va bemorlarning nomlarini o'sib kelayotgan yosh avlodlarga o'rnak bo'lishi uchun abadiylashtirishning birdan bir vositasi bo'lib xizmat qiladilar.

Shunisi e'tiborga molikki, tibbiyot meditsina atamaları tizimida asosan ikki komponentli eponimik dizionimemalar ko'pchilikni tashkil qiladi, lekin ko'pkomponentli eponimik atamalar ham anchagina.

Bunday eponimik vositalar ma'lum kasalliklar ustida ko'pchilik olimlar ish olib borganidan dalolat beradi. Eponimlar tegishli hodisani eslab, xotirada saqlab qolishni osonlashtiradi, chunki idrokiy sathda retsiپیent aks ettirilayotgan yoki ifodalanayotgan tibbiy voqelikni to'liq ravishda in'ikos etadi.

Eponimik atamalarning soha mutaxassislari orasida qo'llanilishi ular tomonidan kasallikni zudlik bilan tushunib yetishni, tegishli bilimlarni bir shaxsdan ikkinchisiga o'tishini, soha fani rivojlanishining asosiy bosqichlarini, bir tibbiy hodisaga bo'lgan fikr-mulohazalar va qarashlarning kurashini, shuningdek inson dunyoqarashining shakllanishini aks ettiradi.

Eponimlar qo'llanish uchun qulay va tushunarli vositalar bo'lib, ularning o'rniga tavsiflovchi atamalar qo'llansa, u mutaxassislar ishini va faoliyatini murakkablashtiradi. Masalan, "sindrom Turetta" eponimik atamasi o'rniga *"kishi yuz qismining tez-tez tortishib turishi, bo'yin va yelkaning qisilishi, til va lablarning majburiy qimirlashi va tez-tez yo'talib, tupurishga moyil bo'lishlik xastaligi"* kabi uzundan uzoq tavsiflovchi atama qo'llansa, atamaning ifoda planida aniqlik va tushunarlilik darajasi anchagina pasayib ketadi, bu esa chindan ham mutaxassis yoki tarjimon, hattoki tinglovchi yoki o'quvchining faoliyatini ham murakkablashtirib yuboradi. Lekin qanday bo'lmasin, eponimik atamalar, shu jumladan eponimik birikmali tibbiy atamaları orasida muhim o'rin tutadi va qulay vosita sifatida qo'llanishda davom etaveradi.

Yuqoridagi tahlillarimizdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, tibbiy eponimik atamalar va birikmali atamalar, xususan KNIEKSFlarning tadqiqi jahon xalqlari madaniyati, shu jumladan ularning tibbiy madaniyati shakllanishi va bugungi maqomi bilan uzviy bog'liq bo'lib, insoniyatni sog'lomlashtirishda ishonchli ilmiy

omil bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Shu ma’noda ularni kasalliklar tarixi va ularning tadqiqi bilan bog‘liq inson - insoniyat madniyatini, xususan uning tibbiy madaniyatini uzida aks ettiruvchi *lingmedvokulturemalar* deb atashga to‘liq asos bor, chunki ulardagi eponimik komponent turli xalqlar tibbiy madaniyati taniqli vakillarining turli xil tillar(ingliz, rus, o‘zbek, nemis,yapon,fransuz va h.k.)dagi eponimik usulda voqelintirilishining natijasidir.

3.2-§. Ingliz va o‘zbek tillarida KNIEKSFlarning izomorfik va allomorfik jihatlari va translatologik aspekti

Ma’lumki, qiyoslanayotgan ingliz va o‘zbek tillaridagi tipologik jihatdan o‘xshash bo‘lmagan tillar hisoblanadilar, chunki ingliz tili katta hind-yevropa tillar oilasiga mansub bo‘lib, analitik til turiga kiradi. Bunday tillarda so‘z deyarli o‘zgarmaydi, gap a’zolari o‘rtasidagi sintaktik munosabatlar analitik vositalar (predloglar, so‘z tartibi) orqali ifodalanadi. Morfologik jihatdan olganda bunday tillarda so‘z uch yo‘nalishda “o‘sishi” mumkin: 1) oldidan o‘sish, 2) o‘rtadan o‘sish va ortidan o‘sish. Bunday holat ingliz tilidagi KNIEKSFlarning yasama va qo‘shma turlarida prefiks (old qo‘shimcha), infiks (ich(ki) qo‘shimcha) va postfikslarning keng qo‘llanilishidan dalolat beradi. Hattoki prefiks, infiks va postfikslarning bir so‘zda baravar qo‘llanilishi ham kuzatilishi mumkin.

O‘zbek tili oltoy tillar guruhining turkiy tillar oilasiga daxldor bo‘lib, agglyutinatativ tillar turiga mansubdir. Bunday tillarda so‘z o‘zgaruvchan bo‘ladi, gap bo‘laklari yoki komponentlari o‘rtasidagi sintaktik munosabatlar “-ki, -kim, -sa” kabi sintetik va qisman analitik vositalar (ko‘makchilar G‘poslleloglarG‘, ravishdoshlar” deb, deya” va eron-fors tillaridan kirib kelgan “*gar, agar, chunki, garchi, toki, zo‘ra(ki), shoyad(ki)* kabi bog‘lovchilar” (conjunctions) va bir qator bog‘lovchi vositalar (connectives) va so‘z tartibi orqali ifodalanadi.

Morfologik jihatdan olganda bunday tillarda, ingliz tilidan farqli o‘laroq, so‘z faqat bir yo‘nalishda “o‘sishi” mumkin, u ham bo‘lsa so‘zning orqasidan(ortidan) o‘sish. Bunday holat o‘zbek tilidagi KNIEKSFlarning yasama va qo‘shma turlarida faqat postfiks (ort qo‘shimcha) larning keng qo‘llanilishidan dalolat beradi.

Demak, o‘zbek tilida qo‘llanilayotgan prefiksli (betob, betoblik, bemor, bemorlik, bemorlik kasbi, bemorlik faoliyati, noo‘rin tashxis, bedavo, bedavo kasallik kabi tibbiy birliklardagi “*be-*, *no-*” kabi prefiksli so‘zlar fors-tojik tillaridan kirib kelgan *o‘zlashtirma affiks turlari* bo‘lib, o‘zbek tilida hanuzgacha qo‘llanib kelmoqda. Bunday holat tarixan bir-biriga yaqin bo‘lgan, lekin madaniyatlari farqlanadigan xalqlarning o‘zaro tarixiy madaniy munosabatlarining ma’lum darajada qorishib ketganligining oqibat natijasidir.

KNIEKSFlarning yuqoridagi tavsiflaridan kelib chiqib, shu narsa aniqlandiki har ikkala qiyoslanayotgan tillarda, vaholanki barcha tillarda mazkur frazemalarning struktural va semantik hamda kommunikativ-pragmatik va lingvokulturologik turlari mavjud bo‘lib, ular bir qator izomorfik va allomorfik jihatlarga ega.

Tadqiqotda amalga oshirilgan qiyosiy-tipologik tahlillarimiz asosida ingliz va o‘zbek tillarida ularning quyidagi izomorfik jihatlari ilk bor aniqlandi:

1) har ikkala tilning sintaktik sathida KNIEKSFlar mavjud bo‘lib, ular maxsus tibbiy eponimik tizimni tashkil etadilar;

2) qiyoslanayotgan har ikki tilda KNIEKSFlarning mavjud ekanligi va o‘ziga xos tegishli, muhim kommunikativ-pragmatik vazifani bajarishligi ularning muloqot nuqtayi nazaridan olganda kerakli tibbiy voqeliklar verbalizatorlari ekanligining isbotidir;

3. tilda gapiruvchilar ongida, tafakkurida mavjud bo‘lgan “kasallik” kognitiv-konseptual semantikasi universal hodisa sifatida mazkur tillarda bevosita KNIEKSFlar orqali ham ifodalanishini taqozo etadi;

4. har ikki tilda aksariyat hollarda lotin-yunon, qisman ingliz, rus va nemis asoslariga ega bo‘lgan, KNIEKSFlarning yuzaki strukturasi (surface structure)ga ko‘ra sodda, yasama, qo‘shma, murakkab va aralash struktural turlarining mavjudligi va ularning keng qo‘llanilishi tillarda umumlisoniy rivojlanish qonuniyatlariga amal qilinishining isbotidir;

5. har ikkala tilda KNIEKSFlar tarkibiy qurilishida umumiy morfologik-sintaktik jarayonlar, jumladan affiksatsiya, (prefiksatsiya, infiksatsiya (ingliz tiliga

xos) va postfiksatsiya (har ikkala tilga xos) jarayonlari, shuningdek kollokatsiya (yonma-yon qo'yish) koordinatsiya, subordinatsiya kabi jarayonlar ham kuzatiladi.

6. qiyoslanayotgan tillarda KNIEKSFlar o'zlariga xos lingvokulturologik tavsifga ega bo'lib, o'zlarida til egalari bo'lmish kishilarning hayot faoliyati, hayot tarzi bilan bog'liq ma'lum madaniyat komponent(lar)ini o'z ichiga olishlari ham mumkin, shu bois ularni **lingvomedikokulturemalar** deb atash maqsadga muvofiqdir;

7. har ikki tilda lingvopragmatik jihatdan olinganda KNIEKSFlarning til egalarining nutq aktlarida lingvopragmamalar, ya'ni nutq akti ishtirokchilari bo'lgan adresantning kommunikativ intensiyasi, ya'ni muddaosini adresatga yetkazishda va unga adresatning unga bo'lgan reaksiyasi munosabatida muhim verbal vositalar sifatida xizmat qiladi.

1. Tarkibiga ko'ra KNIEKSFlarning ikki asosiy turini aniqlashga erishdik: 1) eponimik (shaxs nomi orqali ifodalangan) turi va 2) kvazieponimik (hayvon, joy, qush, qurt-qumursqa, o'simlik nomlari orqali ifodalangan) turi.

2. ingliz va o'zbek tillarida KNIEKSFlarning semantik turlari ham muayyan izomorfik jihatlarga ega bo'lib, bunday jihatlar ularning ichki (semantik) strukturasi (deep structure) qat'iy bir xil ekanligini ko'rsatadi, bu omil esa dunyoda kasalliklarning universal tabiatga ega ekanliklaridan dalolat beradi va ularni davolash ham universal qonun va qoidalar asosida qat'iy amalga oshirilishini taqozo etadi.

Qiyoslanayotgan tillarda KNIEKSFlarning allomorfik jihatlariga quyidagilar kiradi:

1. Har ikki tilda KNIEKSFlarning yuzaki strukturasi (surface structure)ga ko'ra farqlanadilar, chunki ular mazkur tillardagi mavjud qoliplar asosida shakllanib, ularning milliy resurslar (unsurlar)i orqali ifodalanadi va tegishli morfologik va sintaktik tavsifga ega bo'ladi.

2. Har ikki tilda KNIEKSFlarning sodda, yasama turlari o'xshash bo'lsa-da, ularning qo'shma, murakkab va aralash turlari qat'iy farqlanadi; har bir tilda KNIEKSFlarning tibbiy eponimlashuv

3. Jarayoni o'ziga xos ravishda kechadi, bunday o'ziga xoslik esa ularning metaforizatsiya va metonimizatsiya jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, obyektiv borliqni lisoniy-kognitiv jihatdan tibbiy til manzarasi orqali o'ziga xos ravishda aks ettirish bilan farqlanadi.

4. Lisoniy-kognitiv jihatdan olib qaralganda qiyoslanayotgan tillarda KNIEKSFlarning kasalliklarni nomlashlarida istioralashtiriluv (metaforizatsiya) va metonimlashtiriluv (metonimizatsiya) jarayonlarining kechishi turlicha bo'lib, ularda tabu va evfemistik vositalarning qo'llanilishi ham o'ziga xosliklarga ega va h.k.;

5. Qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillaridagi eponimlarning izomorfik jihatlari tillardagi umumlisoniy rivojlanish qonuniyatlari bilan tushuntirilsa, ularning allomorfik jihatlari, bir tomondan, har bir tilning idiomatik tavsifi bilan bog'liq bo'lib, ikkinchi tomondan u yoki bu tilning egasi bo'lgan xalqning betakror tafakkuri bilan, shuningdek bunday tafakkurning tegishli tilda o'ziga xos til vositalari orqali voqelantirilishi bilan ham bevosita bog'liqdir.

Biz yuqorida eponimlarning lotin, yunon, ingliz, nemis va rus tillari leksik vositalari asosida, yoki ularning o'zaro qorishuvi natijasida shakllanganligining guvohi bo'ldik. Bunday etimologik eponimik jarayonlar natijasi o'laroq, KNIEKSFlarning qo'shma, murakkab va aralash turlari tillarda mavjud ekanligini va ular kundalik muloqotda bevosita qo'llanilayotganini e'tirof etish joiz.

Yuqorida ingliz va o'zbek tillaridagi KNIEKSFlarning struktural va semantik turlarining biz tomonimizdan aniqlangan izomorfik va allomorfik jihatlari asoslangan holda keyingi o'rinlarda ularning translatolik (tarjimaviy) aspekti tadqiqiga o'tamiz.

Ma'lumki, tarjima jarayoni serqirra va murakkab jarayon bo'lib, KNIEKSFlarning bir tildan ikkinchi tilga o'girishda katta qiyinchiliklarga duch kelinadi.

Tarjima jarayonida qiyoslanayotgan KNIEKSFlarning tillararo mutanosibligi va nomutanosibligi darajasini aniqlashda ularning turli struktural-semantik turlari bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillaridagi KNIEKSFlarning struktural-semantik turlarini bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinishi ham o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi⁵⁷, bu o'rinda ularning bir tildan ikkinchi tilga qanday tarjima birliklari, ya'ni "translyatemalari"⁵⁸ va usullari orqali o'girilishiga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, KNIEKSFlarning bir tildan ikkinchi tilga o'girishda quyidagi bir qator tarjima usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi:

- 1) transkripsiya;
- 2) transliteratsiya;
- 3) uzib qoplash (kalka);
- 4) eksonimiya;
- 5) parafraza;
- 6) erkin tarjima qilish va b.⁵⁹

Ingliz tibbiy eponimlarini o'zbek tiliga o'girishning eng keng tarqalgan usuli bu transkripsiyadir. Tarjimaviy transkripsiya bu tarjimada asl nusxaning talaffuz shaklini tarjima tilida aynan o'zidek qilib mohirona berishdir (qarang, masalan, "nou-xau" – ingliz tilidagi "know-how" iborasining tarjimasidir). Quyida ingliz eponimlarining tarjimaviy transkripsiya usuli orqali o'girish namunalarini keltiramiz:

Transkripsiya:

- 1) botulism – botulizm (German Botulismus – nemis botulizmi);
- 2) autism – autizm (child autism – bolalar autizmi);
- 3) asthma – astma (allergic asthma – allergik astma);

⁵⁷ Оганесян М.В. Сопоставительно-переводческий анализ английской и русской медицинской терминологии по генетике: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – М., 2003. – С. 8-9.

⁵⁸ Khoshimov M.G. Some reflections on the unified theory of metalanguage of translation and translatology // International scientific-practical conference on the theme: «Current issues in Roman-Germanic linguistics». – Tashkent: UZSWLU, 2023. – Pp. 50-55. – Ruxsat tartibi: www.myscience.uz.

⁵⁹ Хошимов Г.М. ва бошқ. Таржима метатили ва бундликлари назарияси // "Turizm sohasida sotsial media, mahalliy madaniyatlar va gid hamrohlik munosabatlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Andijon, 2024. – 133–136 б.

4) astigmatism – astigmatizm (humane astigmatism – insondagi astigmatizm);

5) anorexia – anoreksiya (anorexia nervosa – anoreksiya asabiylashuvi);

6) anaemia – anemiya (haemorrhagic anaemia – gemorragik kamqonlik);

7) abscess – absess (mother abscess – ilk absess);

8) alcoholism – alkogolizm (permanent alcoholism – surunkali alkogolizm);

9) daltonism – daltonizm (early daltonism – ilk (boshlang‘ich) daltonizm);

10) vitiligo – vitiligo (vitiligo aftereffects – vitiligo asoratlari);

O‘zining ko‘p qo‘llanilishi bilan tarjimaviy transliteratsiya usuli tarjimaviy transkripsiyadan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. Tarjimaviy transliteratsiya deganda biz tarjimada asl nusxadagi til birligini tarjima tiliga harfma-harf o‘tkazib, o‘g‘irish tushuniladi. Tarjimaviy transliteratsiyaga, masalan, eponimlardagi atoqli otlarning bir tildan ikkinchi tilga o‘g‘irilishi yorqin misol bo‘la oladi (Washington – Vashington, Kansas – Kanzas va h.k.)

Quyida biz ingliz tibbiyot atamalari, xususan KNIEKSFlarni o‘zbek tiliga tarjimaviy transkripsiya orqali berilishini misollar orqali ko‘rsatib berishga harakat qilamiz.

Transliteratsiya:

1) aneurism – anevrizm (brain aneurysm – bosh anevrizmi. cerebral **aneurysm**);

2) pneumonia – pnevmoniya (alveolar pneumonia – milk prevmoniyasi);

3) diarrhea – diareya (severe diarrhea – kuchli ich ketishi);

4) diphtheria – difteriya (Corynebacterium diphtheriae, korenobakteria difteriyasi);

5) neuralgia – nevralgia (trigeminal neuralgia – trigeminal nevralgia);

6) rheumatism – revmatizm (rheumatoid arthritis – ravmatik artrit);

Ingliz KNIEKSFlarini o‘zbek tiliga o‘g‘irishda eksonimlar alohida o‘rin tutadi. Eksonimizatsiya o‘ziga xos tarjimaviy jarayon bo‘lib, unda asl nusxadagi til birligining tarjima tiliga uning ayrim harflarini o‘zgartirish, shu yo‘sinda talaffuzini ham biroz o‘zgartirish orqali o‘g‘irish tushuniladi (masalan, Moscow – o‘zbek tiliga Moskva bo‘lib, Warsaw – Varshava bo‘lib o‘g‘iriladi. Quyida biz ayrim ingliz

tibbiyot atamlarini, xususan KNIEKSFlarini aynan shu usulda, ya'ni eksonimik usulda o'zbek tiliga o'girilishiga misollar keltiramiz:

Eksonimlar:

- 1) allergy – allergiya (an allergy to feathers – part allergiyasi)
- 2) appendicitis – appenditsit (Chronic appendicitis – surunkali appenditsit)
- 3) arthritis – artrit (infectious arthritis – yuqumli artrit)
- 4) atherosclerosis -osteochondrosis – ateroskleroz - ateroskleroz
- 5) atrophy –atrofiya (Muscular atrophy – muskul atrofiyasi)
- 6) bronchitis – bronxit (chronic bronchitis – surunkali bronxit)
- 7) varix, varicosity –varikoz(varikoz tomir)
- 8) gangrene – gangrena (Dry gangrene –quruq gangrena)
- 9) – gematoma (perianal haematoma – anus (orqadan chiqish gematomasi)
- 10) haemophilia – gemofiliya(haemophilia A - A gemofiliyasi) va boshqalar.

Ingliz eponimlarini o'zbek tiliga erkin **tarjima** usuli bilan ham o'giriladi. Bu usul yuqorida keltirilgan tarjimaviy usullardan tubdan farq qiladi. Unda asl nusxa tilidagi til birligini tarjima tiliga imkoniyat darajasida muqobil so'zini topib, o'giriladi, ag'dariladi, u yerda transkripsiya ham, transliteratsiya ham, shuningdek eksonimlar ham qo'llanilmaydi, masalan:

Erkin tarjima:

- 1) Acute quinsy – angina – yiringli tomoq og'rig'i
- 2) infertility – bepushtlik (humane infertility – odam bepushtligi)
- 3) insomnia – uykusizlik (permanent insomnia – surunkali uyqusizlik)

rabies Transliteratsiya:

7) aneurism – anevrizm (brain aneurysm – bosh anevrizmi. cerebral **aneurysm**);

- 8) pneumonia – pnevmoniya (alveolar pneumonia – milk prevmoniyasi);
- 9) diarrhea – diareya (severe diarrhea – kuchli ich ketishi);

10) diphtheria – difteriya (Corynebacterium diphtheriae, korenobakteria difteriyasi);

- 11) neuralgia – nevrалgiya (trigeminal neuralgia – trigeminal nevrалgiya);
- 12) rheumatism – revmatizm (rheumatoid arthritis – ravmatik artrit);

Ingliz KNIEKSFlarini o‘zbek tiliga o‘g‘irishda eksonimlar alohida o‘rin tutadi. Eksonimizatsiya o‘ziga xos tarjimaviy jarayon bo‘lib, unda asl nusxadagi til birligining tarjima tiliga uning ayrim harflarini o‘zgartirish, shu yo‘sinda talaffuzini ham biroz o‘zgartirish orqali o‘g‘irish tushuniladi (masalan, Moscow – o‘zbek tiliga Moskva bo‘lib, Warsaw – Varshava bo‘lib o‘g‘iriladi. Quyida biz ayrim ingliz tibbiyot atamlarini, xususan KNIEKSFlarini aynan shu usulda, ya’ni eksonimik usulda o‘zbek tiliga o‘g‘irilishiga misollar keltiramiz:

Eksonimlar:

- 11) allergy – allergiya (an allergy to feathers – part allergiyasi);
- 12) appendicitis – appenditsit (Chronic appendicitis – surunkali appenditsit);
- 13) arthritis – artrit (infectious arthritis – yuqumli artrit);
- 14) quturish (dog rabies – it quturishi);
- 15) myopia – yao‘indan ko‘rish (child myopia – bolalardagi yaqin ko‘rishlik);
- 16) warts – so‘gal (humane wart – odam so‘gali)
- 17) chicken pox – chechak (chicken pox epidemics – chechak epidemiyasi);
- 18) dropsy – sariq suv kasali (body dropsy – tanadagi sariq suv kasali);
- 19) antritis – gaymorit, burun bo‘shlig‘ining yallig‘lanishi (kasalligi) (antritis stomach – oshqozon antriti);
- 20) piles – bavoil kasalligi (human piles – odamdagi bavoil kasalligi) va h.k.

Tarjima jarayonida “kalka” usuli ham muhim o‘rin tutadi, unda asl nusxa tilidagi til birligining struktural tarkibini saqlagan holda o‘g‘irish tushuniladi (masalan, rus tilidagi “парк культуры и отдыха” birikmasini o‘zbek tiliga “madaniyat va istirohat bog‘i” orqali kalka bilan o‘g‘irish kuzatiladi). Shu yo‘sinda ingliz eponimlarini o‘zbek tiliga o‘g‘irish ham mumkin:

Kalka:

1. Stevens-Johnson syndrome – Stivens-Jonson sindromi;
2. Aspergers Syndrome – Aspergers sindromi;
3. Carpal Tunnel Syndrome – Karpal Tonnel sindromi;
4. Down Syndrome – Daun sindromi;
5. Williams Syndrome – Uilyams sindromi;

6. Gardener Syndrome – Gardner sindpromi;
7. Kallman Syndrome – Kalman sindromi;
8. Kelley-Seegmiller Syndrome – Kelli-Sigmiller sindromi
9. Lesch-Nyhan Syndrome – Lesh-Nixan sindromi
10. Fitz-Hugh-Curtis syndrome – Fits-Xyu-Kurtis sindromi
11. Chicago disease – Chikago kasalligi
12. Creutzfeldt-Jakob disease – Kreutsfeld-Yakob kasalligi
13. Kyasanur forest disease – Kiyasanur o‘rmoni kasalligi
14. Huntington's Disease – Xantington kasalligi
15. Kennedy Disease – Kennedi kasalligi
16. Duke's disease – Gersog kasalligi va h.k.

Tarjimada yana bir usul ham tez-tez qo‘llanib turiladi, u ham bo‘lsa parafrazadir. Parafraza asl nus‘ha tilidagi til birliginining ma‘nosini tarjima tili birliklari orqali izohlab o‘girilishidir. Quyida biz ingliz eponimlarini o‘zbek tiliga parafraza orqali o‘girilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Parafrazalar:

- 1) Beta Thalassemia – Beta talassemiya, irsiy gemolitik anemiya;
- 2) Charcot-Marie-Tooth Disease – Charco-Mari-Tut kasalligi;
- 3) Hers Disease – Gers kasalligi;
- 4) Huntington's Disease – yo‘g‘on ichakning irsiy agangliozi;
- 5) Lesch-Nyhan syndrome – Xantington xoreyasi;
- 6) Stein-Leventhal Syndrome – Stein-Leventhal sindromi;
- 7) Tay-Sachs Disease – Tey-Saks kasalligi;
- 8) Stevens-Johnson syndrome – Stivens-Johnson kasalligi;
- 9) Von Hippel-Lindau disease – Fon Gippel-Lindau kasalligi.

Bizning tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, yuqoridagi tarjima usullari ichida transkripsiya, transliteratsiya va uzib qoplash usullari KNIEKSFlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girishda boshqa usullardan ko‘proq qo‘llanilar ekan⁶⁰.

⁶⁰ Инглиз тиббий эпонимик фраземаларининг ўзбек тилига таржима килиш усуллари ҳақида батафсил маълумотлар учун ишимиизнинг 7-иловасига қаранг).

Shuningdek, tadqiqot davomida **KNIEKSFlarning Britaniya ingliz tili (BrE) va Amerika ingliz tili (AmE) variantlaridagi struktur-semantik, fonologik va yozilish (spelling) jihatlarining o'xshash va farqli tomonlari qiyosiy tahlil** qilindi.

1. Struktur-semantik jihatlar. O'xshash tomonlar: BrE va AmE da eponim asosidagi kasallik nomlari semantik jihatdan barqaror, kasallikning klinik mazmuni o'zgarmaydi. KNIEKSFlar asosan **antroponim + umumiy tibbiyot termini** modelida quriladi: *Hodgkin's lymphoma* (BrE / AmE), *Alzheimer's disease* (BrE / AmE).

Semantik yadrosi (kasallik mohiyati) ikki variantda ham bir xil.

Farqli tomonlar: AmE da **deskriptiv (noeponimik) variantlarga o'tish** kuchliroq: *Graves' disease* → *autoimmune hyperthyroidism*

Reiter's syndrome → *reactive arthritis*

BrE da eponimlar an'anaviy terminologik birlik sifatida uzoqroq saqlanadi.

2. Fonologik jihatlar. O'xshash tomonlar: Eponim asosidagi birliklarda asosiy urg'u **antroponim komponentga** tushadi.

Lotincha yoki yunoncha ildizlar fonetik jihatdan bir xil qabul qilinadi.

Alzheimer's disease – BrE: /'æltʃ,haɪməz dɪ'zi:z/, AmE: /'æltʃ,haɪməz dɪ'zi:z/.

Farqli tomonlar: R tovushi: BrE – non-rhotic (r talaffuz qilinmaydi), AmE – rhotic (r talaffuz qilinadi). Misol: *Parkinson* – BrE: /'pɑ:kɪnsən/, AmE: /'pɑ:rkɪnsən/, *Horner syndrome* – BrE: /'hɔ:nə/, AmE: /'hɔ:rnər/.

Bu farq fonologik tizimga bog'liq bo'lib, **termin ma'nosiga ta'sir qilmaydi.**

3. Yozilish (spelling) jihatlari. O'xshash tomonlar: KNIEKSFlar asosan bir xil grafik shaklda yoziladi, antroponim komponent doim bosh harf bilan yoziladi. Misol: *Crohn's disease*, *Down syndrome*.

Farqli tomonlar: Apostrof ishlatilishi: BrE: an'anaviy tarzda 's saqlanadi – *Hodgkin's lymphoma*, AmE: apostrofsiz variantlar keng tarqalmoqda – *Hodgkin lymphoma*. AmE da bu holat **terminologik soddalashtirish tendensiyasi** bilan bog'liq.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, KNIEKSFlarning BrE va AmE variantlaridagi tafovutlar **semantik xarakterga ega bo'lmaydi**, balki **lingvopragmatik va sotsiomadaniy omillar bilan belgilanadi**.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillarida KNIEKSFlar kundalik tibbiyot amaliyotida va muloqotda keng qo'llanilib, tibbiy nutq aktlarida o'ziga xos lingvokulturologik jihatlarni namoyish qiladilar. Har bir ma'nodor til birligi o'zining denotativ yeyemantika (ma'no)siga ega bo'lib, shu bilan bir vaqtda muloqot vaziyati va ehtiyojiga ko'ra ma'lum konnotativ – madaniy semantikasi ham ro'yobga chiqaradilar, shu yo'sinda o'zlarining lingvokulturologik xususiyatlarini ham namoyish etadilar. Mana shu jihatlari KNIEKSFlarning lingvokulturemalar sifatidagi maqomga ega ekanligidan dalolat beradi. Bunday tibbiy eponimik substantiv frazemalarning lingvokulturologik jihatlari ularning tarkibiy qismlarida ham o'z aksini topgan. Biz tomonimizdan tarkibiy shakllanishiga ko'ra tasniflashtirilganda ularning quyidagi ikki asosiy turida ham ularning lingvokulturologik jihatlari o'z aksini topgan: 1) *eponimik* (kishilar nomini o'z ichiga olgan, substantiv yadrogga ega olgan KNIEKSFlar; 2) *kvazieponimik* (kishilar nomlaridan boshqa substantiv yadrogga ega bo'lgan KNIEKSFlar. Bunday eponimik va kvazieponimik tibbiy frazemalar turlaridagi antropoeponimik, topoeponimik, zooeponimik, ornitoeponimik, insektoeponimik va plantoeponimik yadroviy substantiv komponentlar til egalari ijtimoiy va tibbiy madaniyatlarini bilin uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalarni qat'iy ravishda o'z tarkibiga oladi, ularning o'xshash va o'ziga xos xususiyatlarini bevosita namoyish etadi. Bu o'rinda tadqiqotda birinchi eponimik turga mansub KNIEKSFlar ularning ikkinchi kvazieponimik turidan qo'llanilishiga ko'ra keng tarqalganligi va son jihatdan ustun ekanligi aniqlandi. Qanday bo'lmasin, ularning har ikki turi ham insonlar tibbiy madaniyatining turfa qirralarini nutq aktlarida voqelantiruvchi, tadqiqotda "*lingvomedkulturemalar*" deb atalgan universal, nominativ sintaktik birliklar bo'lib hisoblanadi.

KNIESFlarning yadroviy attributiv (aniqlovchi) vazifasini bajaruvchi substantiv komponentlari ingliz va o‘zbek tili sohiblari madaniyati, shu jumladan ularning umumjahon tibbiy madaniyatda o‘z mehnati, ijodi, kashfiyotlari va xizmatlari bilan jahonga tanilgan, shunday ezgu ishlarga (tibbiyotga) o‘zlarining butun hayotini baxshida qilgan taniqli, tibbiy shaxslar, shuningdek u yoki bu kasallikning kelib chiqish bilan bog‘liq tarixiy joylar, qolaversa turli xil kasalliklarni keltirib chiqargan hayvonlar, qushlar, qurt-qumrsqa va zararli o‘simliklari nomlari bilan bog‘liq KNIEKSFlar lingvomedkulturemalar sifatida inson hayoti, madaniyati, xususan uning tibbiy madaniyatini bevosita o‘zlarida aks ettiradilar, shu yo‘sinda ular jahon tibbiy madaniyatini rivojlanishida, ravnaq topishida muhim vosita, omil bo‘lib xizmat qiladilar.

Tadqiqotda tahlilga tortilgan ingliz va o‘zbek tillaridagi KNIEKSFlarning struktural-semantik turlari mavjud bo‘lib, ularning har bir tilga xos eponimik nominativ frazemalar – lingvopragmemalar va lingvokulturemalar sifatidagi quyidagi bir qator izomorfik va allomorfik xususiyatlari aniqlandi:

KNIEKSFlarning izomorfik jihatlari:

1. Har ikkala tilda KNIEKSFlar substantiv frazemalarning nominativ turlaridan biri sifatida mavjud;

